

Inson qalbining eng nozik, eng daxlsiz, eng erka tuyg'usi v'B“ muhabbat! Yozma ijodning eng samimi, eng sirli va eng jozibali shakli esa v'B“ maktub. Muhabbat jozibasiyu cephini bayon etishda maktubdan ko'ra qulay va tabiiy shakl yo'q.

Aziz kitobxon! Qissadagi maktublarni Siz yozgansiz, ularning bari Sizniki. Ishonavering, qizdir-yigitdir, istagan kishi bunday ishqnomani bitishga qodir. Faqat buning uchun, ko'ngil beg'ubor sevgi sururiy bokira muhabbat iztirobini boshdan kechirgan bo'lса bas. Muallif

Hech kima malum emas
holi parishonim menin. Mashrab

Hijronim mingdir menin

1

... asl gavhar qanday bo'lishini bilasizmi? v'B“ Dur, yoqut, marvarid v'B“ dersiz. Topolmadingnz, topolmaysiz ham. Odamlar odatda o'zlari yetisholmayotgan, qo'lga kirla olmayotgan narsalarni shu qadar yaxshi biladilaru, yonginalaridagi boylikning yoki topildiqning farqiga bormaydilar, qadriga yetmaydilar.

Nimaga shama qilayotganimni sezdingizmi? Javohirning asili dur yoxud marvarid emas, aslo, javohirning asili v'B“ Siz, Sizning o'zingiz!..

Sizni birinchi bor uchratganimda qanday ahvolga tushganimni aytay: ko'nglingizga olmangu, Sizga birrov ko'z tashlaganimda manglayingiz, yanog'ingiz, yuzingiz bu qadar oppoqligini ko'rib, ichimda, v'B“ Bunday qizning qalbi tong shabadasidek beg'ubor bo'ladi v'B“ deb yuborganman. Qo'l uzatib, o'zimni tanishtirmoqqa chog'langanman ham, lekin

Oradan yillar o'tdi. Bilasizmi, men hech kimdan begonasiramayman, yetti yot begona bilan ham zumda til topishaman. Sizga esa yurak yutib og'iz ocholmadim. Suluv chehrangizni emas, suluvlikni ko'z-ko'z qilayotgan v'B“ chehrangizdag'i nurdek oqlikni ko'rib aqlim shoshib qolgan.

Har kishida to umrining oxirigacha go'daklik tuyg'usi saqlanadi. Bilmadim, o'sha damda go'daklik hislarim junbushga keldimi, ilinj, xavotir va armon aralash tushuniksiz bir mayl xayolimga tird'aldi: v'B“ Men shu oqlikka loyiqmanmi? v'B“ degan shubhalı savol yuragimga xanjardek botdi.

O'sha xanjarni hali-hanuz sug'urib ololganim yo'q...

Bu qadar tasirchanligimdan hayron qoldim. Yotsam ham, tursam ham v'B“ tushimdayu o'ngimda shu savol taqibidan qutulolmadim. O'zimni harchand chalg'itmay, so'radim-so'rayverdim:

Men shu poklikka loyiqmanmi?

Men shu poklikka loyiqmanmi?

Men shu poklikka...

Aslida tanimagan-netmagan qizga ko'ngil qo'yishni tasavvur qilolmayman, shu bois, men dastavval Sizga nisbatan emas, Sizning yuz-ko'zingizdan, bosiq va doimo yerga tikilgan nigohlaringizdan taralayotgan oqlikka nisbatan juda-juda ojiz, notavon his qilgandim, o'zimni. Va ana shu, aytidim-ku, tushuniksiz va notavonlikdan xalos bo'lish chorasini izlashga kirishdim.

Xat ko'ngil ko'prigi, bu ko'priki ikki kishi uchun buniyod etiladi, unga shu ikki kishidan bo'lak hech kim qadam bosmaydi va unga begona nazar ham tushmasligi kerak. Chunki ikki ko'ngil to'ridagi eng bokira, eng erka orzu-armonlar ushbu ko'priki v'B“ maktub vositasi-la yo'llanadi. Parvardigor umr bersa, faqat va faqat Sizga izhor etishim mumkin bo'lgan o'ylarim sira-sira adog'iga yetmaydi. Samimiyatimni to'g'ri qabul qilasiz degan umiddaman...

Yoshlikmi yo g'o'rlikmi, har qalay masuma qizlarga ro'para kelsam o'zimcha, v'B“ Xudo buning qadriga yetadigan turmush hamrohini uchratsin-das v'B“ deya iltijo qilar edim. Odamlarga v'B“ tanish-notanishligining farqi yo'q v'B“ hamma-hammaga birdek baxt tilayman. Inson uchun oilaviy baxtdan ko'ra ulug'roq saodat yo'q. Ayol-qizlar uchun esa, eh-he-e!..

Sizni birinchi bor uchratgan kezlarim oilaning baxtiyorligi shunga bog'liq deb tushunar edim. Siz kabi qizlar qo'li kosov, sochi supurgi bo'lib, qadr topmay yashamasligi kerak deb o'ylaganman. Yashirmay, bordiyu, Siz bilan topishish baxtiga tuyassar bo'lsm gard yuqtirmaslikka, shohi liboslarga o'rab, begona ko'zlardan asrab-avaylab, sochidan qoshidan bo'yndan oyog'inining momiq barmoqlaridan aylanib-o'rgilib, billur va chinni idishlar qatori yasate-eb qo'yaman deya ahdu qaror qilganman.

Kulmang, oradan shuncha yil o'tsa hamki, qarorim o'zgargani yo'q, aksincha, Sizga nisbatan ko'nglimning tub-tubida tug'ilgan tushuniksiz mayl yuragimming zarbasi qatori doimiy hamrohim, yo'l doshimga aylangan

* * *

Xatingizni takror-takror o'qidim. Kuldim, o'yga toldim. Javob yozish-yozmaslik mulohazasida boshim qotdi. Nima uchun Sizga xat yozishim kerak?

Savolim og'ir botmasin.

Yaxshi rassom ekanligingiz, g'alati-g'alati suratlaringizni ko'tarib kunda-kunora xonamizga kirib kelishingizni, asarlaringiz haqida hayajonlanib xikoya qilishingizni esladim. Bazan kirib, lom-lim demay jimgina o'tirib, so'ng indamaygina chiqib ketar edingiz, lekin aksari suhbatlaringizga quloq solib o'tirib, har qanday mavzuda o'ta samimiyat bilan fikr yuritishingizga hayron qolar edim, Bazan suhbatlaringizga aralashgim, ko'nglimda tug'ilayotgan mulohazalarimni aytgim kelar edi, lekin menin o'ylarim Sizning suhbatlaringiz oldida juda jo'n, tinglashga arzimasdekk tuyular, uyalib qolaman degan xavotirda tilimni tishlab qo'ya qolar edim. Yodingizda bo'lса, o'shanda ham asil javohir, asil dur, asil gavhar haqida so'ragansiz. Men javob berolmaganman. Mana, yana o'sha savol...

Javobingiz meni hayronu lol qoldirdi. Uni o'qib, rosti, sarosimaga tushdim.

Sizga nechun kerak bo'lib qoldi meni duru javohirning asiliga o'xshatish? Mening chehramdan taralgan (chindan shundaymi?) oppoq nur ne sababdan Sizgagina ko'rina qoldi?

O'ylab o'yimga yetolmayapman...

His-tuyg'ularimni tahlil etishdan ham toymabsiz. To'g'ri, hayotda hech kimsaga yomonlik sog'inmaganman, biron kimsaning ko'ngliga ozor yetkazishdan juda-juda qo'rqaman. Biroq, Siz tarifga loyiq xislatlarni mendagina ko'rdingizmi? Axir Siz begonasiz...

Siz keltirgan suratlar xonamizdagilarning barchasiga birdek yoqmasa ediyu, lekin hech kim ularga befarq, loqayd qaramagan. Biz qizlar bir-biridan qiziqrli suhbatlaringizga mahliyo edik. Hammamiz Sizni birdek samimiyy hurmat qilardik. Ayniqsa, ayol-qizlarni ko'klarga ko'targuvchi maqtovlaringiz... noziktabligingiz, odobingiz bizlarni hayratga solar, xayrlashib xonadan chiqqan zamoningiz Siz haqingizda g'iybat boshlab yuborar, o'zimizcha Sizga munosib kelin topar edik. Faqat rassomlar

betayin, g'lati felli bo'ladi degan gaplar goh kulgi, goh jiddiy alfozda suhbatimizga ilashib qolardi. Yashirmay, bunday asossiz tanalar bazan menga og'ir botsa-da, ichimdagini sirtimga chiqarmaganman. Bu qadar ko'ngli ochiq, mulohazali yigit, kasbidan qati nazar, odamning qadriga yetadi, deb hisoblaganman.

Odamning qadriga yeta bilihsdan ko'ra ulug'roq saodat bo'lmasa kerak dunyoda! Har qanday oilaning baxti, mustahkamligi erxotin bir-birovini qadrlay olishi bilan o'chanadi. Bu haqdagi fikrimiz bir xil ekan...

Xatni mehr bilan yozibsiz. Samimi tuyg'ularingizni sezdim. O'qiyotib, xonamizdagi maroqli suhbatlaringizni ko'z oldimga keltirdim. Ko'nglimga beg'ubor yengillik qo'ndi. Shunga ham rahmat...

2

... uncha-buncha odam do'ppisini osmonga irg'itadigan yangiliklardan quvonavermasligimga bazan o'zim ham ajablanaman. Lekin Sizning xatingizni oldimu!.. Vujudimga titroq yugurdi, o'qiyapmanu, ko'zlarimga ishonmayman. ВЂњХатимни javobsiz qoldirmasB degan umidim chippakka chiqmadi, shuning o'zi tengsiz quvonch, men uchun.

Sizlar o'tirgan xonaga kunda-kunora suratlar olib kelib boshi-adog'i yo'q suhbatlarim bilan boshingizni og'ritganlarimni sira unutmayman. O'zim nimalarni vaysaganim emas, Sizning bosh egib so'zlarimga culoq solib o'tirishingiz, ahyon-ahyonda birrov qarab qo'yishingiz sira ko'z o'ngimdan o'chmaydi.

Ayni suhbatga qo'shilishingiz mumkin bo'lgan damlarda ham sukut saqlar edingiz, shunday paytlarda aslzoda oilada tarbiya ko'rgan kibor qizlardan bo'lsa-ya degan o'ylar kechar edi xayolimdan. Ahyon-ahyonda to'satdan kulib qarar va o'sha zahoti jiddiy tortar edingiz. Misoli yarq etib yonib-o'chgan chiroqni eslatar edi, kulishingiz. Bir zumlik tabassumingizdan ichim charog'on bo'lar edi.

Sezarmidingiz?..

Men esa Sizning momiq barmoqlaringiz, kaftlaringiz, bilaklaringizdan ham chehrangizda bo'lgani kabi sadafdek oppoq nur taralishini kashf etganman. Kashf etganmanu, kechirasiz, Sizning o'zingizni emas, Sizzdan taralguvchi nur sehri va jozibasi sirlarini izlashga ahd qilganman.

Parvardigor ato etgan bu go'zallikni sezmas edingiz, o'zingiz. Ilohiy xilqat suratida yaratib, bandalari orasiga tushirib qo'yilgansizu, hech bir kas ko'ngil ko'zini ochib Sizga qaramagan, sezmagan. Siz esa... O'zingiz ham beparvo yuraverlangsiz. Tasavvur kiling, Sizdagi shu ilohiy tarovatni ilg'ash, undan bahra olish yolg'iz menga nasib etsa... Shuni o'yladimu, entikib ketdim...

Baxtmi yo boshqa narsami, mo'jizami, bu? Bu yorug'likka loyiqmanmi?..

Bilmadim...

Chehrangizdan taralgan oydin nur asiriga aylandim. Bundayin nurni avaylamoq, qadrlamoq uchun esa o'zim benihoya pokiza, beg'ubor bo'lmg'lm shart degan qapopra keldim.

... ne-ne donishmandlar quyosh va oyning, behisob yulduzlarning go'zalligiga mahliyo bo'limganlar! Qiziq, osmon yoritqichlarining jozibasi nimada?

Ular taratayotgan nurda.

Bashariyatning oqilu donolari o'z umrlarini mazkur nurlar manbaini o'rganishga, ularning jamoliga yetib borishga baxshida etganlar.

Nega, nima uchun?

Jozib nurlar iloh nazari tushgan jismda jamlanadi, zero, oq-oppoq nurda farishtalar go'zalligi mujassam topadi. Qalbi charog'on va go'zal insonlargina ushbu ilohiy nurni azoi badanlariga jo etadilar, shu tariqa mo'jizalarga qodir nur toza qalb sohiblari bo'lmissiz zaminiy xilqatlarning muborak badanlarida aks etadi... Shunday ekan, Sizni duru javohirning asilasiga o'xshatishimda mubolag'a yo'q. Sizdagi ushbu mo'jizaga faqat va faqat toza ko'ngil, beg'ubor nazar bilan qarash mumkin, degan qarorga kelgandim, o'shanda.

Men Sizdagi o'zim kashf etgan go'zallik, hurlik jozibasi haqida o'y surish uchun qalban poklanmog'im shart edi. Unga munosib bo'lishga ahd qildim va... shahardan bosh olib ketdim!..

Aytmochi, вЂњNima uchun Sizga xat yozishim kerak?вЂќ degan savolningiz ham mayli, вЂњBegonasizвЂќ deganingiz picha og'ir botdi. Axir so'zning mazmuniga qarang. Sizni yaxshiroq, ko'proq tushungan va boshqalardan ko'ra samimiyroq ezozlay bilgan kishi begona sanaladimi?.. Xudo Sizga ato etgan go'zallikni payqagan va uni behad qadrlashga ahdu paymon qilgan odam gunohkormi?.. Uning gunohi Sizni ko'ngil ko'zi bilan ko'ra olganidami?..

Ayting, hyp qizlargagina nasib etadigan Sizdagi bokira tuyg'ular chashmasini ilg'ay olgan odam Siz uchun begonami?..

Niyatim bitta, xolos вЂњSizga begona emasligimni bildirish! Yo'q, aslo, juda-juda yaqin odamingizman! Shuni bilib qo'ysangiz kifoya...

* * *

... xatingizni o'qib, o'zimni qo'yarga joy topolmadim. Axir men qiz bolaman. Qizdir, ayoldir вЂњojiza. Harchand vazmin bo'lmay ehtiros, hayajon, mehr-ezozga to'la so'zlarining qattiq o'ylantirdi, hayratga soldi. ВЂњDuru javohirning asilibвЂќ, вЂњParvardigor ato etgan go'zallikвЂќ, вЂњIlohiy xilqatвЂќ... Bunday tarifu tavisiflar har qanday ayol-qizga yoqadi. Faqat men Siz tarifganchalik emasman. Ojizaman. Meni bunchalik ulug'layotganingiz boisini tushunolmayapman.

O'z suhbatlarim bilan joningizga tekkanman, deb yozibsiz. Bunday emas. Hamxonalarimizning birortasi bunday xayolga bormagan. Men-ku, jon qulog'im bilan tinglar edim... To'g'ri, hayratimni oshkor qilavermaganman, lekin aytayotgan so'zlariningzning birortasini etiborsiz qoldirmaganman.

Sinchkov, ziyrak edingiz. Shundan hayiqar edik. ВЂњXayolparast rassom deymizu, judayam ziyrakвЂќ degan edi qizlardan biri. Shuni o'ylab nafasimni ichimga yutib o'tirganman doim. Siz esa buni kibrga yo'ibsiz, вЂњAslzoda oila farzandibвЂќ, debsiz.

Zinhor unday emas. Qanday qilib men Sizga nisbatan kibrli bo'lismish mumkin?.. Tavba, bu gapingizdan kuldim. Axir Siz qaydayu, men qaydaman... Siz o'ylar surib yashayotgan yuksaklikka ko'tarilish uchun menga yo'l bo'lsin...

Eslasangiz kerak, gapira turib to'satdan, вЂњMeni to'g'ri tushunyapsizlarmi?вЂќ degan deb so'rар edingiz. Men Sizga tik qaray olmaganim bois dabdurustdan ismimni aytib murojaat qilar edingiz. Men вЂњHa, tushunyapmanвЂќ degan manoda bosh irg'ab qo'yar edim.

Siz hech kimni etiborsiz qo'ymagansiz. Ayniqsa, qizlar va ayollarning kayfiyatini zumda ilg'ab olar edingiz-da, sezganiningizni

sezdirmay oramizda xomushroq ko'ringlini chog'lash yo'lini topar edingiz. Hammamiz Sizni samimiyl hurmat qilar edik, tushunar edik. Hatto, вЂњSizlarni ikki kun ko'rmasam o'zimni qo'yarga joy topolmaymanвЂќ degan so'zlaringizni ham to'g'ri, pokiza dil izhori o'nida qabul qilar, bundan boshimiz, osmonga yetar edi.

Erkaklar har bir ayolga Siz singari hurmat, muhabbat, etibor bilan munosabatda bo'lishsa edi, dunyoda vaysaqi, hayosiz, farosatsiz ayolning o'zi qolmas edi, shunday emasmi?..

Xat yozyapmanu, Siz bilan tuzukroq, ochilibroq suhbatlashishdan xijolat bo'lganlarimni eslayman. Hanuz o'sha fikrdaman. Sizning teran mulohazalaringiz mening jo'n, sayoz fikrlarimni qanday qabul qiladi, degan qo'rquv sira tark etmagan meni. To'g'risini aytay, shaxsan mendek oddiy qiz nazarida Siz osmondasiz. Osmonda turib yerdagi oddiy bir ojiza qizga mehr qo'yibsiz. Osmoningizga chiqolmasam kerak.

Darvoqe, kim kimga begona deb bosh qotirish ortiqcha. Hayotda shunday holatlar yuz beradiki, uning ipidan-ignasigacha muhokama qilish odamga rohatdan ko'ra, ko'proq azob keltiradi. To'g'rimi?..

Men Sizni yaxshi bilaman, taniyman, lekin qiz bola tomonidan, вЂњSizni qadrlaymanвЂќ yo shu qabilda dil izhori qilish, bilmadim... .

Azbaroyi qattiq hurmat qilganidandan xatlaringizni javobsiz qoldirigm kelmayapti. Nima qilarimni bilolmayapman. Takror aytay, men Sizning osmoningizga chiqolmayman. Mayli, Siz meni osmoningizda turib yaxshi ko'ra qoling вЂ“ yomon yaxshi ko'rmang, yaxshi yaxshi ko'ring.

Xatni tugatdimu, ikki kungacha uni yonimda asrab yurdim. Yirtib tashlamoqchi ham edim... Siz mendan ko'ra mulohazalisiz. Biror xatoga yo'l qo'yayotgan bo'lsam, aytavering, to'g'ri yo'l ko'rsating... .

3

... xatingizni o'qib yuragim orqaga tortib ketdi. Menga bitilgan xatni ikki kun (ikki kun-a!) saqlab yuribsiz, o'sha ikki kun mobaynida xayolan ikki yuz ming ko'chaga kirib chiqqanimni tasavvur qilasizmi?.. Hatto uni yirtib tashlash xayoliga boribsiz. Bu so'zlaringizni o'qib, qanday holatga tushganimni tasvirlab berolmayman... .

O'sha, shahardan bosh olib ketgancha, bilasizmi, nima bilan mashg'ul bo'ldim?

Ko'ngil ko'chalarini poklovchi musaffo ranglar va shu ranglar uyg'unligini izladim. Beg'ubor, toza ranglar suratini matoga, qog'ozga ko'chirdim... Inson oq rangni sevs, oq ranglar qurshovida yashasa, butun borliqni, bani basharni oq tusda ko'ra bilsa... Men har kim ko'ravermaydigan, har kim ilg'ay olavermaydigan musaffolkini nazarda tutmoqdaman... .

... qontalash shafaq yotoqqa bosh qo'yan palla, dara oralab o'tgan o'zanda quyuq o'sgan qamishzorni oraladim. Quyuq va zich o'sgan, balandligi besh-olti quloch keladigan qamish changalzoridan oralab o'tish mashaqqat. Boshim, yuz-ko'zim aralash qiyiq o'ralgan. Yorug' dunyoda men ko'rman-bilmagan narsa yo'g'u, qadam bosmaganim qamishzor qolgandek qadam-baqadam oldinga siljiyverdim. Shunda tuyqus oyog'im ostiga qaradimu... qiyg'os ochilgan tugmacha gullarni ko'rdim!.. Inson nazari tushmagan qamishzor orasidagi g'ira-shirada tugmacha gullar shu qadar oq ediki!.. Ularning oqligini tasavvur qilish va tasvirlash uchun вЂњQo'qвЂќ so'zi ojizlik qiladi!.. Qopga o'xshataymi, muzga, paxta yo sutga qiyoslaymi?.. Yo'q, bularning hech biriga o'xshamagan oq-oppoq gul yaproqchalar!.. Besh yaproqli, uch yaproqli, kapalak qanotidan-da nozik. Kipriklarining uchi siypasa ozor yetguday!.. Bandi kiprik tolasidan-da nafis... .

Kimsasiz to'qayda qancha vaqt qolib ketganimni bilmadim. Nimalarni o'yladim, ne mulohazalarga bordim вЂ“ o'zimga ham noayon. Hushimga kelsam, mitti tugmacha gullarga yuz-ko'zimni surtgudek cho'k tushib, enkayib o'tiribman, dimog'imga ajabtovur yoqimli islar uryapti... .

Kim ardoqlaydi tugmacha gullarni?.. Kim ko'radi, kim istab topadi, kim ulardan zavq oladi?..

Mitti yaproqchalarning rangi shu qadar tiniqli, undan sachragan oppoq nur tolasi to'ppa-to'g'ri qalbingizga yetib, ichingizni yoritib yuboradi.

Siz yetaklab keldingiz meni, bu yerga... .

Sizga bo'lgan samimiyl muhabbatim boshlab keldi, meni ovloqdagi bu gulyaproqchalar tepasiga... .

Ko'zim qamashdi. Tiz cho'kkani ko'yi boshimni ko'tardim. O'sha lahzadagi holatimni tasvirlash uchun favqulodda so'z zargari bo'lishim kerak, men esa... .

Zich va quyuq qamishzor oralab o'tgan qilday yorug'lik ko'zimga ignaday qadaldi... Botayotgan shafaqning tilla tolasi... Yotog'iga bosh qo'yayotgan quyosh... quyuq qamishzor... qamishzor poyida sochilgan simobrang gulyaproqchalar.

Etibor bering, shu ovloqda chappor urib ochilgan gul yaproqchalarini quyosh nuri istab-topib-etib kelibdi... Kumush nur-la qovushibdi tilla tola, bu yerda... Kun bo'yil olamni yoritib qartaygan Quyosh botar asnosi tugmacha yaproqchalar oqligidan bahra olish umidida qilcha yo'l ochib oq gullar yotog'iga tilla tuklarini cho'zibdi... .

Gavjum shahar odamlari yonginasida yurgan, o'sgan, ochilgan gulning farqiga bormaydilar, undan bahra ola bilmaydilar. Men ko'rdim o'sha gulni, kumushrang gulning oqligini sezdim va... uni tark etdim. Tark etdimu, olis tog'lar qo'yinida, kimsasiz qamishzor poyida ochilgan simobiyl gullar chamanzorida Sizning suratingizni ko'rdim, mayus va mahzun nigohingizni topdim.

Ichimga o't ketdi, jonim, sog'inch daqiqalaridan bunyod bo'lgan navbatdagi uzu-un kunning soki-i-n-n oqshomi... .

вЂњQaytaman!вЂќ degan qarordan ko'z oldim charog'onlashdi. вЂњAytaman!вЂќ degan qarordan ruhimga yengillik indi.

Suyukli diydorga yetish qasdida biron soniya ortiq turolmadim. Ortiq qola olmasligimni anglagan daqiqalarda shahar tomon ravona bo'ldim.

Keldim. Xat yozdim. Javob oldim. Va Siz, вЂњXatni yirtib tashlamoqchi bo'ldimbвЂќ deysiz... .

Uch yil tog'u tosh kezib qalbim va shuurim, o'y-xayolu nafsimni g'uborlardan poklay-poklay oq rangga ko'ngil qo'ydim. Oq rangga mutbalo bo'ldim. Dunyon, odamlarni faqat va faqat oq tusda ko'rishga odatlandim.

Oqlik hayotimning mazmuniga, o'ylarimning mehvariga aylandi. Va kunlarning birida o'qidim:

Sizni topgunga qadar

Men qanday yashadim?

Yashadimmi?..

O'qidimu, shu savol qiyin-qistovga oldi. Savollar iskanjasida qoldi o'yim. Savollar behisob, javoblar behisob. Ne-ne savollar

3 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

javobsiz...

Savollarning o'zi javob.

Savollar karvon tortib keladi, javob topish uqubat. Telba savollarga javob topish mashaqqatidan, telba bo'lmaslik uchun birgina diltortar do'st ko'magiga muhtojlik sezadi, ko'ngil. Birgina do'st... Siz...

Sog'inaman. Xayol changalzorida adashgan sherdek sarson kezgan damlar olis-olisda Sizning mayin, vazmin, o'ychan chehrangiz iztiroblarimga taskin-tasalli beradi...

Tushunyapsizmi?..

* * *

Nimalarni yozdingiz menga? Nimalar deyapsiz? Siz tasvirlagan tuyg'ular, eh-he-e!..

Tushuning, men juda oddiy qizman. Menga o'xshash qizlar son mingta. Kamchiligidan sanayversam (tag'in yomon ko'rib qolmang!) menga izhor qilgan hayajonlaringiz anchagini so'nib qoladi.

Men o'zimni Siz nazarda tutgan ezozga loyiq ko'rmayman. Men Siz o'ylaganchalik qiyosi topilmas qiz emasman, axir. Tag'in... bu qadar balandparvoz tariflar... kulgim kelyapti. Yig'lab oldim...

Unday ehtiroslarni qo'ying. Ortiq yozolmayapman...

4

... nega bunchalik qisqa yozdingiz? Yutoqib, bir zumda o'qidim, nafasimni rostlab olgach, hovliqmay, har so'zingizni o'n bora takror hijjaladim. Men Sizdan keladigan xatning bunchalik qisqa bo'lismiga dosh berolmayman. Ehtirosi to'fon yanglig' to'lib-toshayotgan, aytar so'zi doston bo'lismaga tayyor kimsanining tashnaligi ikki enlik xat bilan bahra topadi deb o'yladingizmi? Mumkinmi shu?..

Unutmang, hech bir banda qandayin ezoz-etiborga loyiq-noloyiqligini o'zi xolis belgilay olmaydi. Muhabbatli qalb ezozga loyiq ko'rdimi, bas, unga he-ech qanday kuch to'g'anoq bo'lomaydi.

Muhabbatli qalb inon-ixtiyordan xoli yashaydi. Unga Siz bizning amru farmonlarimiz kor qilmaydi.

Hoynahoy, bu so'zlar ham Sizga balandparvoz tuyulayotgandir? Unutmang, sof muhabbat balandparvoz tuyg'ulardan tug'iladi, shu bois uni oddiy va jo'n so'zlar bilan ifodalash qiyin, xuddi shuning uchun ham zaminiy va jaydari kimsalar ilohiy muhabbat savdolarini to'g'ri tushunmaydilar.

Tushuna olmaydilar. В ЪИҲеч ваqt xalqning malomatidan qutila olmassan В ЪК deb yozgan-ku!.. Oh, qandayin bokira sevgi malaklari o'tmishda ne-ne kulgi-mazahga qolmaganlar, abgor va badnom bo'liganlar.

Er-xotin bir-birovini qadrashi oila mustahkamligining asosi, deb yozibsiz. To'g'ri. Qanchadan-qancha odamlar qadr-qimmat topishni oliy baxt deb tushunadilar. (Bunga yetishmaganlar qancha!) Bunisi ham to'g'ri. Ammo-lekin Siz... Sizdek xilqatni qadrashning o'zi kifoya emas.

Qadrash xam ko'ngillarni payvandlaydi. Biroq, jonim, muhabbat В Ъ“ qadriga yetish-qadr topishdan-da yuksakroq tuyg'u. A-ancha yuksak... Yuksak tuyg'ularga munosib yashamoq uchun ruh yuksalmog'i kerak. Tushunyapsizmi?.. Ruhning yuksakligi tanning latifligidan quvvat oladi. Qadim kitobdan dalil keltiray, xo'pmi?.. В ЪИҲ To kishining tabi latif bo'lomog'uncha oshiq bo'limg'usidur, nedinkim ishq beshak tabi latiflikdin paydo bo'lur. Latif tabdin latiflik tug'ulur В ЪК...

Tong otib qolayozdi. Xayol olib qochdi, oz yozdim.

Qistovga olayotganim malol kelmasin. O'zga ilojim yo'q. Tezroq va ko'proq yozing, xo'pmi?.. Juda-juda kutaman...

* * *

Avvalgidan ancha noziklashib ketganga o'xshayapsiz. Shoirtabiat bo'lib qolibsiz. Yozgan so'zlariningizdan kulmayapman, aksincha, ularni o'qiganim sayin o'zimni boshqa kishi nazari bilan tomosha qilyapman. O'zimni bunchalik chetdan va xolis kuzatmaganman. Qiziq bo'larkan...

Siz В ЪИҲкibrli В ЪК deb tariflagan qiz o'zidan zarracha qoniqmasligini bilsangiz edi!.. Yozganlarimni o'qigach, uyqungizdan kechib qog'oz qoralaganingizga arzimasligimni sezgandirsiz?..

Yaxshi ko'rganingiz, ezozlaganingiz, mehringizni ayamaganingiz uchun rahmat. Bunday ezozga munosib bo'lism... xijolat chekyapman.

Sizning noziktabligingiz, talabchanligingiz qaydayu men qaydaman!.. O'ylayverib, charchab ketdim. Qatiyat, iroda yetishmayotganga o'xshaydi. Nima qilishimni bilolmayapman. Menga atalgan ehtirosli so'zlariningizni, ezozli mehringizni his qilib, yig'lab oldim...

Xonamizda nimadir haqida so'zlab bera turib to'satdan menga В ЪИҲHar kimni ko'nglingizga yaqin olavermas ekansiz-a? В ЪК degansiz. Hayron qolganman. Qayoqdan bilgansiz?.. Nahotki, shunchalik odamovi ko'rinsam?! Axir... aytaveraymi?.. Bosh ko'tarib yuzingizga tik qaramaganman, lekin Sizni ko'nglimga yaqin tutar edim. Nima sababdan shundayligini bilmas, o'zimga ham izohlab bera olmas edim. Samimiylatingizdan, boshqalar ko'nglidagi nozik kechinmalarni ziyraklik bilan ilg'ab olishingizdan hayratga tushar edim. O'sha g'ayrat sekin-asta hurmatga aylana boshlagan...

Ko'nglim to'ridagi pardalar ortida pinhon yotgan bu iqroramni Sizga oshkor qilmoqchi emasdim, buning zarurati yuq deb o'ylaganman...

Nimalarni vaysayapman?! Sizni xonamizda o'tiradigan qizlar, ayollar, erkaklar ham birdek hurmat qilishar edi, hamon hurmat qilishadi. Shaharga qaytganingizni eshitishibdi, sevinishdi...

Tushuning, Siz haqingizda men faqat to'g'ri ko'ngilda o'ylaganman. Siz haqingizda salgina bo'lsin nojo'ya xayolga bormaganman.

Siz ham meni shunday tushuning. Qattiq hurmat qilganimdan xatlariningizni javobsiz qoldirolmayapman, deb yozgandim-ku...

Bunday odob odobsizlikka kirmaydimi?.. Boshim qotib qoldi...

В ЪИҲXafa bo'lma В ЪК deysiz. Men Sizdan hech qachon xafa bo'lmayman. Men Sizdan xafa bo'lomayman...

Ko'ngildagi gaplarni bayon qilganim sayin ular asl mano va jozibasini yo'qotayotganga o'xshaydi. O'ylarim ko'p, hammasini bat afsil qog'ozga tushirolmayapman, uizr...

5

...Sizni ko'rishim kerak, o'zga ilojim yo'q. Uchrashaylik, suhbatlashaylik.

Bordim, o'sha xonaga kirdim ham deylik, Siz meni qanday qabul qilasiz? Uch yildan buyon yig'ilib yotgan dard-hasratimni eshitishga toqatingiz yetarmikan?.. Umuman, men bilan yuzma-yuz suhbat qurishga rozilik berasizmi?..

Xayolan ming ko'chaga kirdim. Yashiradigan joyim yo'q, izingizdan poyladim. Ishxonadan chiqib вЂ“ ikki ayol, bir erkak hamrohingiz edi вЂ“ avtobus bekatiga bordinglar. Oramizda вЂњHoy!вЂќ desa eshitgulik masofa, orziqib kutgan lahzalarim, mana, marhamat, yetishdim. O'n qadam, besh qadam, uch qadam yursam bas, visol-l-l!..

Kutilmagan ahvolga tushdim, jonim, oyog'imni yerdan uzolmasam deng!.. Mixlangandek yoki yerdan o'sib chiqqan odamdek вЂњqiltвЂќ etib siljiy olmadim.

Yuragim qinidan chiqqudek gursillay boshladi. Shunchalik hayajon bosyaptimi?! Qizlarga ro'para kelganda tili tanglayiga yopishib qoladigan o'smir emasman-ku?!

Xullas, tikkasiga borib salomlashishga, o'zimni tanitishga yuragim betlamadi.

Suratingizni chizganman: och ko'kish ko'yakkasiz, oppoq gullari bor, quyuq sochingiz yelkangiz uzra yo'ilgan, nafisgina baldog'ingizda yanog'ingizdan taralgan nur aks etyapti. Yanog'ingizdagagi moshdek xolingiz hamrohlaridan adashgan yo'lchidek, xolingizdagagi o'ychanlik ko'zingizdagagi mayuslikdan ko'chgandek, lablaringiz qimtilgan, mendan xafa bo'lqandek...

Suratga tikilib-termilib soatlab suhbat quraman: goh Siz, goh o'zim bo'lib savol-javob qilaman. Biyron bo'lib ketaman. Ko'nglimni to'kin dasturxon kabi yozaman. Bir so'zni o'n-yigirma bor takrorlayman вЂ“ ular sira ko'nglimga urmaydi, balki takrorlaganim sayin so'zlar jozibasi qalbimni yanayam charog'on qiladi. Sog'inch, visol umidi, beg'ubor va samimiy tuyg'ular ayyomiga aylanadi suhbat onlarimiz...

Ko'ngilga quvонch baxsh etadigan so'zlarni aytganim, qog'ozga tushirganim sayin Sizning maftunkor qalbingizga chuqurroq kirib borayotganimni, o'zimni bamisolib saodatli damlar visol ayyomiga aylanadigan bo'ldi. Visol ilinji azoblayotgan odamning ahvolini tasavvur qilasizmi, tasavvur qilyapsizmi?..

Xatlaringizni necha qaytalab o'qiyman: вЂњSiz bilan tuzukroq suhbatlashib o'tirishdan xijolat chekaman. Sizning teran aqlingiz menin jo'n, sayoz fikrlarimni qanday qabul qilar kin degan qo'rquv bor mendabвЂќ.

O'qidimu, shunday qapopra keldim: endi men o'sha вЂњjo'n va sayozвЂќ fikrlar gadosiman, jonim!.. Sizdek вЂњerdagi oddiy qizbвЂќning oqilaligi, pokdomonligi uchun har qanday osmondan tushishga tayyorman.

вЂњNojo'ya xayolвЂќ degan iborangizdan qattiq tasirlandim. Bizning oramizda nojo'ya niyat yo'q. Allohga shukrlar bo'lsinki, Siz bilan meni nojo'ya xayol bog'lagani yuq, azizim! Nojo'ya xayol bog'lagen do'stlikning bahridan kechish va yana nojo'ya maqsadlarga loyiq do'stlar orttirish naqadar oson! Xudo asrasin... Ammo-lekin jo'yali xayollar jismu jonining chirmovuqdek chirmab olsayu, bu iskanjada jon taslim qilgudek to'lg'onsang-da, choraszizlikdan biror maskan topolmasang, nima qilmoq kerak?! Ayting, axir!.. Ayni kunlardagi dardimga yolg'iz Siz, O'zingiz malham qo'yishingiz mumkin. Men o'zgalardan, boshqa qalblardan shifo so'rolmayman.

Sizni topgunga qadar ...

... Yashadimmi?..

Kulyapsiz-a? вЂњJuda yaxshi yashayapsizвЂќ dedingiz-a?.. Topdimmi?..

* * *

... topdingiz. Uch misrali sherni qayerda o'qidingiz? Hammaning havasi keladigan Sizdek odam shunday kayfiyatga tushsa, boshqalar dodini kimga aytsin?.. O'zim yurgan yo'limda uni beixtiyor takrorlaydigan bo'lib qoldim. Sher o'qimay qo'ygandim, hozir izlab-istab o'qiyapman.

Muhabbat вЂ“ tumshug'ida xat tashigan qaldirk'och,

Muhabbat вЂ“ bolishiga pat tashigan qaldirk'och.

Qiziqa?.. Qaldirk'ochni judayam yaxshi ko'raman. Beozor qush... Vijirlagani-vijirlagan. Xat tashigani, xat o'qigani shudir-da?!

Muhabbatga mutbalbo bo'lganki, charx urib uyasiga pat tashiydi. Demak, oila quradi, qaldirk'och...

Yaxshi ko'rish, ko'ngil qo'yish insonni valfajr aytayotgan qaldirk'ochdekk beg'uborlashtirib yuboradi deyishadi. Nima? Tok navdasiga yonma-yon qo'nib olib, bir-biriga timmay vijirlayotgan qaldirk'ochlar kabi biz ham xat olishib yuramizmi? Kulgim kelyapti, kula turib ko'zim yoshlanyapti. Yoshim qurib, boshim qotyapti...

Yaxshi insonsiz, mehribonsiz, ko'nglimga yaqin olsam nimasi yomon?! Samimiy suhbatlar qursam, sirdosh tutinsam...

Uzr, nimalarni yozdim, yozyapman?! Sizdek insonga tortinmay-netmay-a!.. Qay bet bilan bor o'y-xayolimni to'kib solaman, qay til bilan bayon etaman?.. Kulgiga qolmaymanmi?..

Jo'n va sayoz fikrlarimni... tavba!.. Sizga aytadigan, yozadigan gaplarimni ko'nglimning bir chekkasida kimdir pusib, вЂњAytma!вЂќ degandek tanbeh berib turadi. вЂњYozaman!вЂќ deb ahd qilamanu, istiholaga botaman. Istiholaga botamanu, beixtiyor yozganlariningizni takror qo'nga olaman: вЂњEndi men o'sha вЂњjo'n va sayozвЂќ fikrlar gadosiman, jonimвЂќ, вЂњSizdek yerdagi вЂњoddii qizbвЂќning oqilaligi, pokligi uchun har qanday osmondan tushishga tayyormanвЂќ, вЂњAyni kunlardagi dardimga yolg'iz Siz, O'zingiz malham qo'yishingiz mumkin. Men o'zgalardan, boshqa qalblardan shifo so'rolmaymanвЂќ...

Qancha mehr, qancha muhabbat jo bo'lgan bu so'zlarga!.. Tasavvur qilyapman... Ozgina irodasizlik qilsam, ko'chaga yugurib chiqishdan, duch kelgan tanish-notanishga o'zim haqimdagagi bu qaynoq so'zlarni baralla aytib yuborishdan toymasam kerak...

Lekin вЂњAytma!вЂќ degan dag'dag'a tilimni tutadi. Unga bo'yusunaman. Aytmasligim kerak, vazminroq bo'lism shart. Axir men qiz bolaman...

вЂњNojuya xayolвЂќni men o'ylagandek, undan-da chuqurroq, mazmuniroq tushunganingiz uchun rahmat...

6

... вЂњNojo'ya xayolвЂќga munosabatimiz bir xil ekan, shuning o'zi Siz bilan mening qarashlarimiz, qiziqishlarimiz yaqinligini isbotlamoqda. Shunday ekan, jo'yali niyatlar haqida o'yashimiz kerak emasmi?.. Ehtimol, ushbu yozishmalarimiz jo'yali o'ylar debochasidir. Qaldirk'ochning chug'uri bevaj bo'lmannidek, bizni bir-birovimizga valfajr aytishga undayotgan toza niyat ham besabab emas degan o'ydamen.

Sher вЂ“ ko'ngil savdosи. Muhabbat haqidagi sherlar yolg'iz qolganda o'qiladi, nari borsa, ikki dil izhori sifatida quloqqa shivirlab

aytiladi. Inson ko'ngil qatlaridagi erka va hup tuyg'ulari ko'z ochgan lahzalar sherdan, kuy-qo'shiqdan tasalli topadi. Muhabbatni qaldirg'ochga o'xshatgan shoirning sherlarini men ham yoqtiraman.

Unsiz sog'inchilarimni o'qisam ishq xatiday,

Sog'inchim bitta bo'lsa, hijronim mingdir mani.

Hijron, sog'inch, qo'msash... Kundalik, har lahzalik hamrohlarim mening! Yolg'iz musichaning вЂњku-kubЂќsini eshitsam, osmonu falakda charx urib uchayotgan chinni kabutarning parvoziga tikilsam, tun uyqusiga shaylanayotgan qushlar chug'uriga qulqo tutsam sog'inch o'rtaidi, jonni, jonim!.. Nima, nima dedingiz?..

вЂњ вЂњMuhabbat вЂњ yarmi tilla, yarmi kumush qo'ng'iroqbЂќ.

вЂњ Ha, ha shunday. Shunday misrasi ham bor o'sha shoirning.

вЂњ вЂњSog'inch вЂњ oshiq andalib, vafo oqqush rangdamish

Toki, har parvonaning pokiza armoni ishqвЂќ.

вЂњ O'qing, davomini o'qing!

вЂњ вЂњSarg'aygan sog'inchlarim bir qo'nalg'a qalb izlar,

Tun gardun qabog'iga tortganida surma rangвЂќ.

вЂњ Shunday, jonim: tong вЂњ sog'inch, tun вЂњ sog'inch. вЂњIchim kuyib borar, yuragim kuyib...вЂќ вЂњOsmonga sig'mayman, yerga sig'maymanвЂќ, Sirdoshing, hasratdoshingga aylangan uzun tunlar allaqaylarda umid gullari ochilar... Tonglar otar... Yana sher o'qing, men tinglayin jimgina. O'qing, axir, qulog'im, vujudim ixtiyorungizda.

вЂњ вЂњYo'qbЂќ.

вЂњ Yana ikki misra o'qing.

вЂњ вЂњBo'ldi. Boshqa sher bilmaymanвЂќ.

вЂњ Juda kup sherlar bilasiz, jonim. Juda yaxshi tushunasiz, sherni, o'qiy qoling.

вЂњ вЂњTushunmaymanвЂќ.

вЂњ Tushunmaysiz?.. Hamma dard, hamma sitam tushunganingiz mukofoti, jonim. Tushunish azob... Inson chuqurroq, nozikroq tushungani, his qilgani sayin azobi chuqurlashaveradi, izardirob o'tida ko'proq kuyaveradi. O'ylab qolaman: bunday holatlarda tushunmaslik, hissizlik baxt emasmikan?..

Siz sherni tushunasiz, sher вЂњ ko'ngil savdosi, ko'ngilning o'zi, sher! Tushunchalaringizga topinay, xo'pmi?..

вЂњJuda yaxshi yashayapsizвЂќ deb kuldingiz-a? Noshukrlik qilmayman, atrofimda to'la mehr, oqibat, kamim yo'q. Bu ulkan haqiqatga til tekkizish gumrohlik. Biroq, azizim, hayotda ana shunday haqiqatlardan-da yuksakroq, muqaddasroq haqiqat bor. Bu oliy-samoviy haqiqatni ko'ra olish har kimsaga nasib etavermaydi. Uni ikki qalb tutashgan lahzalardagina ko'rish mumkin... Qalb javharlarining yaqinligidan ko'ngil ko'zi ochiladi, bu ko'z, bu gunoh samoviy olam haqiqatlarini ravshan ko'radi.

вЂњ вЂњva yarmi tilla, yarmi kumush qo'ng'iroqqa aylanadiвЂќ...

вЂњ zang chaladi, bong uradi...

вЂњ bu qo'ng'iroq sadolarini juda-juda beg'ubor sohibi-sohibalarigina to'g'ri anglaydilar...

вЂњ qayerda, Siz aytmoqchi tabi latif o'sha odamlar? Qayerda?.. Nega bosh chayqayapsiz, aytin, bormi, shunday odamlar?..

* * *

Qarab turib shoir bo'lib qolmaylik!.. Sevgi-muhabbat ko'ngillarni shod-charog'on qiladi, deb eshitgandim, nega men Sizga aks tasir ko'rsatyapman? Yoki oramizdag'i toza munosabatni hech kimsa to'g'ri tushunmasligidan qayg'urayapsizmi?.. Qayg'urishga arzirmikan?..

Bunday tuyg'ular odamlar tomonidan kamdan-kam qadrlangan, deb yozgandingiz, o'zingiz...

To'g'ri topibsiz: hamma birdek anglagan haqiqatlardan-da yuksakroq haqiqat bor, bu вЂњ ikki kishigagina ayon haqiqat...

His-tuyg'ularimni shu qadar ochilib-chochilib izhor qilayotganidan xijolatda edim. Bu taxlit xat almashuvlar oqibatida bir-birovimizga o'rganib qolamiz degan xavotirdaman... Xavotirda yuraveribmanu, o'rganib ham bo'lism, shekilli?..

Xatingizni kutayotganimni sezmay qolaman... xatlarining qayta-qayta o'qiyman... Sizga izhor qilish uchun ichimda jamlanayotgan so'zlar qaynab-toshadi, lekin barini yozolmayman, ularni... вЂњ Tushunchalaringizga topinay, xo'pmi?вЂќ Bu so'zlardagi har bir harfga qanchalar mehru muhabbat jo bo'lgani faqat menga, o'zimgagina ayon. Faqat, oshirib-toshirib tariflashlaringizdan hamon lov-lov yonib, xijolat chekaman...

Hijron, sog'inch, qo'msash... totli azoblar baxshida etmaydimi, bu tuyg'ular?.. вЂњToza dard ko'ngilni musaffolashtiradibвЂќ degan gapni o'zingizdan eshitgandim, shekil?.. Shunday ekan, totli azoblar og'ushida ko'ngli tozalanayotgan kishiga achinish o'rinnimikan?.. Sizning mehrga to'la bir og'iz so'zingiz, faqat mengagini ayon beg'ubor nigohingiz meni nechog'li yuksaltirib yuboradi. Tasavvur qilolmaysiz! Mana, gap nimada!..

7

Sahar chog'i ko'kda yolg'iz yulduzni ko'rsam...

To'xtovsiz yugurayotgan soat millariga termilsam...

Xazon to'shalgan so'qmoqdan o'tsam...

Kunduzni og'ushiga olayotgan tunni kuzatsam...

Orom istagida boshni bolishga qo'ysam...

Sizni SOG'INAMAN...

Tirik jon borki, tinimsiz nimanidir kashf qilib yashaydi. Men sog'inchni kashf qilyapman...

... yop-yorug' xona to'satdan qoramitir tus oladi, ko'z oldingdan tuman, tuman emas вЂњ quyuq bulut sollanib o'tadi, o'tib borayotgan bulut boshing uzra to'xtaydi вЂњ ustingdan kulayotganga, seni mazax qilayotganga o'xshaydi. Qo'llaringni almoysi-aljoyi harakatlantirib bulutni tarqatib yuborging, erkin nafas olging keladi, biroq, aksincha, qandaydir yumshoqmi... qattiqmi narsa mushtdek bo'lib ko'ksing ichiga kirib olgandek... hiqildog'ingga bir nima qadalgandek... abadul-abad shul alfovza turaveradigandek... tovushing boricha baqirib yuborging keladi. вЂњDod!вЂќ desang, xonaning bir tomonini enlagan keng, yorug' deraza chil-chil sinib, jarangi qulog'ingni qomatga keltirsa, mayli, oyna siniqlari tarnovdan shovullab tushayotgan yomg'ir suvidek boshingdan quyilsa... beting, manglaying, lablarining qonga belansa va shisha yomg'iri orasidan seni shundayin sog'inch tegrimoniga solib azoblayotgan Suvrat ko'rinsa...

Olam sukunat og'ushiga cho'madi, sukunat yutib yuboray deydi. Seni yutib yuborishga hoziru nozir sukunat navosini tinglab orom olging keladi...

Hozirgina deraza oynasi chil-chil sinib tushgan, quyuq bulut bo'ronidan musaffolashgan xonada Sizni ro'paramga qo'yib, nurdek jamolningizga suqlanib suhbat boshlayman... goh Siz вЂ“ goh o'zim bo'lib suhbat quraman. Arazlayman, Siz yupatasiz... Ichki cho'ntagimdan taxlanib yotgan xatlarni olib bir boshdan o'qishga kirishaman, вЂњO'qimangвЂќ deysiz. вЂњHammasini emas, ayrim joylarini o'qib berayвЂќ deyman. вЂњMen yo'g'inda o'qiyisizвЂќ deysiz. Nima deganingiz, bu? Siz hech qachon yo'q bo'lmasiz, axir, Siz doim yonimdasiz, Siz mening ichimdasiz...

Deraza yonida chumchuq paydo bo'ladi, uzuq-yuluq chirqillab, boshini qiyshaytirganicha munchoq ko'zlarini bizdan uzmaydi. Xatni o'qishga tutinaman: вЂњSiz menga qadrli insonsiz...вЂќ, вЂњMening ko'nglimga begona emassiz...вЂќ, вЂњHurmat qillardim, endi esa...вЂќ

вЂ“ вЂњTo'xtang, o'qimang, ketib qolaman!вЂќ

Avzoyingizni ko'rib cho'chigan chumchuq вЂњpirвЂќ etib g'oyib bo'ladi. Men esa dilingizga ozor yetkazdim, degan o'yda xavotirga tushaman. Yuvoshtortaman... вЂњXo'p-xo'p, o'qimaymanвЂќ deyman. Siz nima desangiz, вЂњchurqвЂќ etmay ado etaman. Bu xatlarni Siz yozmagansiz. вЂњO'zgaga bermoq esa tushima kirmas uxlabbвЂќ deb yozarmidingiz Siz?.. вЂњTag'in yomon ko'rib qolmangвЂќ deb yozgan odam ham boshqa вЂњShunaqangi sog'indimki!..вЂќ, вЂњHech kimni yo'latmagan ko'nglimga kirib oldingizвЂќ degan so'zlar ham Sizga begona. Boshqa kishi, Siz bilan menga mutlaqo begona kishi yozgan ularni. O'sha BOShQA kishi Siz bilan men haqimda topib yozganini qarang!..

Eshityapsizmi: вЂњBizni hech kim bir-birimizni tushunganchalik tushunmaydi...вЂќ

Juda to'g'ri yozgansiz, jonim, boshqalar bizni to'g'ri tushunmasligini fojiaga aylantirishning hojati yo'q. Ehtimol, hamma birdek tushunaveradigan tuyg'u bo'lganida, u Sizu bizning ko'ngillarimiz mulkiga, qalblarimizni tutashtiruvchi ko'prikkaya aylanmas edimi?

..

Shunday emasmi?..

вЂ“ вЂњMen ham shunday o'ydamanвЂќ...

вЂ“ Nima dedingiz?

вЂ– вЂњHech nimaвЂќ.

вЂ– Ayta qoling.

вЂ– вЂњO'zi bitta edibвЂќ.

вЂ– O'zi bitta bo'lgach, gapi ham bitta bo'ladi-da!..

вЂ– вЂњTushimda Sizni ko'rdim, Soy ismli ayolni sevib qolibsizвЂќ.

вЂ– Ha-ha-ha!.. Soy ismlidir, xoynahoy?

вЂ– вЂњSoy ismli ayol ham bo'ladi?вЂќ

вЂ– вЂњJatu-um-mвЂќ nima degani?

вЂ– вЂњNima?!вЂќ

вЂ– вЂњJatu-um-m-m, muskurado-o!вЂќ deb kuylaydilar-ku, hindlar.

вЂ– вЂњBilmadim. Soy ismli ayol kim?вЂќ

вЂ– Soy вЂњsoy-da, oqar suv, anhor bor-ku, o'shani sevib qoldim.

вЂ– вЂњSoynimi?вЂќ

вЂ– Soyni.

вЂ– вЂњSoyni sevish... tushunmadimвЂќ.

вЂ– Lim-lim oqayotgan soy ekan. Suvga tikilib o'tirdim, o'y surdim. Bir zamon qarasam, bir gala qiz ko'zalarni suvga to'ldirishdida, izma-iz yurib narigi qirg'oqdagi yolg'izoyoq yo'ldan qiyalab yurib yuqoriga ko'tarila boshladi. Ne ko'z bilan ko'rayki, ularning orasida Siz bor ekansiz... hayajondan nafasim qaytayozdi, jonim boricha baqirdim, chaqirdim...

вЂ– вЂњNima deb?вЂќ

вЂ– Ismingizni aytib chaqirdim.

вЂ– вЂњIsmimni nima deb aytdingiz?вЂќ

вЂ– Aytdim-da...

вЂ– вЂњQani, aytinq-chibвЂќ.

вЂ– Hech kima-a, malum ema-as, holi parisho...

вЂ– вЂњE, to'g'risini aytinqвЂќ.

вЂ– Aytaymi?.. вЂњJonimвЂќ dedim, вЂњXonimвЂќ dedim, вЂњJavohirimвЂќ dedim, вЂњOppog'imвЂќ dedim, вЂњGavharimвЂќ dedim...

вЂ– вЂњBo'ldi-bo'ldi, yetadi. Birortasiyam menga mos kemaydiвЂќ.

вЂ– Mos kemaydi?! Siz suv olib tepalik tomon yurishingiz hamono soy suvi nur tarata boshladi. Simobiyl, kumush rang suv. Yugurdim, oqar suvning sathida yugurib boryapman, oyog'im botib ketmayotganiga hayron ham bo'lmayapman, chunki o'sha topda suv betida yugurish emas, Sizni soy bo'yida uchratish mo'jizaroq edi men uchun, tasavvur qilyapsizmi?!

вЂ– вЂњHa-ha-ha!..вЂќ

Suhbatimiz shu yerga yetganda deraza tokchasiga oppoq chinni kabutar kelib qo'ndi. Bo'ynini cho'zib, avvaliga cho'chinqirab moshdekl dum-dumaloq ko'zlarini bizga tikdi. Kabutar shu qadar oq ediki, azbaroyi, shundayiga ham yorug'-charog'on xona yanayam nurga to'ldi. Jonivor hurkib uchib ketmasin degan o'nda tovushimni pasaytirdim:

вЂ– Kuling, jonim, tushlarimdan zavqlanib kuling. Men esa o'sha soyning suratini chizyapman...

вЂ– вЂњQiziqsiz-a!..вЂќ

вЂ– Mashhur raqqosaning o'nlab suratini chizib tor kulbasiga qator-qator yasatib qo'yan, qarigan chog'ida shundan o'zga ovunchog'i qolmagan taniqli rassomning hayoti ham qiziq edi. Men-chi?.. Sizga ishqim tushdiyu, qiziq bo'lib qoldim. Tushimda ham, o'ngimda ham Siz, Siz, Siz!.. Qulog'imdarвЂ“ tovushingiz, nazarimda вЂ“ suratingiz, vujudimda вЂ“ vujudingiz...

... xontaxta yonida yonboshlagancha uxbab qolibman. Yarim kecha uyqum o'chdi. Sovuqqotibman. Ko'zimni bazo'r ochdim. Ne ko'z bilan ko'rayki, yonimda cho'k tushib, tepamda menga qarab o'tiribsiz. Atlas lozimning cho'g'day jiyagi ko'zimni qamashtirdi...

вЂњTuring, bunday yotmangвЂќ dedingiz. So'zingizni ikki qilmay, irg'ib qad roslamoqchi edim, ko'ngilga oralagan xayoldan yuragim opqaga tortdi.

вЂњКетиб qolsa-chi? вЂќ

Ко'зимни ochsam ketib qolasiz, degan xayolda qimir etmay yetaverdim. Sizni tepamda ko'rib shu qadar orom topdimki!..

вЂњTuringвЂќ, dedingiz, вЂњКетиб qolasiz-dabвЂќ, dedim ichimda. Yana uyqu elitdi...

Allamahal cho'chib uyg'ondim, tepamda menga termilib o'tirganingizga qaramay uyquga ketganim uchun o'zimdan norozilanib, sapchib turdim. Yo'qsiz... Shoshib hovliga chiqdim. Hovli sahniga, burchak-burchaklariga ko'z yogurtirdim вЂ“ topmadim.

Alamdan ichim o'rtandi. Shoshib, zinadan pastladim. Shunda, qiyg'os gullagan gilos shoxlaridan-da balandroqda devorga yoyilgandek osig'liq oppoq matoni ko'rdir. Misoli oq, nurli dasturxon...

Ko'zimni uzolmadim. Sutdek oq mato вЂ“ dasturxon sathida undan-da oqroq, undan-da nurliroq Sizning suratingiz paydo bo'ldi.

Mo'jiza edi, bu!..

Mayus, munis, dilbar chehra... Turgan joyimda nafas ololmadim, oyog'imning uchida cho'zildim. Vaznim ye-engil tortdi, Siz tomon ko'tarila boshladim... bi-ir quchoq oppoq nur suzib keldi, keldi va meni osuda og'ushiga oldi...

* * *

Bunchalik muhabbatga to'la bo'lmasa, qalbingiz!.. Qattiq ko'ngil bog'lash xosiyatsiz, deyishadi. Xudo asrasin...

Shunchalik yaxshi ko'rasizmi-a?!. Chindan ham, qiziqsiz, men ham qiziq bo'lib qolayotganga o'xshayman...

Xatingizni o'qib ko'zlarimga dur to'la yosh qalqidi, yuragimdan quvonch toshdi. Bizni bir-birimizga ro'para qilgan Alloha shukrlar qildim.

Sizga tush bo'lib ko'ringan manzara mening o'ngimmikan?.. вЂњO'ngimmikan? вЂќ deb tepangizga borgim, qo'llaringizdai tutgim keldi... Ko'zlariningizda adoqsiz izzirob, adoqsiz sog'inchni ko'rdir... вЂњMeni sog'indingizmi?.. Ko'rgingiz keldimi?.. Chindan o'zingizmi?.. Oq mato sathidagi oq surat bo'lib ko'ringan menmi? вЂќ deb holi-joningizga qo'y may so'rayvergim keldi. Butkul dunyo eshitgulik ovozda qo'shiq aytgim keldi. Sizning hech kimsa yo'lay olmaydigan beg'ubor dunyoingizga qo'lingizdan tutib singib ketgim keldi...

Ruhimni chirmab olayotgan bu orombaxsh azob, ilohiy nur meni tobora yuksaltirib, poklantirib, esankiratib qo'ymoqda. Jonu jahonimni ezozlagan, oppoq ranglarga, oppoq nurlarga, sutdek oppoq ezelgulikka belab-burkab tashlagan lahzalarni, ilohiy vujuddan taralgan sehrli so'zlarni xayolimda qayta-qayta tikladim, esladim va Sizdan qanchalar olisda bo'lsam-da, shunchalar yaqinda ekanligimni his etdim.

... har safar ruhing ortidan xayolan ergashgan ko'yi uning qoshiga otlanar ekansan, ostonasiga qadar zilol suvlar sepib borasan. Zilol suvlar sepilgan yo'llar zebo go'shalarga yetaklashini Yaratgandan so'raysan...

Ijod kishilar xayolparastligi rost-a?.. Loaqal tunda tinch, xotirjam uxlang. Bisotingizdagagi barcha haroratli so'zlarni kunduzi aystsangiz ham bo'ladi-yu!.. Xontaxta yonida ko'zingiz ilinibdi, hoynahoy, yupqa ko'rpacha ustida uxbab qolgandirsiz?.. Sovuqqotib uyg'onibsiz. Shundan bezovta bo'lib borgandirman, tepangizga?..

вЂњAdamni yaxshi ko'ramanвЂќ desam ajablanmang. Har kim uchun o'z otasi aziz. Lekin men adamning nihoyatda shirinso'zliklari, nihoyatda hushyor va behad mehrimonliklari uchun ulug'layman. U kishi faqat biz farzandlariga emas, hech kimsaga yomon ko'z bilan qaramaydilar, biror kimsaning ko'nglini ranjitmaydilar. Bunday odamlar ko'p emas... Siz ko'-o'p jihatdan adamga o'xshaysiz...

Siz men bilan g'oyibona suhbat qurib majnunlik qilavermang. Siz tasvirlagan suhbatimizni o'qib dam kuldim, dam zavqlandim, o'zimga havasim keldi... Tong otgunga qadar mijja qoqmadim. Xayol surib suhbat qurdim, вЂњKim bilan? вЂќ deysizmi?

Shbatdoshimni Siz taniysiz, faqat Siz bilasiz u kishini...

Shunchalar yaxshi ko'rasizmi-a, meni?.. вЂњO'libmanmi, yaxshi ko'rib? вЂќ deyapsiz-a?..

8

... ehtimol, Siz tariflaganchalik yaxshi odamdirman, lekin har safar xatingizni o'qiganda o'zimni yanayam yaxshiroq inson sifatida his qilaman, yanayam yaxshiroq odam bo'lgin keladi.

Siz odamlarni o'z imkoniyatidan o'n, yuz karra yaxshiroq odam bo'lishiga davat eta olguvchi mo'jiza sohibasisiz. Bunday qizlar tabiatida zaminiy quvvatdan ko'ra, samoviy sehr kuchliroq bo'ladi. Ehtimol, kimlarningdir nazarida Siz hamma ayol-qizlarning biridirsiz, Sizga ham qo'pollik, qo'rslik qiladigan erkak topilar (yuzini teskarri qilsin!), lekin shuni unutmangki, bir kishining nazarida Siz aslo bunday tuban muomalaga ravo ko'rilmaydigan xilqatsiz!..

... qish chillasi. Tuni bilan yoqqan qor holdan toygan вЂ“ may-yda-may-yda elayapti. Qor qoplagan tomlar qato-or yotganicha uyquga ketgan va halizamon silkinib uyg'onadigan bayabat jondorlarga o'xshaydi. вЂњJondorlarвЂќning u yer-bu yeridan quyuq qora tutun burqsib ko'tariliyapti... Tong otsa-da, odamlar issiq uylaridan tashqariga chiqqilari kelmaydi, sovuqning zo'ridan kun ham ming bir uqubatda, erinib yoyilmoqda.

Kimsasiz, tor va uzun ko'chaning o'-o'rtasida bola yetaklagan juvon paydo bo'ldi. Bola вЂ“ o'g'il bola shekilli вЂ“ telpakni ko'ziga dovr bostirib kiygan, u yetmagandy, og'zi-burni aralash sharf o'rab bog'langan.

Juvonning boshida oq jun ro'mol, issiq ko'ylik ustidan qora baxmal nimcha. Gulor lozim. Bir qo'li bilan o'g'lining qo'lqop kiygan qo'lidan tutgan, ikkinchi qo'lini musht qilganicha ko'ksiga bosgan. Nimadir gapirib kelayapti shekilli (oyog'i toyib ketmasin-da!), og'zidan bug' chiqyapti.

Tomlar, daraxtlarning shir yalang'och shoxlari, ko'cha oppoq qorga burkangan. Juvonning qo'li, yuzi qordan-da oq... Oq jun ro'moli ostidan yarqirab ko'ringan manglayidan taralgan nur shundayiga ham oppoq ko'chani yanada yoritayotgandek.

Tong yog'dusi shu ko'chada tunaganu, juvon uni yetaklab chiqayotgandek. Ana, yuqoriga, yuqoriga, yana yuqoriga ko'tarilmoqda, hademay o'zidan taralayotgan nur tolalaridan emin-erkin odim tashlab samo sari yo'l oladi...

Bola, yo'q, yog'du to'la tongni yetaklagan juvon вЂ“ Siz. Qish tongidan oqroq, qor jilvasiday toza niyatlar yetaklagan farishta вЂ“ Siz. Qirchillama qish tongida hayajondan entikib, vujudidan ter quyayotgan yigitning tirik sog'inchi вЂ“ Siz.

Mana, zum o'tmay men tasvirlagan manzaradan chiqib kelasiz, azoi badaniimdan ko'tarilayotgan hovur o'ziga qo'shib ko'tarib ketayotgandek va Sizning vaslingizga yetdim deganda, undan ayro tushadigandek ko'zlarimdan yosh tirqiraydi. вЂњSovuqning zo'ridan вЂќ deyman ichimda, Siz manzaraning chegarasiga yaqinlashasiz, entikaman, yonginamda paydo bo'lasiz, og'iz juftlayman: вЂњSSBвЂќ, salom berolmayman. вЂњS... s-salombвЂќga juftlangan lablarim orasidan вЂњS... s-sog'indimвЂќ degan so'z chiqishini, bunday demaslik uchun irodam, qurbim yetmasligini tushunaman.

Yuzma-yuz kelasiz, nigohingizni bir soniya yerdan uzasizu necha kunlardan buyon o'ylab, chandalab, aytmoqqa shay qilib qo'ygan

so'zlarim po'rtanasini so'ndirasiz... Lom-mim demay yonginamdan o'tasiz va yuz-ko'zingizdan taralayotgan billuriy nur tolalaridan to'shalayotgan yolg'izyoq yo'lidan osmonga, osmonga, osmo-onga chiqib ketasiz...

* * *

Sog'inch ham shunchalar azobli bo'ladimi? Qanday manzarani hikoya qildingiz? Tasavvuringizdami?.. Men yetaklagan bola kim?.. Ko'ngil tubida pinhon tutgan ko'pgina sirlarni oshkor qilishga to'g'ri kelayapti... Sizni qanchalar ko'nglimga yaqin olishimni yolg'iz o'zim bilar edim, faqat o'zim tushunar edim. Endi esa har kimga nasib etavermaydigan mehr, bokira tuyg'ular...

Mayli, o'sha tor va uzun ko'chadan chiqib borayotgan, chehrasidan taralayotgan billuriy nur oyog'ining ostiga poyondoz bo'layotgan (chindan shundaymi?) juvon men bo'lay, ko'cha boshida kutayotgan Siz bo'ling. Ayriliqning adog'i вЂ“ sog'inch, ayriliqning mevasi вЂ“ sog'inch... Siz, men... kumush poyondoz to'shayotgan tong...

Sizga nisbatan ko'nglim tubida asragan pinhoniy munosabatimni hech qachon sezdirmayman, oshkor etmayman, bu sir meniki, uning beg'ubor va samimiyligiga biron kimsa shubha qilmasligi kerak, zinhor unga gard yuqtirmayman deb o'ylar edim. Uni Sizga ham aytmaslikka ont ichgandim, chunki, hatto Siz ham mendagi tuyg'ularni, O'zingizga bo'lgan mehrni to'g'ri tushunmaysiz degan xavotir bor edi menda.

Shuning uchun yonginangizdan lom-mim demay o'tgandirman...

So'z bilan tasvirlangan manzarangizni o'qib o'zimga havasim keldi. Ilgari boshqalarga havas qillardim, keyingi paytlarda faqat o'zimga havas qilyapman... Suydiradigan, kuydiradigan so'zlarining hamma-hammasi menikimi? Faqat meniki-a?..

So'zlariningizni eshitayotgandek, nigohingizni ko'rayotgandek yig'ladim...

Uyda, ish joyimda, qarindosh-urug'larim orasida hamma birdek hurmat qiladi, zzozlaydi, ezozlashadi. Faqat Sizchalik emas...

Ko'klarga ko'targuvchi maqtovlaringiz uchun minnatdorligimni qanday izhor etishni bilmayman. вЂњRahmatвЂќ deya olaman, xolos...

Yodimdan ko'tarilay debdi! вЂњKo'p majnunlik qilmangвЂќ, deb yozgandim, unutdingizmi deyman?.. Ertayu kech meni o'ylayvermay, xayollariningizga tin bering. Ertaga yakshanba, hordiq kunlarini ortiqcha o'y surmay, ortiqcha iztiroblarga berilmay o'tkazing, xo'p?..

9

... yakshanbani Siz aytganday o'tkazdim. Uyga qamalib, ortiqcha iztirob chekmay degan o'yda tashqariga chiqdim. Jim-jit, daraxt barglari qilt etmaydi, hayron bo'ldim, nega borliq sukutda?.. Nimaning xayolini surayapti, qiziq... Birdan allaqayda musicha cho'zib ku-kuladi. Shu qadar nola qildiki, musichaning tovushida shu qadar mung, shu qadar sog'inch, shu qadar dard borligini birinchi bor ilg'ashim... Sizni esladim... Musicha yana ku-kuladi, azbaroyi hovli jaranglab ketdi, beozor parrandaning bo'g'iqroq tovushi mening ichimdan eshitayotgandek bo'ldi... Bu tovush Sizni chaqirayotgan, Sizni chorlayotgan edi... Sezyapsizmi, Sizning so'zingizdan chiqmay ortiqcha iztiroblarga berilmaslikka uringanim sayin Sizni o'ylamaslik, Sizni xayoldan quvib chiqarish epini topolmadim.

Bilasizmi, nega shunday bo'ldi? Nafas olmay yashashning iloji yo'q-ku, to'g'rimi? Shunday ekan, axir, Siz har lahza qonimni, ruhimni harakatga solayotgan nafasimning ichidasiz Menga hayot baxsh etib turgan nafaslarim ichidagi xilqatni qanday qilib unutay, uni xayollarim po'rtanasidan quvib chiqaray?!

вЂњRahmatвЂќningiz qabul. Har yozgan xatingiz вЂ“ rahmat, xatingizdagи har so'zu har harfingiz вЂ“ rahmat. Sizning borligingiz rahmat, men uchun, jonim!..

Adangizni taniyman. Ko'pni ko'rgan, bosiq diyonatli inson ekanliklari qiyofalaridan seziladi. Shunday mehri daryo otaning Sizdek farzandi kimsaga yomonlik sog'inmasligi tabiiy. Siz boshqalarga zarda qilganingizni ko'rmadim, eshitmadim. Faqat, mehru muhabbatga sazovor bo'lish uchun bu fazilatning o'zi kifoya emas.

Samoviy tuyg'ularni jo'n iboralar bilan ifodalash mushkulligini tushunasiz (yozgandim-a?), degan fikrdaman. Shunday ekan, to'g'ri qabul qiling, men nazarda tutayotgan muhabbat girdobiga g'arq bo'lmoq uchun, mening orzuimdagи samoga ko'tarilmoq uchun ming karra ishlov berilgan olmos, dur, gavharning asilasiga aylanmog'i zarur, qalb! Bashorat qiling-chi: orzuimdagи ko'klarga yuksalish bizga nasib etadimi?..

вЂњSiz osmondasizвЂќ deb yozgan edingiz. Unday emas, men orzu qilgan falakka yolg'iz chiqish mumkinmi? Yolg'iz kimsaga nima bor u yoqlarda?

Sizning sehringizga bog'langan eng beg'ubor tuyg'ularimdan tug'ilgan ruhim uchib yurgandir, hoynahoy?.. O'zim emas. Men вЂ“ yerdaman, Sizning yoningizda. Falakning adoqsiz cehpy jozibasiga, foniy dunyo sinoatlariga Sizda topganim вЂ“ qalb va tan pokligi вЂ“ oq-oppoq ranglar orqali boqa olganim evazigagina o'sha osmonlarni ilg'ay olgandirman...

Yolg'iz qanon qushlar osmon qatlariiga uchib yetolmaydilar...

... nafis xitoyi chinni, вЂњTushirib yubormay!вЂќ degan xavotirda kaftlarimda avaylab tutaman. вЂњTushib ketsa-ya!вЂќ вЂ“ xavotir, qo'rquv, hayajon... Tushirib yubormay-da!.. Ardoqlashga qudrat ber, O'zing!..

Avval yozgan xatlaringizdan birida o'qidim: вЂњKo'nglimdagi gaplarni yozganim sayin ular asl manosini, jozibasini yo'qotayotgandek tuyuladi...вЂќ Boshqa yupanchimiz ham yo'q-ku, axir. Oramizdagи yolg'iz Allohga ayon rishtalar sehrini saqlash va ardoqlashning maktubdan bo'lak yana qanday chorasi, imkonibor?

Dil izhori, dil bayoni, dil rozi, xolos...

Yozganim sayin gaplarim qaynab chiqayotganga o'xshaydi. Yozaveraman. Yozishmalarimiz narvon yanglig' bizni arsh chamanzorlariga olib chiqadi. Bu вЂ“ oppoq samimiyat, tongdek beg'ybop, norasida go'dak nafasi yanglig' halollik narvoni bo'ladi...

* * *

Necha kunlardan beri tushimda ko'raman. Telefon har safar jiringlaganda o'rnimdan irg'ib turaman. Eshik har safar ochilganda вЂњyaltвЂќ etib qarayman... Piyoda yurgim keladi... xayol olib qochadi. Suhbatlaringizni eslaymay, yo'l usti xatlaringizga qayta-qayta ko'z yogurtiraman, bir kulib вЂ“ bir atrofga javdirayman.

вЂњUzoq-uzoqlarga ketgisi keladi, odambвЂќ degan edingiz. Nazarimda, hozir juda uzoqdasiz...

Tushlarimdan birini aytaymi?..

Xonangizga chaqirtiribsiz. Shoshilib kirdim. Besh-olti notanish qiz xonangizni artib-surtishyapti, bezatishyapti. Shinamgina!..

Sizga ko'zim tushdi. Siz (aytaveraymi?) yap-yangi, cho'g'dek gilam ustida yonboshlab dam olyapsiz. (Shuncha qizning ko'z o'ngida nima qilib yotibsiz?!) Tepangizga bordim, qara-ab turib qoldim.

вЂ“ Meni shu ahvolga soldingiz. Kelmay qo'ydingiz, mana, turolmayapman, вЂ“ dedingiz.

Kayfiyatizingiz esa chog', kulimsirayapsiz. Oshiqib, qo'limni cho'zdim, barmoqlarimdan qattiq, lekin avaylabgina tutdingiz-da, irg'ib qad rostladningiz.

Qaddingiz sira bukilmasin...

To'g'ri tushuning, men Sizga nazokatli, farosatl, behad sohibjamol qizlarni ravo ko'raman. Bordiyu, meni sirdosh tut sangiz-da, o'shanday qizga ko'ngil qo'yaningizni ayt sangiz chin dildan quvongan bo'lur edim. Siz esa... axir o'zim bilaman, qandayligimni!.. O'jarman, injiqligim ham yetarli, yig'loqiman... Qolganini ayt may, tag'in yomon ko'rib qolmang. Suyukli bo'lish qanday yaxshi!.. Ko'nglingiz nigohi menga tushdi. Xatlaringiz вЂ“ Alloh inom etgan tillolarim mening! Ularni o'qib, bu baxtdan boshim aylanib, hech kim va hech nima bilan hisoblashmay, andishayu istiholani yig'ishtirib hammaga maqtangim kelaveradi.

Bilaman, Siz bilan menin oramizdag'i do'stlikni, beg'ubor ruhiy yaqinlikni hech kimsa to'g'ri qabul qilmaydi.

Bir-birimizni tushunsak bas, shunday emasmi?.. Samoviy tarifu tavsiflar, haroratl ehtiroslar, qo'sh qanotli qushlar parvozi...

Hamon ikkilanaman, yuragim orqaga tortadi вЂ“ Siz aytgan osmonga chiqishga imkonim yetarmikan?.. вЂњBashorat qiling-chi!вЂќ deysiz-a!.. Men kaftingizda avaylabgina tutib borayotgan nafi-is xitoyi chinningiz bo'lsam... Xitoyi chinnidan ham bashorat kutadimi, odam?..

Tushirib yubormaysizmi, tag'in?..

10

... agar har bir odam kimgadir Siz va men kabi ko'ngil qo'ysa edi. Ko'ngil qo'ya olsa edi вЂ“ butun insoniyat qavmi orasidagi gina-kuduratlar, ixtiloflar barham topardi. Chunki olamni oq ranglarda, mehr ko'zi bilan ko'ra olgan inson nigohida illat qolmaydi. Har kishining go'zal xulq-atvori ko'payishiga kimdir sababchi bo'ladi. Dunyoga toza ko'ngilda qaray bilish, odamlarni katta muhabbat bilan seva olish tuyg'usi ham jonzod yanglig' tug'iladi, yuksaladi.

... o'n uch yoshli bola, tengqurlari qatori ko'cha changitib, to'p quvib yurgan bolakay tuyqus yon daftar tuta boshladi. Ko'rgan tushini, yegan ovqatini, onasining tanbehlarni, qushlarning sayrashini, kuchukchalarni yaxshi ko'rishini... qo'shni sinfdagi qizning yurish-turishini yozib borishga odatlandi. Odatlandiyu, do'stlari singari terlab-pishib yuguravermaydigan, shimining changini cho'tkalab, tuflisini artib-surtadigan, uydami-darsdami вЂ“ yurgan yo'lida kitob o'qish jinnisiga aylandi.

O'ziga qo'shni sinfdagi qizning nazari bilan qaray boshlaganini o'zi ham sezmadni. Yon daftaroni qo'ldan qo'yamadi. Murg'ak taassurotlarini, odamlarning bir-biridan ajoyibligini o'zicha kashf qila boshladi. G'ayrat, havas, sevinch uyg'ondi uning ko'ksida... O'zini birdan ulg'ayganday his qildi. Faqat undagi olamjahon o'zgarishdan qo'shni sinfdagi qiz bexabar, bolaga qanday tasir o'tkazgani вЂ“ yolg'iz yaratganga ayon edi.

Bola mo'jizaga ishonar, erta yo indin hayotida favqulodda mo'jiza yuz berishini intiq kutar, lekin ichida g'ujg'on o'ynayotgan to'fonni hech kimsaga, yaqin do'stlariga-da oshkor etishni istamas edi..

вЂњMo'jizabвЂќ uyda вЂ“ oila davrasida yuz berdi: o'n uch yoshli bola yon daftarchasini yo'qotdi!.. Azbaroyi talvasaga tushdi. U qo'shning serjun iti boldiridan tishlaganida ham, qatiq olish uchun guzarga borganida ikki naynov og'ayni shapaloq urib, tepkilaganida ham, ariq yoqasidagi kulbada yolg'iz yashaydigan telba xotin вЂњBurdalab tashlayman!вЂќ deya tishlarini taqillatib quvlaganida ham bunchalik yurak oldirmagan edi.

Yon daftarcha qayoqqa g'oyib bo'lidi? Kim oldi uni? Kimga zarur ekan o'n uch yoshli bolakayning yon daftarchasi?..

Oqshom ovqatdan so'ng shoshib o'rnidan turdi, xayoli joyida emasdi uning. Yon daftarchasini yo'qotganini og'iz ochib aytolmadi, uni o'zi izlashi, topishi kerak. Shart! Topmasa...

вЂ“ O'tiringlar! вЂ– dedi otasi hammaga qarata. Akalari, opalari, kennoyisi xontaxta tegrasini to'ldirishdi. вЂ“ Qani, o'qi-chi!..

Muddaoni tushunolmay hamma jim, katta akaning qo'lida... yo'qolgan daftarcha paydo bo'lidi!.. Aka uni o'qishga tutindi:

вЂ– вЂњKatta tanaffus... zvonok chalindi... Klassdan shoshib chiqdim, qarasam...вЂќ Xah-ha-ha!..

Bola вЂњyaltвЂќ etib akasiga qaradi va o'sha zahoti qaytib boshini tizzalari uzra solintirdi. Akasi miriqib, qah-qah otib kului.

Kulaturib daftarchani xotiniga uzatdi. Undagi yozuvlarni ovoza qilishni kennoyi davom ettirdi:

вЂ– вЂњBugun ko'kish ko'ylay kiyibdi, yoqasi oppoq. Kecha sariq ko'ylak kiygandi. Yurganida etagi chiroli hilpiraydi...

Ko'ylagning chiroli ekan, demoqchi edim, aytolmadim... .

Bu safar dasturxon atrofidigilarning hammalari baravariga kului. Kattalar kulgidan o'zlarini to'xtatolmagani sayin bola o'tirgan joyida ezilib, yerga kirib ketaverdi.

вЂњTarbiya soatibвЂќ qancha davom etdi, otasi, onasi, aka-opalari nima deb tanbeh berishdi вЂ– bolaning qulog'iga kirmadi. O'n uch yoshli bola bamisol oyoq ostida majaqlanib ezilgan maysaning ahvoliga tushdi. Churq etib tovush chiqarmadi. Uydan hovliga, hovlidan qop-qorong'i ko'chaga yugurib chiqqandagina, ariqcha yoqasida o'sgan tolning quyuq zimiston panasiga borib cho'k tushib o'tirgachgina ko'zi jiqla yoshga to'lganini payqadi...

...o'n uch yoshli bolaga achinib ketdim. Qorong'ida tol panasida ich-eti ezilib o'tirgani ko'z o'ngimga keldi. Boshini silab yupatgim, ko'nglini ovlagim keldi. Nahotki, kap-katta odamlar bolalik havasini, uning murg'ak ko'nglida odamlarni yaxshi ko'ra olish mayli, tuyg'usi ko'z ochayotganini tushunishmadi?! Axir... mehrni tushuntirish, ifodalash, izohlash qiyin ekan... Odamlar orasidagi hamma-hamma munosabatlar mehr-muhabbatni tushuna olishdan boshlanadi. Mehrli bo'lish qanchalik mashaqqat, qadrlay bilish esa undan-da mushkul.

Sizdan yashirmayman, yashira olmayman: ko'ngil qo'yan kishilarim bo'lgan. Lekin hech kim bilan ochiqchasiga suhbatlashib, ko'nglimda pinhon tutgan izhorimni ham, iztirobimni ham oshkor etmaganman, aytal olmaganman, hatto aytish shart emas deb hisoblaganman. Qanchalar ezilib, qiynalib, sog'inib yashasam-da, atrofdagilar nazarida befarq va sovuqqon ko'rinish yuraverganman. Endi o'ylab ko'rsam tuyg'ularimni, hissiyotlarimni faqat Siz qadrlay bilibisz, tilga ko'chirishga jurat etmagan ehtiroslarimni bayon qilishga yo'l ochibsiz. Shuning uchun ham oramizdag'i munosabat вЂњyaxshi ko'ramanвЂќ mazmunidagi dil izhoridan a-ancha yuksakda deb hisoblayman. Siz ham shunday fikrdasiz to'g'rimi? Uni, ayniqsa, Sizdek sezgir odamga izohlash ortiqcha.

Samimiyy, beg'araz, go'zal munosabat...

Bir paytlar, b'Tyko'ngil yo'li olisb'Tk degan iborani tilga olgansiz. Yodingizdam?.. So'ng tushuntirgansiz. Mana, endi xatlarining b'Tk ko'ngilning har kim ilg'ay ololmaydigan, fahmlolmaydigan eng nozik kechimmalariyu tebranishlari izhori.

Siz o'n uch yoshli bolaning iztiroblarini yozibsiz. Bu yoshdag'i qizlar o'g'il bolalarga nisbatan ko'proq narsani tushunib ulguradilar, ziyrak bo'ladilar.

Shu yoshimda b'Ty Yaxshi ko'rish nima? Odamlar nega bir-birlarini yoqtiradilar? b'Tk degan savollarga o'zimcha javob topgim kelardi. Qizlardan so'ray desam ustidan kulishadi... Amakim birga o'qiydigan qizni yaxshi ko'rар ekanlar. Shu gapni eshitganda g'alati bo'lib ketdim. Suyundim.

Amakimni uylantiradigan bo'lishdi. Buvim qizni ko'ribdilar, rozilik bildirdilar. Uyimizdagilar qizning ismini ochiq-oydin tilga olaverishdi. Sal gap ochilsa amakimga qarayman, ko'zları charaqlab ketganini sezaman... Qani edi, buvimgilar bo'lajak kelin haqida ko'proq gapirishsa-da, men amakimning quvonishlarini kuzataversam...

Biroq, katta amakim to'ya rozilik bermadilar. Boshqalarni bilmadimu, bu gap meni dovdiratib qo'ydi. Axir men o'zim tanimagan-netmagan o'sha qizni allaqachon kennoyi qilib ulgurgan edim...

O'zimcha hukm chiqardim: amakim zinhor boshqa qizga uylanmaydilar, axir yaxshi ko'rganini unutish osonmi? Men ne xayoldamanu, amakim... boshqaga uylandilar. To'g'risi, amakimdan ko'nglim qoldi, shunday bo'lsa-da, u kishini zimdan kuzatishda davom etdim. Amakimning ko'zlarida armon alomatlarini izladim...

Avvaliga kelin ko'zimga xunuk ko'rindi. Gaphaelgim ham kelmadi. U kun bo'yi tinim bilmas, yelib-yugurib xizmat qilar, katta-kichikka birdek shirin muomala qilardi. Meni b'Ty sizb'Tk sirashidan hayron qoldim!..

Bir kuni oshxonaga yugurib kirsam, kennoym yig'layapti!.. Meni ko'rdiyu, shoshib ko'zini artdi, jilmayishga urindi va birdan, b'Ty Hech kimga aytmaysiz-ab'Tk deb yolbora ketdi. Kennoymning oppoq paxtadek yuzlariga, menden yashirayotgan qop-qora ko'zlariga qarab turib, shunaqayam achindimki!..

Kennoymni yolg'iz qo'ymaydgan bo'ldim. Uyga kirsa b'Tk uyga, oshxonaga kirsa b'Tk oshxonaga izidan kiraman, qanday bo'lmasin yolg'iz qoldirmaslikka urindim. Shunaqayam yaxshi ediki!..

Amakim va-aqtli ketib, ke-ech keladilar, kennoym indamaydi, yelib-yugurib xizmat qilishdan tinmaydi...

Ke-echqurun ikkovimiz gaplashe-eb o'tirgandik.

b'Tk Sizga havasim keladi, b'Tk dedi kennoym.

b'Tk Voi, nega? b'Tk deb so'radim.

Kennoym dam kulib, dam o'ya tolib a-anacha gapirdi.

b'Tk Qizlik kezlarim bir dunyo orzularim bor edi. Kelin bo'lib tushdimu hayotim o'zgardi. Xayollarim, orzularim o'zgardi, hatto tovushim boshqacha bo'lib qolayotganga o'xshaydi... Hech kimga aytmaysiz-a?.. Meni bu yerda hech kim xafa qilmaydi, oyijon, amakingiz ham yaxshi odam ekanlar. Faqat o'zim ko'nika olmayapman. Ich-ichimdan shunaqayam ezilamanki!.. Ko'ngil qo'ya olmaslik... Sizchi, siz faqat sevib tur mush quring, xo'p?.. Men... berkinib yig'lasam, sal yengil tortaman... Kelin bo'lib tushgan oiladagilarni, shu yerdagi tur mush tarzini sevib-ardoqlab yashashim kerak, deb o'ylardim. Mehrim, etiborim, ko'nglimdag'i bor yaxshi niyatlarimni shu yerga baxshida qilaman, degan o'yan bo'lak orzuim yo'q edi. Eng muhimi b'Tk odamlarning ko'ngliga qarash, mehrli bo'lish kerak deb hisoblaganman, lekin... xayol, orzu-niyat boshqayu, hayot boshqa ekan. Mehr-muhabbatdan ko'ra oyoq-ko'lning chaqqonligi, epchilligi, toliqmasligi zarurroq ekan, oila uchun...

... Kechirasiz, xatim cho'zilib ketdi (Sizga o'xshab yozmoqchi edim-da!) Inson eng avvalo mehrli, muhabbatli bo'lishi, hamma narsaning yaxshi tomonini ko'ra bilishi muhim, deb o'layman. Mehrdan yuksakroq tuyg'u bormikan?! Dunyon halokatdan asraydigan go'zallik ham mehrda, mehrda, mehrda...

11

...o'n uch yoshli qizchaning (Siz-a, o'sha qiz?) b'Tk Sizning ziyrakligingizga havasim keldi. Kennoyingizga achindim. O'n uch yoshingizdayoq shu qadar tasirchan, shu qadar sezgir bo'lgan ekansiz!..

Kulmasangiz bir sirni ochay: Sizlar o'tiradigan xonaga turli bahonalar bilan kirib-chiqib yurgan kezlarim biron ishga qo'l ursam, Sizni nazarda tutib, b'Ty U nima der ekan? b'Tk degan savol bilan o'zimni tergashga odatlandim. Bazan o'ylamay-netmay qilgan ishimni, aytgan so'zimni sizning hukmingizdan o'tkazib, xijolat chekkan paytlarim bo'lgan.

Nazaringiz tarbiyachimga aylangan edi, mening.

... besh-olti yillik ichki bir havas, botiniy hurmat duru gavharga, yoqutga aylandi, endi dunyon shu javohir orqali ko'rishga mahkumman... Osmonlar, odamlar... gullar, go'daklar... tunlar, kunduzlar b'Tk hamma-hammasini ushbu bokiralik timsolida idrok etish men uchun halovot. Sizga yetisha olmaslik, ayriliq, sog'inch ruhimdag'i go'zallik tuyg'usini kemiradi... b'Ty Beg'ubor tuyg'ularingiz va ehtiroslarlingizga gard qo'ndirmay ardoqlashga imkonim yetarmikan? b'Tk degan xavotiringiz asossiz. Imkoningiz yetadi. Buning uchun men majnunona sevgan va ardoqlash orzusidagi O'zingizdag'i tuyg'ular bokiraligiga gard yuqtirmasangiz bas. O'tinchim shu: Sizga, Sizning shaniningizga qo'nadigan g'uborlarga kaftimni, yuzlarimni tutay!..

b'Ty Oqila, farosatl qiz bo'lishga, ishonchingizni oqlashga harakat qilaman b'Tk degan so'zlarining suyanaman, jonim.

Tushingizda xonamga kirib, meni yotgan joyimdan turg'azibsiz. Uzr, tepamga Siz kelibsiz, gina qilganimni qarang!..

Yana bir mo'jiza: ayni Siz tushingizda tepamga kelgan paytda men... uyimda yotgan joyimda uyg'onib ketdim!.. Zim-ziyo tun.

Ko'chadagi simyog'och chirog'i quyuq daraxt shoxlari oralab yotoq xonamni ola-chalpoq yoritgan. Ko'zimni ochdimu, engashgancha menga tikilib turganingizni ko'rdim. Hushimni yig'ib ulgurmay, savol qotdim:

b'Tk Urishganimga jahlingiz chiqdimi?

O'yladim: b'Ty Qachon urishdim?.. Nega, qaysi gunohi uchun urishay, uni?.. Diydoriga yetisholmay yurgan qizni urishish?.. b'Tk Bosh chayqadingiz.

b'Tk Sizdan jahlim chiqmaydi, b'Tk dedingiz kulib. b'Tk Urishsangiz qaniydi!.. Jon-jon deb quloq solar edim, tanbehlaringizga.

Faqat, arzimagan narsalarga asabingizni buzayotganingiz... Asabingizni asrang, demoqchi edim...

Uyqum o'chdi...

b'Tk Arzimagan narsalarmi? b'Tk deb so'radim.

Jimsiz. Gapirmaysiz. b'Ty Gaplarim ko'pb'Tk deysizu, aytmaysiz. Yoki sukut saqlab, men uchun qandaydir qizlarni ravo ko'rayotgan bo'l mang, tag'in?..

Kaftimdag'i xitoyi chinni naqadar nafis!..

b'Ty Suyukli bo'lish qandayin yaxshi!.. b'Tk

Bunday o'ylar chalg'itguday bo'lsa sukul saqlashga yo'l qo'ymayman. Xursanddirsiz sevinchingizni, xafasizu ranjiganingizni, yig'laysizu ko'z yoshlaringizni oshkor etmaysiz.

Bizni yaqinlashitrgan samimiyat bu to'siqni buzishga ojizmi?.. Qani, o'sha samimiyat?..

Yo'q, iztirobga tushganidan bezovta bo'lmanq. Bu iztiroblar qalbni poklaydigan, Sizni yanada suyukli qiladigan, insonni yuz chandon insoniyashtiradigan iztiroblar. Ne-ne odamlar bundayin nozik kechinmalardan bebahra o'tadilar dunyodan.

ВТ҃“ ВТ҃Н Menga bera qoling har qancha azoblarizingizni! ВТ҃к Nimalar deyapsiz!.. Qalbi ana shunday iztiroblar chashmasida yuvilgan pokiza odamlargina bunday hamdardlikka qodir bo'ladi. Bunday qalb Sohibasiga azoblarimni emas, rohatlarimni, halovatlarimni, sevinchlarim, shukronalarimni, ko'ngilning beg'ubor go'shalarida ko'z ochgan arzanda hislarimni ravo ko'raman!..

* * *

...judayam boshqachasiz! Ko'ngil tubidagi ehtirosu hayajonlaringizni batafsil tasvirlay olishingizga hayron qolaman. Sizga o'xshatib yozolmayman.

Sizga men o'zimni ham loyiq ko'rmas, rosti gap,

O'zgaga bermoq esa tushima kirmas uxlab...

Qalay, shoirlikni eplar ekanmanmi?..

Uzoqroq suhbatlashgim, gapiraverib qulog'ingizni bitirigm keladi, ichim to'la sirlarga oshno qilgim keladi. Lekin, Sizchalik o'xshatib gapirolmayman, yozolmayman...

ВТ҃Н Dunyoga Sizning nazaringiz bilan qarayapman! ВТ҃к deyapsizmi? Uyaltirmang. Bunday martaba, izzat-obro'ga erishishga yo'l bo'lsin!.. Siz bilan yuzma-yuz kelib cyhbatlashishga o'zini loyiq ko'rolmayotgan qiz bo'lsam... Nima o'ylasam, qanday yumushga qo'l ursam ВТ҃“ ko'z o'ngimda Siz paydo bo'lasiz. Qilayotgan ishim Sizning talabchan nazaringizda to'g'rimi, Siz qanday qaraysiz?.. Shu savol biror daqqa xayollarimni tark etmaydi...

O'jarligimni aytgandim. Biror narsaga qo'l urdimmi, bas, undan sira qaytolmayman. Faqat o'zim qattiq ko'ngil qo'ygan kishimgina meni qaysarliklarimdan qaytarishi mumkin. Yaxshi ko'rgan kishim ko'nglidagidek qiz bo'lish ВТ҃“ fikri-xayolim shu bo'lib qoladi. Siz shunday kishimsiz mening... Bu gapni aytishdan istihola qilmayman, qizarmayman. Siz yaxshi ko'rishga arziydigian insonsiz. Qalbimda ko'z ochgan va ochayotgan ilohiy tuyg'ular uchun Sizning borligingizga shukr qilaman, men juda-juda baxtli qizman. Shunchalar yaxshi ko'rishingizga bazan hali-hanuz ishonolmayman, Sizning yolg'ondan yaxshi ko'rishingiz ham men uchun barcha haqiqatlardan afzalroq!..

Shu-uncha hayajonlar orasida iztirobni ulug'laganingizni tushunolmadim, qo'ying, nima bo'lganda ham iztirob-iztirob-da!..

Qiynalishingizni zinhor istamayman. Asabiylashsangiz o'zimni aybdor hisoblayman. Men haqimda ortiqcha qayg'urmang, xavotirlanmang deb mayda-chuyda hasratlarimni aytmay ayaganim qaydayu, Siz iztirobdan mazmun va farog'at, halovat axtarayotganingiz qayda!..

ВТ҃Н Hayotda barcha haqiqatlardan-da yuksakroq, ulkanroq haqiqat borb ВТ҃к deb yozganingiz yodingizdam? O'sha haqiqatni ko'ra olish bizga nasib etgan ekan, nega endi ortiqcha iztiroblardan ozor chekishimiz kerak?.. Sizning mehrga to'la so'zlariningiz, yolg'iz o'zimgagina ayon beg'ubor nigohingiz meni qanchalar yuksaltirib yuboradi. Tasavvur qiling-a!.. Shunday ulug'veorlik nasib etgan qiz yo yigit nega endi iztiroblardan ozor chekmog'i kerak?..

Tushundingiz-a?..

12

ВТ҃Н Sizchalik o'xshatib yozolmayman ВТ҃к debsiz. Aldoqchisiz!.. Axir Siz topib aytgan gaplarni man-man degan shoir-yozuvchining kitoblaridayam uchratmaganman.

Aslida... kitob javoni sotib olmoqchiman. Nima qilsam ekan: fransuzlarnikini olaymi yoki Italiyada ishlangani durustmi?

ВТ҃Н Kitob javonini nima qilasiz? ВТ҃к deysizmi?.. Siz yozgan eng samimiy, mehrga to'la so'zlariningizni jamlayman.

Tushundingizmi?

* * *

ВТ҃Н Fransuzlarnikini olaymi yoki Italiyada ishlanganini? ВТ҃к deb so'rabsiz. Eng ko'p kitob jo bo'ladijan javonni oling, xo'p?.. To'g'ri-da, baribir Sizga o'xshatib yozolmayman. Sizning xatlariningizga ko'z yogurtira boshlagan zamonim, ularni Siz o'zingiz shundoqqina yonimda turib o'qib berayotgandek bo'lasiz. Hayron qolaman!..

O'xshashi yo'q o'xshatishlaringiz hayratga soladi. Ana shu hayrat menga mo'jizadek tasir o'tkazadi. Mehr-muhabbat antiqa mo'jizalar yaratadi, deganlari shu bo'lsa kerak-da?!

Men ana shunday mo'jizalar qurshovida yashash orzusidaman.

Siz meni o'zimdan-da yaxshiroq tushunganingiz mo'jiza emasmi?! Bir-birimizni bir og'iz so'zda ilg'ab olishimiz hayratga arzimaydimi?! Yolg'ondan bo'lsayam, arziydi, deng!..

13

ВТ҃Н Nega meni bunchalik sevasiz? ВТ҃к deb so'rabsiz.

Savolningizga eng qisqa va oson javobimni aytaymi?.. Sevganim uchun sevaman! Shunday bo'lsa-da, har lahma, har nafas shu savolga javob izlayman. Nechog'li ko'proq va chuqurroq javob izlasam Siz haqingizda shu qadar shirin xayollarga g'arq bo'laman. Bu qadar telbalarcha sevishimni Sizga yanayam ishonarlairoq tushuntirishni istayman. Siz hamma-hamasini tushunasiz, his qilasiz va shu qadar irodalisizki!..

Nega sir boy bergingiz kelmaydi?..

Iroda ehtirosni jilovlaydi, jilovlangan ehtiros ko'ngil tubidagi tuyg'ularning yuzaga qalqib chiqishiga yo'l qo'yaydi.

Felingizdag'i shu ВТ҃Нг'alatib ВТ҃́likni sezganim sayin Sizdan uzoqlashib borayotganga, Sizni yo'qotib qo'yayotganga o'xshayman...

Har safar Sizdan xat kelishini orziqib kutaman. Negadir, ВТ҃Н Kelmay qolsa-ya! ВТ҃к degan xavotirda yuragimni hovuchlab yuraman. Xatni ko'ramanu, o'zimni bosolmayman, boshqara olmayman. Egasini sog'ingan itni ayтиb berganmidim?..

O'quvchilik yillarim edi. Ko'chada adashib yurgan kattagina itni zanjirlab olib, hovlimizga bog'lab qo'ydim. Qimir etmay yotganiyotgan, tovushi chiqmaydi. Oldingi oyoqlariga tumshug'in qo'yib bir nuqtaga tikilganicha, lunjini osiltirib yotaveradi. Razm solib qarasam, tim qora ko'zlar g'ilt-g'ilt yoshlanyotganga o'xshadi.

Tutqinlik ikki haftaga yetdi. Itning avzoyi o'zgarmadi. Bergan ovqatimni chimdib qo'yadi, xolos. Notanish mo'ysafid ko'chamizga ikki marta itini izlab kelibdi. Ko'ngli biror narsani sezganmi, uchinchi qayta ham keldi, surishtirdi. Oyim (rahmatli), вЂњBerib yubor, bari bir senga ko'nikmayapti, egasini ko'rmasa o'lib qoladib вЂќ dedilar. Chol uchinchi kelishida uni hovlimizga boshlab kirdim. Mo'ysafid itini ko'rduyu, вЂњVoh, jonim! вЂќ degancha devorga behol suyalib, tovush chiqarmay yig'lab yubordi.

Itning ahvolini tasvirlay olmayman... Chol itning yoniga kelib tiz cho'kdi, it ingrab yubordi, hovlini jaranglatib vovulladi, odam bo'yи baravar sakrab irg'ishlay boshladi, вЂњhars-hars вЂќ nafas olganicha egasining betini, bo'yni, qo'llari, oyoqlarini yalab-yulqay ketdi!..

Qarasam, hovlining narigi chekkasida onam ko'zlarida yosh, вЂњAytdim-a, bolam! Jonivorga shunchalik azob berding-a! вЂќ deb turibdilar.

...endi, har safar Sizdan keladigan xat sog'inchida ichim zardobga to'lib, toqatsizlanganim sayin o'sha itni eslayman. вЂњO'sha itning qarg'ishiga uchradiimmi yo? вЂќ degan o'ylarga boraman.

Sizni hech kimga, hech narsaga ravo ko'rmayman. Men ko'rmayapmanmi, bas, Sizni Siz yurgan joylardan qizg'anaman, men bilan birga emasmisiz, bas, Sizni mensiz qolgan vaqtlardan qizg'anaman.

Boshingizni qo'yan yostiqdan, ustingizga yopingan ko'rpadan rashk qilaman!.. Rashk o'tida yonganim sayin o'zimdag'i barcha ezungulik va maql fazilatlar faqat va faqat Sizgagina nasib etishini, ularning quvonchini Sizdagina ko'rishni istayman.

Shu emasmikan, muhabbat deganlari?

Sizni sevishimning boisi, izohi ham shu emasmikan?

Bir-birimizdan bexabar, orada shu-uncha ko'rishmay yurib ham o'ylovimiz, fikrlarimiz o'xshashligidan hayratga tushibsiz. Shu hayratlar qovushtirsin, bizni, jonim!..

Muhabbat deganlari shu emasmi, azizim?! вЂњKo'nglim juda nozik вЂќ deysiz. O'sha noziklikka topinay, jonim!..

O'sha nafis ko'ngil zarracha ozorlanmasligini istayman. O'sha nozik ko'ngil istaklarini asrab-avaylash, ehtiyotlash, azozlash baxtidan benasib ekanimdan ezilaman.

Ajablanmang, men Sizning oldingizda go'dak boladek his qilaman, o'zimni. Erkalanib-tantig'laniб onajonining ko'ksiga yuzini bosadigan, nima desa vujudi to'la ishonch bilan qulq soladigan, ertaklardan chiqib kelgan farishtalarni ko'rganda aqli shoshib qoladigan bolaman...

Siz tufayli hayotni shu qadar mo'jizakor, sezhrlarga boy ko'raman-ki!.. Shu bois nima desangiz jon qulog'im bilan tinglayman, nima desangiz so'zingizni ikki qilmay bosh egaman, tirnoqcha ranjisangiz вЂ“ tog'dek yuk ostida qolaman, ich-ichingizdan entikib kulsangiz dunyoda eng baxtiyor odamga aylanaman.

Shunaqaman.

Shunday odam qilib qo'ydingiz meni.

Tag'in, вЂњYomonligimni ko'rsatib qo'yaman вЂќ deb yozibsiz.

Ko'rsata olmaysiz! Har qanday odam o'zida borini ko'rsatadi, Sizga esa Xudo yomonlik ato etmagan...

Sezyapman, Siz munosabatlarimiz yaqinlashib, quyuqlashib ketishini istamayapsiz. Shuning uchun ham yomonligingizni ko'rsatib qo'ymoqchi bo'lyapsiz. Yodingizda tuting, Sizdag'i barcha yomonlik men uchun fazilat hisoblanadi. Siz o'zingizdan meni aynitadigan yomonlik topolmaysiz.

Napoleon Jozefinaga xat yozib, вЂњEh, o'tinib so'rayman, menga o'z kamchiliklarigni ko'rsat! Bunchalik sohibjamol, bunchayin xushmuomala, nafis va yaxshi bo'lmay qo'ya qol! вЂќ deya iltijo qilgan. Azbaroyi qalbidagi sevgi haroratiga dosh berolmaganidan yozgan, yozganu mubtalolik dardidan battarroq azoblangan. Azoblangani sayin esa Napoleon... yo'q, men pariro'y maloikalar saltanatidan chiqib kelayotgan va menga tabassum hadya etgan Siz yolg'izimni kuydirguvchi million o'pichlar bilan ko'mib tashlagim keladi.

... вЂњNega meni bunchalik sevasiz? вЂќ deb so'raysiz-a! Savolningizga eng oson va qisqa javobimni aytay: sevganim uchun sevaman...

* * *

Men Siz o'ylaganchalik irodali emasman. Ehtimol mutlaqo irodasizdirman...

To'g'ri yozibsiz, ko'ngil tubidagi ehtiroslarni jilovlashdan o'zga ilojim yo'q. Nega endi sir boy berishim kerak?

Bunday desam, aytmagan sir-asrorim qolmadi, shekilli?..

Balki men Sizni yo'qotib qo'yarman, ammo-lekin Siz meni yo'qotmaysiz, hech qachon yo'qotmaysiz. Biz bir-birimizni hech qachon yo'qotmaymiz va... topolmasak ham kerak...

Egasini sog'ingan it hikoyasidan qattiq tasirlandim. Tasirlandimu, Sizning hozirgi ahvolingizni nima daxli bor, unga? Nahot, bolalik kezlariningizda itga yetkazgan ozoringizdan hozirgacha shu qadar iztirob chekayotgan bo'lsangiz?

Qo'ying, unday demang! Faqat... men ham Sizni o'sha o'zingiz tasvirlagan jonivordek sog'inishimga ishonasizmi?..

Sizni shu qadar sog'ingan qiz Siz meni qizganganchalik qizg'anmaydi deb o'ylaysizmi!.. Har safar yostiqqa bosh qo'yayotib yozganlaringiz ko'z o'ngimdan o'tadi, ovozingiz qulog'imda shivirlaydi, xo'rligim keladi... juda-juda sog'inib ketaman...

Men muhabbatni Siz tasvirlaganchalik bayon qilib berolmayman. Sizning batafsil tasvirlaringizni o'qib Sizdek sirdoshim borligidan faxrlanaman, boshim osmonga yetadi.

Menga, shu-uncha ehtiros, shu-uncha dil izhori вЂ“ hamma-hammasi yolg'iz o'zimga-ya?!

Sizdek ziyrak odam yomonliklarimni ilg'amayotganingizga hayronman. Hayron bo'lganim sayin... Qanday yaxshi-ya, seni bequsur ko'rsa, odamlar!..

Doim yozganimdek, Sizdek o'xshatib tasvirlashga ojizlik qilaman. вЂњSiz tufayli hayotni shu qadar mo'jizakor, sehlarga boy ko'ramanki! вЂќ deb yozibsiz. вЂ“ ... Tirnoqcha ranjisangiz вЂ“ tog'dek yuk ostida qolaman, ich-ichingizdan entikib kulsangiz dunyoda eng baxtiyor odamga aylanaman вЂќ.

Xatingizdag'i shu so'zlarni qayta-qayta o'qidim. Agar Siz Napoleonga, men Jozefinaga aylansak agar Siz fransuz qo'mondoni kabi million o'pichlar bilan ko'mib tashlagudek bo'lsangiz, bilasizmi, men nima qilaman?

Xatlarining hammasini bir boshdan o'zingizga o'qitardim. вЂњNahotki, meni shunchalar sevasiz-a? вЂќ deb ming martalab so'rayerardim.

14

... xatning oxirini yuz martalab o'qidim. Ming martalab beradigan savolningizga million martalab javob aytishga hozirman, jonim!.. Darvoqe, yomonligingizni topdim: xatingizni kutgan har kunim b'T“ yomonlik! Xat yozmay qo'yish haqidagi niyattingiz yomonlik! Bundan battar yomon kurnarni boshimga solmoqchimisiz, yo?!

Sog'inchning iztirobli daqiqalarida bir kashfiyot qildim: sog'inch lahzalarini bani bashar ko'nikkan vaqt o'lchovi bilan o'lchab bo'lmaydi. Zero, sog'inchning har lahzasida yuzlab kunlarga tativlik azob-uqubatlar mujassam topadi.

Ichingizda bo'la turib sog'inaman, Sizni ichimga jo qilib qo'yib b'T“ izlayman...

Sog'inch iztiroblari qattiq qisuvga olgan lahzalar ro'paramda Sizning mayus va nurdek oppoq chehrangiz paydo bo'ladi va yuzimni oppoq, muloyim va mayin shabada erkaydi. Oppoq shabadani bag'rimga bosaman, shabadaning ipakdek mayin barmoqlariga betimni tutaman.

Bazan xat yozish bachkanalikdek tuyuladi o'zimga, lekin mendagi xat yozish dardini Siz tushunasiz degan ishonch tasalli beradi har safar. Chunki ko'ngilni tushunadigan kishilar odamlarni ham juda nozik va tiniq tushunadilar deb o'layman. Ko'ngil mayli bilan xat yozish o'tasida sehrli qudrat yashiringanga o'xshaydi. Bu sehrli qudrat odamni tushuna bilish sehti emasmi, jonim? Odamni bir og'iz so'zda katta mehr-muhabbat bilan ilg'ab olish va unga yarasha pokiza mayl bilan javob bera olish b'T“ ehtimol, buni ham muhabbat deya talqin etish xato emasdir! Ilohiy mo'jiza, samoviy, ruhiy yaqinlik deganlari shudir?!

Men dunyoga kelib shunday baxtga erishdim. Shuni topdim. Topdim-u... mutassil sog'inishlar, hijron lahzalari, soatlari, kunlari chekkan azoblarim, xat olgan daqiqalardagi adoqsiz quvonchlar hayotimning mazmuniga aylandi. Aylandi-yu... meni shu ko'yilarga solayotgan joni jahonimning vasliga yetolmaslik azobi qalbimni jodiga solib o'rtamoqda. Qiziq, biz bir-birimizga shunchalik intilsak-da, intiq bo'lساك-da, Xudo sizu meni bir-birovimiz uchun yaratganiga yuzlab, minglab dalilu dalolatlar topsak-da, topisha olmasligimiz, qo'limizni qo'limizga berolmasligimiz ayancli emasmi?!

Nahot, Siz yoki Sizga nisbatan ko'nglimda tug'ilgan telba muhabbat faqat va faqat o'zimning ustidan kulish uchun yaralgan bo'lsa?! Biron kimsaga lom-mim deb og'iz ocholmayman, achchiq-achchiq kulaman, xolos. Sog'inchning zo'ridan ezilib-kichrayib, holsizlanib qolgan lahzalarda b'T“ bedor tunlar yurak dukuridan o'zga hamroh topolmay alamdan avval o'zimga malomat toshlarini yog'diraman, so'ng Sizni ayplashga o'taman. Ayblayman... ardoqlayman... sog'inaman... O'zimni zo'r lab bo'lsa-da, Sizni eslamaslikka, ismingizu suratingizni xotiramda tiklamaslikka urinaman va harchand uringanim sari... Sizni avvalgidan ko'ra qattiqroq yaxshi ko'rib qolaman, avvalgidan ko'proq va tezroq sog'inaman, Sizga atalgan qaynoq ehtiroslarimni avvalgidan ko'ra yonib-toshib izhor etish ehtiyoji ortib boradi...

Jonim! b'Tb Yomonliklarimni sezmayapsizb b'k deb yozibsiz. Men Sizning yaxshiliklarining mastman. Men Sizdag'i yaxshiliklar bilan yashayapman. Men Sizda ko'rgan yaxshiliklarni yig'ib-yig'ib asrab, yasatib qo'yaman. b'Tb Qayerga? b'Tb deysizmi?

Yuragimga, yuragimning javonlariga kitob yanglig' terib qo'yaman. Ko'nglim to'ridagi kitob javonlari Sizning yaxshiliklarining to'lib-toshib bormoqda. Kitob javonlari esa behisob...

* * *

Sizga shunchalik ozor yetkazayotganidan qanchalik xijolat chekmay taqdir bizni bir-birovimizga ravo ko'rmaganga o'xshaydi. Bilmayman, aytolmayman ham: ehtimol bir-birovimizga shu qadar telbalarcha intilganimiz uchun ham yetisholmasmiz?! Layli-Majnunlikning ham cheki-chegarasi bordir, axir?..

Shunday deymanu, sog'inch lahzalarini hamma ko'nikan vaqt o'lchovi bilan o'lmasligini his qilaman. b'Tb Sizning sog'inchlarining mening qaynoq va o'tli sog'inchlarim yonida isinib olsinb b'Tb desam ranjimaysizmi?

Bilasizmi, aytaveraymi?.. Siz bilan yigirma to'rt soat yonma-yon, ming yil yashasam-da, sog'inchlarim tugamaydi, men Sizning ichingizda, Siz mening ichimda yashasak-da, sog'inch meni tark etmaydi.

Fikrlarimiz, qarashlarimiz ikki tomchi suvdek o'xshashligi meni juda ko'plab marta lol qoldirgan, bu o'xshashlikni umr bo'y'i eslab, xotirlab yuraman... Sizning xayollarining ostin-ustun qilgan o'zimdag'i fazilatlarni (rostdan ham bormi, ular?) topib, ardoqlab yashayman.

Menga qolsa, Sizni hech kimga ko'rsatmay yashirib qo'yigim, Sizning mehribon so'zlariningizga butun vujudim bilan qulq tutib o'tirgim keladi, lekin...

Xat yozishning sehrini tushuntirishga urinibsiz. Sizning xatlariningizdan ko'ra kattaroq quvonchi bo'lмаган odam nahotki xat yozishni bachkanalik deb tushunsa?! Qiziqsiz-a!.. Axir, xat almasha boshlaganimiz qanchalik kashfiyot bo'ldi men uchun! Ikkimiz uchun eng ardoqli, ilohiy, go'zal munosabatlarimiz xotiranomasiga aylanadi, bu maktublar. Shunday emasmi?!

Xatlarni o'qiganim sayin men o'zimni yaxshiroq taniyapman, o'zimni ko'proq topayapman.

Felimda Sizga maqul fazilatlar topilsa, ularning bari faqat va faqat Siz tufayli, deb bilaman. Shuni unutmasangiz bas!..

Qaysi bir xatimda adamni yozgandim. Adamni qanchalik hurmat qilishimni hech kimga og'iz ochib aytgan emasdim, negadir u kishi haqlarida Sizga ko'p-ko'p yozgim kelaveradi.

Adam bilan suhbatlashsam mutlaqo boshqacha odam bo'lib qolaman. Hech qanday fikrlarini rad etmayman, adam zarracha ranjishlarini istamayman. Adamning ko'ngillari ozor topmasligi uchun hatto juda-juda to'g'ri mulohazalarimdan-da voz kechishga tayyor turaman. Adamning sevinchlari uchun o'zim eplolmagan, istamagan yumushlarni-da zarracha ikkilanmay, osongina bajaraman.

Qanchalik urinmay, hayotda boshqa biror kishiga nisbatan bunchalik fidoyilik qilolmasligimdan hayratga tushardim. Buni qarangki... xayolimda eng yaxshi tuyg'u va istaklarimni shu kishiga ravo ko'radigan bo'ldim... Siz bizdan ketayotganiningizda men Sizni emas, o'zimni yo'qotib qo'yiganman. Tasvirlab bo'lmas holatlar, munosabatlar qaytib takrorlanmasligini o'ylab, yuraklarim opqaga tortib ketgan.

Har bir odamni hech kimsa o'zi tushunganchalik tushunolmaydi deb o'ylardim, Siz meni o'zimdan ko'ra chuqurroq tushunishingizdan aqlim lol qoldi. Hatto aytmagan, aytolmagan fikr-o'ylarimni-da ilg'aysiz-a! Meni hech kim Siz tushunganchalik tushunmaydi, yaxshi ko'rmaydi. Ammo-lekin, bu tushunish, bu ko'ngil yaqinligi Sizga menga faqat yaxshilik va quvonch keltiradi deb o'ylaysizmi?..

Afsus, bunday emas... Negaligini men izohlab berolmayman. Ko'nglimning tub-tubida umrbod Sizni ardoqlab o'tishimni unutmasangiz bas... Bilaman, Sizsiz, Sizning haroratli maktablaringizsiz kunlarim juda-juda g'ariblashib qolgan bo'lur edi. Men bunday g'ariblikka dosh berolmayman. Har lahma, har qadamimda Sizning totli xayollarining, go'zal orzulariningizga qorishiq ezozlaringizni, sog'inchu iztiroblaringizni his etib yashayman.

Ha-ya, qalbingizdag'i javon qanchalik ko'p bo'lmasin, xavotir olmang, u javonlarga arzirli so'zlarni o'zim topib beraman, o'zim!.. Ehtimol, bizning ro'yobga chiqmagan muhabbatimiz maktublarda boqiylikka aylanar? Muhabbatning o'zidan ko'ra u haqdagi dostonlarning boqiyligi shundan emasmi?..

Sog'inch ko'ngilning uyg'oqligini sinaydi, deb yozgan edi bir shoir. Sog'inch вЂ“ azob, iztirob, armon, ammo, bari bir borligi yaxshi... .

Shunga ko'nikkanimiz maqulga o'xshaydi... Keling, bir oz bardoshli bo'laylik, irodamiz ko'nglimizning tizginsiz mayllarini qo'liga olsin. Meni behad hurmat qilganingiz uchun ham so'zimni yerda qoldirmaysiz degan umiddaman. Sevib, sog'inib... ayriliqqa bardoshli gavharingiz...

15

... xatingizni o'qib o'tirib, derazadan boqqa termilgancha uzoq vaqt o'yga toldim. Jim-jit, qup-quruq shoxlar tarvaqaylab o'sgan. Bog' ko'nglim kabi huwillagan... Daraxt shoxlari вЂњMening gunohim nima? вЂќ deya samoga cho'zilgan panjalarga o'xshaydi. Xatda yozganlaringiz asta-sekinlik bilan jonimni yondirayotganga, kuydirayotganga, оrtayotganga o'xshaydi... Ayting, menga tushuntiring, ne sababdan layli-majnunlik qilmasligimiz kerak? Qaysi gunohlarimiz uchun taqdir bizni qovushtirmsligi lozim? Nega? Shunday ekan, nima sababdan u bizni topishtirdi, qalblarimizni bunchayin yaqinlashtirdi?! Men Sizning biror og'iz so'zingiz etiborsiz qolishini istamayman. Buning uchun har qancha azoblarga tayyorman. Yana cheksiz-chegarasiz cho'l biyobonlarga-da, bosh olib ketishga tayyorman. Ke-etaman qolaman... Sizdan xat kutmay yashash azobiga ko'nika boshlayman. Tushunayapsizmi, agar Sizga kerak bo'lsa men ayriliq azobiga ham roziman...

* * *

...iltimos, tushuning, Sizni azoblarga qoldirib ketish niyatim yo'q. Sizni azobga qo'yib o'zim xotirjam yura olmayman. O'yayapsizmi?..

Takror bo'lsa ham yozay: Siz yaxshi ko'rib qolgan qalbimdag'i eng toza, eng shirin, eng aziz tilaklarim faqat Sizniki. Sizni butun umr sog'inib, izlab, chorlab, qo'msab yashayotgan bir inson borligini unutmang, xo'p?

Sizga azob tugul, g'ubor qo'nishini ham ravo ko'rmayman.

Oramizdag'i maktubiy yaqinlik nazarimda umr bo'yи vujud-vujudimni yuvib-taraydi, poklaydi...

Sizga yozganlarim ich-ichimda qaynab-toshgan eng ezgu niyat va ehtiroslarimning o'ndan, ehtimol, yuzdan biri, lekin Siz mening bayon etmagan tuyg'ularimni ham ilg'ab olishingizni istayman.

Bir-birimizga yo'llagan maktublarimiz men uchun eng totli tush bo'lib qoladi, bu вЂњtushвЂќ men uchun rohat-farog'at, halovat ko'chasiga aylanadi, yolg'iz o'zim biladigan, hech kimsani yo'latmaydigan boshpanam.

Bilaman, Sizni ko'pchilik hurmat qiladi, yaxshi ko'radi. Mayli, ularning soni ko'paygandan-ko'paysin, ammo Siz yolg'iz meni, xo'p?

Qadamingizga baxt, omad, shodlik va yaxshiliklar to'shalsin!..

16

... Qadamimga to'shalgan yaxshilik gullarining yarmini Sizga atadim, jonim!.. Bu gul so'qmog'ining adog'ida bizni... bepoyon cho'lbiyobon kutayotgandek... Tasavvur qilayapsizmi? Cho'l. Na uy, na odam, na giyoh, na-da tirik jon! Siz bilan men yo-yolg'iz... Osmon tiniq, moviy yopinchiq...

вЂ“ Yopinchiqmi? Osmon-a?..

вЂ“ Feruza rang yopinchiq.

вЂ“ Cheki?.. Muhabbatli ezozning cheki-chegarasi bo'ladi?

вЂ“ Chegarasi yoki meyori o'lchansa muhabbat bo'ladi?

вЂ– Boshqalar tugul, sevishgan qalb sohiblarining o'zлari ham oshiq-mashuqlik cho'qqisi sari yerdan nechog'li uzoqlashib ketganlarini o'zлari ham bilmaydilar.

вЂ– Bilmaganlari uchun ham o'zлari zabit etayotgan cho'qqining qayerida halokat kutib turganini sezmaydilar.

вЂ– Muhabbatning halokatiga aksari yerdagi odamlar sabab bo'ladi?

вЂ– Ikki sevishgan qalb egasi ruhan yuksaladi, xolos, ular jisman odamlar orasida qoladilar-ku!

вЂ– Eng mushkuli ham shu emasmi?.. Ruhan yuksaklikda, jisman zaminda yashash...

вЂ– Yon-tevarakdag'i odamlar hammani zamin o'lchovlari bilan baholaydilar.

вЂ– Sevishganlarni ham.

вЂ– Olimu shoirni ham! Rassomu sozandani ham!..

вЂ– Va istagan daqiqada har qanday nozik qalb, ehtiros bandalarini har qanday yuksaklikdan tortib tushiradilar.

вЂ– Bizni ham...

вЂ– Biz ham odamlar orasida yashaymiz-da...

вЂ– Qani, atrofimizda hech zog' yo'q-ku?

вЂ– Ko'ngil ko'zлari bilan qarasak, ha, hech zog' yo'q. Ko'ngil ko'zi ko'r bo'lur, deganlari shu, zero, ko'ngil ko'zi muhabbatga limmo-lim bo'lur.

вЂ– Bo'lak hech narsa ko'rinas...

вЂ– Sizni ko'ryapman-ku?..

вЂ– Men вЂ“ muhabbat!..

вЂ– Men ham muhabbat!..

вЂ– Men ham faqat Sizni ko'rayapman...

вЂ– Muhabbat tufayli men o'zimni topdim!..

вЂ– O'zimni tanidim...

вЂ– Jonim o'rtandi...

вЂ– Sog'inchdan, jonim!..

вЂ– Sog'inch вЂ“ iztirob!..

вЂ– Ko'ngil uyg'oqligi!..

Бў“ Hijron-chi, hijron?..
 Бў“ Men Sizni unutmayman...
 Бў“ Pinhon sirimiz Allohga ayon...
 Бў“ O'zi bizni topishtirdi, bexabar qolarmidi?!
 Бў“ Yaxshiyam Siz borsiz!..
 Бў“ Siz ham!..
 Бў“ Tirnoqcha ranjisangiz бў“ tog'dek yuk ostida qolaman, quvonib kulsangiz dunyoda eng baxtiyor kimsaga aylanaman.
 Бў“ Yana aytинг...
 Бў“ Yuz karra, ming karra aytaman, umr bo'yi aytaman, jonim!..
 Бў“ Baxtli kishilargagina nasib etadi bundayin sevgi!..
 Бў“ Baxtli kishilargagina tatiydi, bundayin sevgi!..
 Бў“
 Бў“ Chora yo'q, demoqchimisiz?.. Chorasizlikdan chora izlay-izlay chora topaman. O'zimni Sizning ichingizdan, Sizni o'zimning ichimdan topaman...
 Бў“ Bari bir, sog'inaman...
 Бў“ Sog'inchning har lahzasi necha oylarga teng...
 Бў“ Kunning yigirma to'rt soati birga bo'lsm, yigirma beshinchi soatda sog'inayotgan bo'laman...
 Бў“ Go'dak bolaning ko'z yoshidek bokira sog'inch!.. Sizdan uzoqlashib borayotganga, Sizni yo'qotib qo'yayotganga o'xshayman...
 Бў“ Hech qachon yo'qotib qo'yamsiz!..
 Бў“ Xatlaringiz qo'limga yetib kelishimi orziqib kutaman, nihoyat, xatni qo'limga tutib, ko'zimga surtib o'qishga tutinaman va xatning tugab qolishini o'ylab yuraklarim ezilib ketadi...
 Бў“ Men ham shu ahvolga tushaman...
 Бў“ Sizni Siz bilan birga bo'lмаган vaqtlarimdan qizg'anaman. Boshingizni qo'ygan yostiidan, ustingizga yopingan ko'rpadan rashik qilaman...
 Бў“ Boshimni har safar yostiqqa qo'yganda Sizni eslayman, xo'rligim keladi...
 Бў“ Bir-birimizdan bexabar holda bir narsa haqida bir xil o'laydigan, bir xil fikrlaydigan darajada ko'ngillarimiz yaqinlashib ketganidan Sizga va o'zimga havasim keladi.
 Бў“ Nega bunchalik yaxshisiz?! Bilmaysizmi? Men bilaman: men yaxshi ko'rganim uchun shunchalar yaxshisiz!.. Yo, boshqachami?.. U holda o'zingiz aytинг, nega bunchalar yaxshisiz?
 Бў“ Kuydirgувчи million o'pichlarga ko'mib tashlagim kelgani uchun ham yaxshiman... Asl go'zallikdan bahramand etganining uchun ham yaxshiman... Faqat bu Go'zallikni ezozlash baxtidan benasib ekanligimdan ezilaman
 Бў“ Unday demang, Sizning ezozlaringiz umrim bo'yi qalbimni charog'on etib turadi. Adoqsiz ezoz! Aytingchi, ezozning cheki bo'ladimi?
 Бў“ Cheki bo'lса, Sog'inchni ham izohlash chorasi topilardi, sog'inch ham beedad makon, axir.
 Бў“ Visol бў“ halovat, sevgi бў“ g'ayrihalovat.
 Бў“ Ha, visol бў“ halovat, biroq visolda Sog'inch bo'lmaydi, Sog'inch бў“ hijronda, hijronda бў“ iztirob, iztirobda esa muhabbat!..
 Бў“ Asal-l-l!.. Siz bilan men yol-lg'iz, osmon yopinchiq... Qaysi rangni yoqtirasiz?..
 Бў“ Siz yoqtirganni...
 Бў“ Oqnimi?..
 Бў“ Oqni...
 Бў“ Oppoq hayajon!.. Quchog'imni ochaman, quchoq to'la gul!.. Bir quchoq gul isidan mast bo'laman, entikaman, gir-gir aylanaman, aylanaveraman...
 Бў“ Ko'ngil ishi...
 Бў“ Bo'ysunmas, qo'rmas. Ko'ngil xohishidan tug'ilgan, dillarni chirmab bog'lagan muhabbatgina odamni shunchalar hushdan ayiradi. Bunday muhabbat ruhoni yohish sanaladi...
 Бў“ Bunchalar nozik his etmoq uchun benihoya qattiq seva bilmoq kerak!..
 Бў“ Layli-Majnun bo'la bilmoq kerak, seva bilmoq kerak. Seva bilmoq...
 Бў“ Ketaylik...
 Бў“ Ketayapsiz. Oq ko'ylak, oppoq malak. Bir quchoq gul uzoqlashmoqda. Visol uzoqlashmoqda. Kumush nurlar, kumush hislar, sadaf gullar oppoq sog'inchga aylanmoqda. Visol hijronga aylanmoqda. Hijron iztirobga...
 Бў“ Sog'inch бў“ armon, iztirob, bari bir borligi yaxshi...
 Бў“ Siz бў“ malika, men бў“ g'ulom-m...
 Бў“ Qo'ying...
 Бў“ To'xtang, Ketmang, Qalblar Allohnning iznida-a!..
 Бў“ ...
 Бў“ Siz, men yolg'iz... feruza osmon ostida...
 ... cheksiz-chegarasiz, tep-tekis zamin. Cho'l. Na uy, na odam, na giyoh, na qimirlagan jon. Moviy osmon yopinchiq. Havolarda oppoq sog'inchga qorishgan hijron qo'shig'i taraladi:
 Gavhar ekay desam, gulxonang qani?..
 Yashab o'tay desam, koshonang qani?..
 Koshonang qani?.. Gulxonang qani?.. Qani... qani... qani-i-i-i?..

1996 yil.

Men - Sensiz, Sen - Mensiz

Бў“Hijronim mingdir mening бў“ qissasi davom etadi va...

Qadrdonim! Hayotimning ajoyib va masrur-mo'tabar kunlarining birida baxtli tasodif tufayli Seni uchratganim, o'sha lahzanining

o'zida qalbimda yuz bergan to'fon piravordida tarifiga til ojiz muhabbatga aylangani, hayotimni ostin-ustun qilib yuborgan ushbu mo'jizakor tuyg'u izhori Sen tarafingdan javobsiz qolmagani, mehr-muhabbatimiz ilohiy do'stlik, intiqlik va oshuftaliklar izhordan nariga o'tmagan maktublarda qolgani, harchand istamaylik, hayotning achchiq haqiqatlari na ko'ngil mayllari, na-da orzu-havaslar bilan ham hisoblashmasligi, buning oqibatida maktublarda qolgan armonli muhabbat tafsiloti вЂњHijronim mingdir meningsвЂќ nomli asarimizda jamlanganiga ham talaygina fursat o'tdi. Ha, shunday, вЂњHijronim...вЂќ har ikkimizning dil izhorlarimizdan dunyoga kelgani uchungina emas, balki mening maktublarimda Sening, Sening nomalaringda esa mening hayajonlarimiz, kechinmalarimiz, tariflashga til ojiz ehtiroslarimiz qo'shilib-chatishib ketganini faqat Sen va mengina teranroq, to'kisroq va ravshanroq tushunamiz, anglaymiz, qadrlaymiz. Shu boisdan ham, вЂњHijronim...вЂќning davomi bo'l mish ushbu qissadagi hech bir jumla va so'zni, tasvirlangan ruhiy holatlarni faqat meniki deya olmaganimdek, ularning hech birini faqat Seniki ham deya olmayman. Zero, ularning unisi seniki, bunisi meniki deya вЂњmerosвЂќ talashish BIZga ato etilgan ilohiy muhabbatga nisbatan xiyonat bo'lur edi!..

Jonim! Lahzalar, daqiqalar, soatlar va kunlarga qo'shilib umr ham o'tib bormoqda. вЂњHijronim...вЂќ o'tgan umrimizning eng saodati va totli onlaridan yodgorlik bo'lib qoldi. Men ushbu yodgorlikni sira qo'limdan qo'yumayman, uni yuzlab marta varaqlashdan, duch kelgan sahifasidan ming birinchi dafa huzur qilib o'qishdan toliqmayman. Sen necha yillar burun yo'llagan xatlarining xuddi bugun, hozirgina qo'limga yetib kelgandek o'zgacha ishtiyoy bilan, so'zlarini yutoqib, manolarini, manolar zamiridagi ehtirosu hayajonlarni entikib- entikib, sog'inib-sog'inib o'qiyan.

Sening izhorlarining menga, faqat va menga atalganini o'ylaganim sayin o'zimni yanayam baxtiyorroq his qilaman, yuksak martabaga erishgan insondek ko'nglimni ajib bir ulug'vorlik qamrab oladi, binobarin, eng hurram kunlarimda ham, ezgin holatlarga tushgan chog'larimda ham вЂњHijronim...вЂќ mening yagona suhbatdoshim, ovunchog'im va sirdoshimga aylanadi. Ovloq go'shalarga bosh olib ketaman, ajabtovir va betakror yozishmalarimizni ovoz chiqarib takror va takror o'qiyan.

Maktublar mutolaasi ko'ngildagi o'sha yoshlik va jo'shqinlik davri iztiroblarini yangilaydi. Iztiroblar qanchalik armonli bo'lmasin u tuyg'ularni, tuyg'uga qo'shib insonning o'zini yangilaydi, yoshartiradi, bahor yomg'iri yanglig' shuurni yuvadi, beg'uborlashtiradi. Va bilasanmi, shunday damlarda ikkalamiz birqalikda tasvirlagan beg'ubor tuyg'ular hamma-hammaga nasib etsa, shu orqali odamlarning har biri o'zini alo tuyg'ular tufayli o'zlarini yanayam ulug'verroq, yanayam baxtliroq, har qachongidan aloroq his etsalar, shuning sharofati ila odamlarning qalbalarida ko'kdagi quyoshdan kam bo'ligan so'z qolmagandek his qilaman o'zimni va shunday kayfiyatni duch kelgan odamga, ODAMLARGA ularshim keladi!..

Tabiiy, har ko'ngilning o'z qo'shig'i bor. Shunday esa-da, bizning nomalarimiz odamlarni yaxshilikka, go'zal insoniy mehr-muhabbat, mehr-oqibat maqomlariga yuksaltirishiga ishonaman! Chunki har safar Sening nomingni dilimda takrorlaganimda, har safar Sendan kelgan bir og'iz jumlanai, dil izhorini o'qiganimda olam ko'z o'ngimda yashnab ketadi, hamma odamlar, hamma-hamma narsalar вЂ“ butun olam faqat va faqat yaxshi bo'lib ko'rinati ko'zimga, nazarimda dunyoda yomon niyatli odam qolmagandek, odamlar faqat va faqat ezgu orzu-niyatlardagina dunyoga kelgandek tuyuladi. Vujudim chinnidek qilib artilgan oynadek shaffoflashadi, bisotimda yomongina emas, dillarga zarracha ozor yetkazishi mumkin bo'lgan so'z qolmagandek his qilaman o'zimni va shunday kayfiyatni duch kelgan odamga, ODAMLARGA ularshim keladi!..

Bazan hayot o'ta zerikarli tuyuladi, kunlar, oylar umrlar bir- biridan g'arib, bir-biridan daqqi, jo'n va befayz o'tadi. Seni ilk dafa uchratganimda, aytdim-ku, ichimda yuz bergan... to'fonmi, ofatmi... nima uchun qiyosi yo'q mana shunday nurli tuyg'unii ofatga o'xshatishim kerak?! Axir... men sevgan adiblardan birining, kechikkan muhabbat ofatning o'zginasi, degan gapi yodimga tushaveradi. Muhabbatning butu-un sururidan babra olishga intilish, sog'inch va ayriliq azoblariga toqat qilishga urinish odamni o'zini o'zi mazax qilishning o'zginasi deya ilova ham qilgandi o'sha donishmand adib. Lekin... o'sha alloma hayot bo'lganida men uning tillotus soqoldidan tutib hamon aytganlaring to'g'ri bo'lsa, hamon shunchalar achchiq haqiqatni anglagan bo'lsang, muhabbatga giriftor bo'lmaslik chorasini ham topib berasan, deya maydon o'rtasiga sudrab chiqqan bo'lur edim!.. Afsus, bo'lar ish bo'ldi, men qo'lga tushib bo'ldim, naq giribonimdan ilindim, to'rtala oyoqlari bilan qopqonga tushgan jondordek o'zimni qayerga qo'yishni, boshimni qaysi devorga urishni, qaysi osmonlarga qarata uv tortib nola chekishni bilmayman! Dod solay desam, qip-qizil mayna bo'lismim tayin!.. Qochib ketaymi? O'zimni yuqori qavat derazasidan tashlab yuboraymi? Do'ppimni yonboshga olib qo'yib o'zimni-o'zim bo'ralatib so'kaymi?..

Savol ko'p edi, savolni istagancha yog'dirishim mumkin edi, bunga qurbim yetardi, men umr bo'yil o'zimga-o'zim lak mingta savol bergan bo'lsam kerak, zero, umr bo'yil savollar ostida yashadim, tog'-tog' savollarni yelkamda ko'tarib yurdim, ularning ozmunchasi javobsiz qolib ketdimi?! Yuzlab savollarning birortasiga javob topolmagan kunlarim, lahzalarim bo'ldi, javobsiz savollar ko'paygani sayin o'zimni qo'yarga joy topolmay qolardim, nahotki, shu qadar ojizu notavon bo'lsam, shunchalar noshudlik iskanjasida qolib ketgan bandamanmi, degan o'ylarda ich-etimni kemirardim va har safar ertaga yana tong otadi-ku, bu kun ham o'tar-ku, degan taskin va ilinjda ertangi yorug' kundan umidvor shukronalik bilan boshimni bolishga qo'yardim.

Nihoyat... buni qaraki, mening nazarimdagи shukronalik yaratgan egamiz tomonidan noshukrlik sifatida qabul qilinganmi, bilmadim, har qalay, minbad tavbalar qilayki, meni qiyab yurgan savollar ham bir bo'lidiyu, uning o'rniga... Yo'q, to'xta, avvaliga rosa suyundim, chamamda iltijolarim allohga yetgandek edi, chunki ajoyib kunlarning birida o'zimni-o'zim adoqsiz savollarga ko'mib yurish odatidan xalos bo'ldim! Manili-manisiz, tayinli-tayinsiz, javobli-javobsiz savollar shuurimdan sirg'alib uchib chiqdi, o'zimni yelkamdan ezib turgan tog'dan xalos bo'lgan qushday ye-engil his qila boshladim, faqat... faqat uning o'rnini o'zim hali-hali anglab yetmagan, hali-hanuz o'zim-o'zimga tushuntirib bera olmaydigan, sehrlarga to'la, boshdan-oyoq mo'jiza tuyg'u egalladi! Aql boshdan uchdi, ixtiyor ilkimdan chiqdi, hush noxushlik izmiga o'tdi!..

Qanday voqeа yuz berganini aytib beray-a?..

Jonim! Azoi badanimning qaysidir puchmog'ida tibbiyot olami uchun nomalum bir azo paydo bo'ldi desam ishonaver. Uning vujudimning qaysi ovloq va ko'z ilg'amas qo'nalg'asida joylashganini ham aytolmayman desang! Basharti butun boshli tabobatchilar izdihomni ichimga qo'shin tortib, uni, yani insoniyat qavmiga nomalum o'sha azoni izlagan taqdirida ham topolmasliklari muqarrar!.. Faqat shunisi shak-shubhasizki, o'sha nomalum azo bosh miya va yurak singari vujudimdagи eng muhim azolardan biriga aylandi. Hatto ichimdagи barcha azolar xuddi bosh miyaga bo'lgani singari, unga qaram, uning izmida, uning rayiga mahkum, uning amriga muntazir bo'ldi-qo'ydi. Uning o'zi esa guldan nozik, go'dak bolaning ko'z yoshi yanglig' bokira, bag'oyat tasirchan desang!..

Men Senga harchand tariflashga urinayotganim vujudimdagи ko'z ko'rib, qulqoq eshitmagan azo haqida hech kimsaga og'iz ochib aytganim yo'q, uni ko'z-ko'z qilish niyatim ham yo'q, uni faqat Senga oshkor etayapman. Sengagina nomini aytaman, xo'pmi, asalim. Qulog'ingga shivirlab aytaman, aytaveraymi?..

Uning nomi b'T“ muhabbat!!

Xullas desang, hayrat-hayajon yo'l doshimga aylandi. Lak ming savolga tatiqulik savollarning qiroli izimdan taqib etishga tushdi. Yo'q, izimdan taqib etibgina qolmadni, balki u ichimga, qalbimga, shuurimga uya qurib oldi. Ana shu uya men uchun muqaddas vatanga, olamning markaziga aylandi. Nazarimda butun insoniyatning taqdirlari mazkur uyada hal bo'ladigandek, o'n sakkiz ming olamning mavjud yo mavjud emasligi ham b'T“ muhabbatb'T“ deya atalguvchi shu uyadagi kayfiyat, b'T“ ob-havob'T“ bog'liqdek edi.

Nahotki?!

Ushbu birgina so'z meni istagan ko'yga sola boshladi. Uning izmidan chiqib keta olmadim. Kuldim, sevindim, xavotirlandim, sarosimaga tushdim. Hayot haqidagi o'ylarim, insoniylik amoli, taqdir, iymon va axloqqa doir tasavvurlarim ostin-ustun bo'lib ketdi. Kurrai zamin ikki hissa kengayib ketgandek, kengayganida ham men uning mutlaq xojasiga aylanib qolgandek tuyulardi. Bamisoli yer yuzida ikki banda - Sen va men qolgandek edik, go'yo tevarak-atrofimizda boshqa he-ech zog' yo'qdek, bo'lgan taqdirda ham ularning borligi ham, o'y-qarashlari ham biz uchun mutlaqo ahamiyatsiz, keraksiz, etiborga arzimas nimarsalarga o'xshab tuyulardi. Demak, hayotning mo'jizalari tugagan emas, uning aql-idrokklarni lol qoldiruvchi hayratangiz inomlari to'lib-toshib yotibdi, binobarin, istagan bandasini istalgan daqiqada qaddini tog' yanglig' yuksaltirishi, istalgan soniyalarda mubtalo va devonavash qilib qo'yishi hech gap emas!..

Nima, ishonmaysanmi, ishonmayapsanmi, deb so'rayman o'zimdan-o'zim. Ishonmadim emas, axir voqeа ko'cha-ko'yda emas, kino ekranlarida emas, ishqiy romanlarda emas, balki mening ichimda yuz berdi, mening ichimda davom etmoqda, u biro-on lahma to'xtagani yo'q, shunday ekan, ishonmay qayoqqa ham borardim, uni kimga ham doston qilardim!..

Men yuz bergen voqeaga ishonganimga ishonolmayotgan edim...

Sendan yashirmayman, jonim, Seni ilk safar uchratgan va vujud-vujudim o'sha qaynoq (qaynoq ham gapmi?!?) haroratdan qaynab-toshgan damlardagi voqeani qanchalik anglamagan, tushuna olmagan bo'lsam hali-xanuz uni anglab yetmadim, tushunolmadim deb o'layman. O'ylaganim, mulohazalar ummoniga g'arq bo'lganim sayin har safar Seni... Sizni... Sen bilan oramizda yuz bergen VOQYeANI anglash, tushunish sari bir qadam yaqinlashgandek his qilaman o'zimni.

Men hayotda bor ekanman

O'ylasam, sen bor uchun.

Ko'ksim ichra qalb urar,

Tun-kun o'zingga zor uchun.

Nahotki, shu oddiygina to'rt misrada bizning hayotimiz, taqdirimiz, o'sha kunlardagi kechinmalarimizga daxldor haqiqat bayon etilgan bo'lsa?! Agar chindan-da, shu taxmin to'g'ri chiqsa, hamonki uni chin dildan tasdiqlasak, haqiqatdan ham yuz bergen mo'jizani anglash sari bir qadam qo'ygan, sehrli mo'jiza sandig'inining bitta oltin kalitini qo'lga kiritgan bo'lamic!..

Biroq, do'stim, muhabbat shu qadar sehrlarga boy tuyg'uki, uni tushunish sari bir qadam qo'yaningdan quvonib ulgurmasingdan u sendan yana ikki qadam uzoqlashadi, topgan mo'jizakor oltin kaliting jaranglatib ochgan qulfni zulfindan bo'shatib ulgurmasingdan yanada sirli, yanada hayratlanarli qulflar ko'z oldingda namoyon bo'ladi.

b'T“ Hijronim...b'T“ eslaylik. Xatlarining o'qib boshim aylanib qoldi, hech kim va hech nima bilan hisoblashmay, andishayu istiholani yig'ishtirib hammaga maqtangim kelaveradi, deb yozganding. Va oramizdagи toza va beg'ubor munosabatni hech kimsa to'g'ri tushunmasligi, negaki, hamma birdek anglagan haqiqatlardan-da yuksakroq haqiqat bor, bu ikki kishigagina ayon haqiqatdir degan xulosaga kelgandik.

Chindan ham, jonim, aytidim-ku, oramizdagи bu sehrlarga limmo-lim tuyg'ularni o'zimiz tushunib, anglab yetishga aqlimiz ojizlik qilayotgan ekan, uning sinovlariga dosh berib-berolmay sarxush va sarkash ahvolda yurgan ekanmiz, uni boshqalar qanday qilib tushunadilar?! Qanday qilib uni qadrlaydilar? Qadriga yetadilar?.. Qolaversa, ustozlarimizdan biri yozganidek, sevgi odamni go'zallashtirib yuboradi, sevgan va sevilgan odamning chiroyiga chiroy qo'shiladi, ularning qalblaridagi baxtiyorlik aytgan so'zlarida, qarashlarida, bosgan qadamlarida barq urib turadi. Shu boisdan ham sevishganlar odamlarning nazariga tez tushadilar, ular haqlarida mish-mishlar bolalaydi, unga havas va hasad qiluvchilar ko'paygandan-ko'payadi! Chunki bunday baxt kamdan-kam kishilargagina nasib etadi...

Jondil! Yana O'ShA lahzada yuz bergen VOQYeAlardan yozsam degandim. Yo'q, demagin.

Senga birinchi bor ko'zim tushganida b'T“ Bu qiz bilan suhbatlashishning iloji bo'larmikan? b'T“ degan o'y ko'ngilni tilib o'tgan. Yurish-turishim, gap-so'zim, qadam olishimgacha hammasini Sening nazaringdan o'tkazadigan bo'lganman. Unga yoqarmikan, degan o'ydan ich-etimni yeb yurganman.

Qiziq, nima sababdan o'sha paytga qadar bironqa qiz yo ayolga bunday etibor qilmagandim? Ularning qarashlari, mulohazalari bilan qiziqmagandim? Bu esa... qarab qolarmikan, biror so'z aytarmikan? Sariq chaqaga olmayotgan bo'lsa-chi?! Nega bunchalar beparvo?..

Yo'q yerdan gap topib xonasiga kiraman, U esa yerdan ko'z uzmaydi, qisqa va uzuq-yuluq javob bilan kifoyalanadi. Nazarimda sen men bilan gaplashishga arzimaysan degandek bo'laveradi. Alamdan jon o'rтанади.

Har safar yuz bir bahona bilan yuzma-yuz kelaman, gap ochaman va natija o'sha-o'sha: yana bir karra mag'lubiyatni tan olib izimga qaytaman. Shunday damlarda U o'taketgan aslzoda, oqbilak va shunga yarasha mag'rur qiz bo'lib ko'rindi. To'g'ri-da, axir ko'zingni kattaroq ochib qara deyman o'zimga-o'zim, chehrasiga, jamoliga razm solib qara, u aslzoda bo'lmay kim bo'lsin?!

Shunday martabaga munosib va loyiqligini biladiki, o'zini shunday tutayapti!.. Nima bo'lganda ham, bu qiz turgan yuksaklikka chiqib bo'larmikan?..

Ushbu o'y-xayol umidsiz bir ohangda ich-etimni kemiradi, taqdirga tan berib, baland dorga osilmay qo'ya qolay deyman va... zimdan Unga nigoh tashlayman. Opppoq, ko'z qamashadi! Sadaff!.. Aql shoshadi...

Oq rangni ilgari ham yoqtirar edimmi yoki?.. Ne sababdan uni bunchalar yoqtirib qoldim? O'zim Senga ko'plab martalab hayqirib, shivirlab, pichirlab aytgan SABAB uchunmi? Faqat shuning uchunmi?

Yo'q, faqat shuning uchun emas. Balki barcha-barcha orzu-havaslarimiz, intilishlar, erkalashu erkalanishlarimiz, bir-birimizga dunyodagi e-eng yaxshi tilaklarni sog'inishlarimiz b'T“ barcha-barchasi ana o'sha asosiy SABABdan rang olgani, yani niyatlarimizning bari parqu bulutdek, chanoqni to'ldirib lo'ppi-lo'ppi ochilgan momiq paxtadek oq-oppoq ekanligidan!..

Shunday emasmi, jonio?.. Nima bo'lgan taqdirda ham bunga Sen... Siz... Sen sabab bo'lding, jonio!.. Odamni bir ko'rishda yoqtirish mutlaqo tasodif bo'lishi ham mumkin. To'g'ri, tasodifiy hodisalar zumda unutiladi, xayoldan parishon bo'lмаган тақдирда ham es-hushli odam zumda aqlini yig'ib oladi, biroq men lahzada yuz bergan bu tasodif iskanjasiga ilindim, zero, bir emas, yuz qarashda ham, ming qarashda ham Sen men uchun mo'jiza bo'lib qolaverding!.. Bundayin tasodif zamirida inson aqli yetadigan ozmuncha mantiq, ozmuncha qonuniyat va ozmuncha haqiqat yotarmikan?!

- Aql bilan ish tutaylik...

Ko'zingni olib qochib shunday deganing yodingdami?

Bu gapning zamiridagi manoni tushunolmay ko'p iztirob chekdim. Nima demoqchi? Hali boshlanib ulgurmagan g'oyibona mehrli munosabatlarimizni bas qilaylik demoqchimi yoki?.. Va javob topdim. Marhamat, aqlligim, aql bilan ish ko'raylik, aqlning hukmiga qulq solaylik, lekin ayni shunday lahzalarda qani aql? Nechun u ko'makka yetib kelmayapti? Aksincha nega u tutqich bermayapti? Qanday qilsak uni qo'lga tushira olamiz? Qo'lga tushirib... Shu haqda o'lay-o'lay o'zimcha bir haqiqatni kashf qildim: aqlning haqiqatda aqli bor ekan, u kamsuqum, u insofli, diyonatli, u mehribon, u dono. Shuning uchun ham u o'z ojizligini payqagan joydan zumda g'oyib bo'ladi. O'zini pesh qilib ko'ngillarni xijil qilmaydi, odamni uqubatga qo'ymaydi. Otasiga xazor tashakkur o'sha aqlning!..

Qolaversa, Sen bilan yana bir jumboqqa oydinlik kiritib olaylik: aql o'g'risi kim? Kim kimni aqldan ozdirdi?.. Bu savolga ro'y-rost javob bera olasanmi?! Ochiqroq aytasam, ayibingni tan olasanmi?..

PjC..., CKC, Ps PrPμPICfC€PeP°

PjPμPSCJ CfPjP° CΓPIPμP»P°.

P P°P·P±PëP»P° CΓPμCtPrCtPμ PjPSPμ,

PμPsPePsP№ PIP·CJIP»P°...

Bolalikdan xotira ushbu qo'shiqdan topgandek bo'lyapman savolning javobini. Chindan ham, shunday emasmi, jonio?..

Sen esa aqldan ozgan bechora odamdan donolikni, ehtimol man-man degan daholar eplomagan jasoratni talab qilmoqdasan.

Sening talab va istaklaringga so'zsiz-nesiz bo'ysungim keladi va afsuski...

Bog' qo'ynida ikki daraxt,
Bir-biriga intizor вЂ“

deb kuylangan qo'shiqni yuz martalab tinglayman, tinglab turib Senga qarata,

{ {poem}:Sen bir daraxt, men bir daraxt

deb yuboraman.

Ikkovimizni daraxtga qiyoslasam ranjimaysanmi?

Vaholanki, daraxt joydan-joyga ko'chib yurolmaydi, ular oyoqlari yerga kishanlangan bandining o'zginasi. Biz-chi, biz ham bandi, alloh inom etgan ishq bandilari!

Hoynahoy, bu bandixonadan qutilish chorasi topilar, insoniyat o'tmishidan bunga ko'plab misollar keltirish mumkin, faqat boshqa bir haqiqatni ham unutmaylik: qanchadan-qancha bandilar bandixonalardan qochish chog'ida jon taslim qilganlar...

Chora qani, kim topadi uni?
Sog'inch-ch toshi ezadi dilni!..

Xullas, oramiddagi muhabbat hurmatga aylana bormoqdamni yoki muhabbat olovi alanga olmoqdamni?! Buyuk Eynshteyn va rus aslzodasi (aslzoda-ya!) Margarita Konenkova o'rtasidagi ishq savdosi singari вЂњ...ix strastCH narastala medlenno i postepenno, i ostonovitCH yee bi'lo uje nevozmojno...вЂќ

Ikkimiz ham kutmagan tarzda ahvolimiz вЂњnevozmojnovвЂќga aylanib ulgurganini sezmadik ham, va kunlarning birida, esingdami, birga-birga, boshimizni boshimizga qo'yib, bir sahifaga tikilib-termilib o'qiganimiz:

Ey, do'st!
Ot kimniki вЂ“ minganniki,
To'n kimniki вЂ“ kiyganniki,
Olgan вЂ – olganniki emas,
Qiz kimniki вЂ – suyganniki.

Yodingga tushdimi, yayrab kulganing?.. Tabassum-la, вЂњTopgan sheringizni qarang!вЂќ deya erkalanganing?..
Sevgan kim? Sevilgan kim?..

Yo, rabbim! Nadomatlar bo'lsinkim:

PjPμP±Pμ PSPμ PIC·CtPIP°C, CЊCfCJ
PëP· CΓPμPjPμP№PSPsPiPs PeCtCfPiP°.
PC, Ps PSP°C€Pμ PsP±C‰PμPμ
PkJμCfCtP°CΓC, CЊPμ...

Bunday haqiqatlardan kelib chiqadigan chorasizlik vujudni larzaga soladi! Pushkin sho'rlik qanday ruhiy iztirobda yozgan bu

19 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

satlarni, bilmadim, lekin uning nolasiga hamohang zardali iddaoy buyuk Dostoyevskiyda uchraydi. B'Th Tavqi lanatga uchragan xudobexabar oilalarda mehr-muhabbat bo'lmaydi... Muhabbatdan benasib joyda fahm-farosat ham yo'q... B'Th deb yozadi u. Shoirning alami ham, adibning zardasi ham o'z yo'liga, lekin muhabbat zabit etilgan ko'ngil sohiblari har qadamda hushyorroq, fahm-farosatliroq bo'lismi o'yab qolishlari, yani muhabbat ularning tarbiyachisiga aylanishi koni haqiqat! Bundan, muhabbatsiz odam tarbiyachisi yo'q odam degan mano ham kelib chiqmaydimi?..

Muhabbatdan muhabbat bo'lur paydo,
Muhabbatsiz kishidan qoch, Huvaydo!..

Xullas, bizda ham ayni shunday holat yuz berayotgan, yani, muhabbat va hurmat haroratli va so'nmas alangaga aylanib borayotganini etirof etmasdan o'zga ilojimiz yo'q edi...
Tush ko'rdim: g'aroyib va muhtasham binoga kirib bordim. Yorug', charog'on, osuda. Xonadan xonaga o'tyapman, Seni izlab-istab, tinimsiz olazarak alanglayman, lekin topolmayapman, topish umidi so'ngani sayin yuragim orqaga tortib, ichim huvillab qolyapti. Xavotirlana boshladim.

- Sabohat qani? Sabohat qani, deyapman?

Birdan yonimda bir gala erkak va ayol paydo bo'ldi. Ular orasidan menga kulimsirab qarab turgan Saodatga ko'zim tushdi.

- Voy, bu-bu, namuncha! Sabohat shu yerda, ana, chiqyapti, - dedi u ayyorona kulimsirab va qizarinqirab.

Men shoshilib Saodat ko'rsatgan tomon o'girildim. Mana, hozir Seni ko'raman!.. Hayajonning zo'ridan nafasim tiqildi.

Uyg'onib ketdim... Allamahalga dovur totli xayollar og'ushida yotdim. Tong bo'zara boshlaganida xayollarimga oppoq qor jo'r bo'ldi. Bir maromda yog'ayotgan qor uchqunlari ichimni yoritishi barobarida olamni oqqa burkay boshladi.

Koreyslarning B'Th Qish sonatasib B'Th ni, undagi qor fantaziyasini, filCHbmga ishlangan musiqaning sehrini eslaysizmi?.. Siz ham o'sha filCHbmni sevib tomosha qilgan edingiz. Shu kunlarda har tong chog'i men Siz bilan oppoq qor choyshabi to'shalgan o'sha munis bog'larda qo'l ushlashib yuribmiz. Boraveramiz, boraveramiz, yo'limiz sira ado bo'lmaydi, har kunimiz shunday boshlanishini, shunday oqlikka burkangan muhabbat yo'li bir umr davom etishini istaydi ko'ngil... xayolda...

Men qanday insonni sevishimni endi bildingizmi?!

... Yetti kecha-kunduzdirki, qor timmadidi. Goh laylak qor yog'adi, goh g'alvirdan elanayotgan un misol yerga to'shalayotgan qor uchqunlari ko'z ilg'ammas zarraga aylanadi.

Qor uchqunlariga qo'shilib xayol yog'adi, unga termilib charchamaysan kishi. Necha yil-necha zamonlardan buyon tinmay yog'ayotganga o'xshaydi qor, yana ko'p yil-ko'p zamonlar timmaydigandek!

Qor atay meni sinamoq uchun ham shuncha kundan buyon tinim bilgani yo'q. Meni hisobdan adashtirmoqchi u. Men esa mijja qoqmadim, ko'zim ochiq, qor uchqunlarini sanamoqdaman. Hisobdan adashadigan anoyi yo'q, sanashda davom etmoqdaman. Buning nima zarurati bor deb etiroz bildirma. Qor yog'ishdan charchasa-charchar, men uning uchqunlarini, zarralarini sanashdan zinhor charchamayman, toliqmayman. Chunki ukpardek momiq va men suygan oqdek oq har bir qor uchquni mening Senga bo'lgan muhabbatim izhori sifatida yog'moqda! Beg'ubor mehr, samoviy sevgi yog'moqda samodan! Sengagina atalgan mehr, muhabbat, sevgi!..

Bolalik chog'larimdan qor yog'ishini sehrli hodisadek tomosha qilishni yoqtirardim, mana, Sizga qo'shilib bu muhabbatim yanada oshgandan-oshdi. Tunda bexosdan uyg'onib, shoshib hovliga chiqaman, tevarak-atrofga qarayman, nazarimda men tabiatning bu ajib oq choyshabidan zavqlanmay uxlaganim uchun qor mendan o'pkalanib, erib ketgandek tuyuladi va bir zumda sevinib ketaman! Chunki yero ko'k hamon oppoq, shunaqangi oppoq ediki!.. Tomlarni, yo'llarni, daraxt shoxlarini qoplagan kumushdek oqlikni ko'rib turib oq rangni yaxshi ko'ruchchi, uni ardoqlashdan charchash nima ekanligini bilmaydigan Do'stimni yanayam yaxshi ko'rib ketdim, ko'nglim yorishdi, piyoda yurib uzundan-uzoq ko'chadan chiqib boryapman Sizni o'layapman, Sizni ko'rgim kelyapti, mavzudan qati nazar, farqi yo'q, Siz bilan suhbatlashaversam, sira vaqt o'tmasa, yo'lning adog'i ko'rinsama!.. Suhbatlaringizga sira to'ymayman, chunki qalbingiz, tuyg'ularingiz, muhabbatingiz ushbu qor singari beg'ubor, simobiylar. Qoyilmisiz, men mana shunaqa Insonni yaxshi ko'raman!..

Haftaning oxirgi kuni ertalabdan ustaxonamga yetib keldim. Ijodxonamga kiramanu, necha kunlarda buyon meni kutib toqati-toq bo'lgan ishlarni ado etishga kirishaman.

Shu o'y-shu xayolda xonamga kirdim, bir necha oy burun boshlab qo'yan qoralama chizmalarim ro'parasiga o'tirgancha xayolga toldim. O'nimidan turib, deraza oldiga bordim. Tashqari sovuq. Mening ichimda, ko'kragimning allaqayerlarida bamisol o't qalanganu, alanga tobora azoi badanimni qizdirayotgandek, alanga harorati hademay boshimni ichlariga qadar ko'tariladigandek, otash taftini bosishning yagona chorasi bor, u ham bo'lsa, hoziroq, shu onning o'zida ustaxonamda Sening paydo bo'lishing, vassalom! Kirib kelsangu, oh, jonio, deb yuborsam! Seni o'tqazgani joy topolmay qolsam! Peshvoz turib, sochlaringni uchidan oyog'ingning uchlarigacha to'yib-to'yib qaynoq o'picHLarimga burkab tashlasam. Sen gapirmoqchi bo'lsang, men esa og'iz ochishingga yo'l qo'yamasam, o'picHLarimdan nafaslarining qaytib ketsa!

- To'xtang!.. Shoshmang!... Voy, ichingizdan olov chiqyaptimi? - desang, xavotirda kaftlaringni yuzimga bosib.

B'Th "Ha, sog'inch ichimni sahroga aylantirdi, u sahro o't-otash og'ushida! B'Th "desam.

B'Th "Vahimachi! B'Th "deb kulsang, meni erkulasang. Erkalansang.

Ikki hatlab borib, hovliqancha eshikni ichkaridan qufladim. Nazarimda, sen yonimdasanu, tuyqus biron kimsa ustimizga kirib qoladigandek, diyordorlashuv onlariga zavol yetadigandek xavotirda edim!..

Eshikni qufladimu, shartta ortimga o'girildim, Sening yoningga uchib boraman, o'zimni bag'ringga otaman, quchoqlaringga singib ketaman!..

Xonam ko'chadan-da sovuq, nafasimdan izg'irin ufurar, har bir buyum va ashylolarni o'z didimga yarasha tanlagen va olib kelib yasatib qo'yan ustaxonam shu topda ko'zimga befayz va g'arib ko'rini ketdi. Bu B'Th butun hafta mobaynida Sendan maktub ololmaganim, loaqal nomalar vositasi-la visolingga yetisholmaganim oqibati, asorati edi, yagonam!

Qish faslini juda yaxshi ko'raman. Sokin, tinch, o'ylash, xayol surish uchun fursat topsa bo'ladi, balki shuning uchunmi, bilmadim... Esingizdam, ukalarimni bog'chaga olib ketayotganimda sovuqda kutib turganingiz... Boshqa bir kuni ertalab meni kuta-kuta sovuqda muzlab qolganiningiz... O'shanda Sizni ko'rib ko'zlarimga ishonmagandim... Munosabatlarimizda xudoga shukrki, zarracha g'ubor yo'q, bo'lmaydi ham. Sizni har kuni tushimda ko'ryapman, har doimgidek kulib turasiz... Bilaman,

hamisha bandsiz, hamma ishlaringiz O'zingiz o'ylagandek unumli, omadli bo'lsin.

Esingdami, meni ko'pincha xayolparastlikda ayblar eding. Bunday ayblovlarning menga yoqardi. Chunki ayblovlarning barchasi haqqi rost. Axir, o'zing o'ylagin, muhabbat hukmron ko'ngil uchun xayolparastlikdan ko'ra sadoqatliroq, tabiiyiroq holat, kayfiyat bo'lishi mumkinmi?! Nitshe boboning, вЂњSevgida andekkina telbalik bor!вЂќ degan gapi juda xush yoqadi menga. Faqat, mening sevgimda telbalik andekkina emas, bir dunyo bo'lganini ham hisobga olib qo'yishimiz kerakmasmi! Axir olamlarga tatiydigan telbalik mujassam edi mening sevgimda!..

Har bir xalqning o'z ona tili bo'lgani kabi nazarimda har bir sevishgan qalbning o'z tili, o'z lajhasi bo'ladi. Bu tilga faqat ikki kishi tushunadi, bu tilni faqat ikki bapayvand qalb ardoqlaydi, ana shu pinhoniy sevgi tili bu juft uchun ona tilidek muqaddas hisoblanadi!

Yana bir haqiqatni angladimki, ikki sevishgan dil sohiblarigagina qadrli axloqiy qadriyatlar vujudga kelarkan, shu boisdan uning umumadani va umumaxloqiy qadriyatlar qiyosida ko'pchilik tomonidan etirof etilmasligi tamoman mantiqli, tabiiydirki, bu hol hamma zamonlarda ham muhabbatga mubtalo ko'ngil egalarining boshlariga adoqsiz kulfatlar, musibatlar solgan.

Bu gaplarni zinhor o'z axloqsizliklarimizni xaspo'shlash uchun aytayotganim yo'q. Darg'azab odamning yoki boodob odamning og'zidan ham tuyqus haqoratli so'zlar chiqib ketishi mumkin, buning uchun shosha-pisha uni sazoyi qilish, uning ustidan mutlaq hukm chiqarishga вЂ“ unga tavqi lanat yog'dirishga shoshaslik kerak deb o'layman. Zero, hukm chiqarish hamisha tushunishdan osonroq, tushunish esa hukm chiqarishdan ko'ra mushkulroq hisoblangan. Tushunish sabr-bardosh, farosat, donishmandlikni talab qiladi, hukm chiqarish uchun esa kuch bo'lsa kifoya!..

Jon!

Men Senga, Sening qo'ling bilan bitilgan so'zlarga shu qadar o'rganib qolganmanki, azbaroyi Sen bilan bog'liq bo'lмаган hech narsa ko'ngilga sig'maydi, tatimaydi. Kunda qancha-qancha odamlar bilan muomalada bo'laman, turfa davralarda ishtirot etaman, lekin ularning barcha-barchasida suratim yurganini, mohiyatim, siyratim esa Sen tomonda, yanayam aniqroq yozsam, Sening yoningga, Sening ichingda ekanligini sezib-bilib turaman.

Qo'l ishga bormaydi, nima qilarimni bilmay gangib yuraman. Aslida bunday odat o'smir yoshidagi yigit-qizlarda ko'proq kuzatiladi. Men esa!..

Yoki Senmi meni o'smirga aylantirib qo'yan?! Senmi meni o'smirlik tuyg'ularimga qaytadan bog'lab qo'yan?!

Senmi meni sehru jozibalar olamiga oshno etayotgan?!

Faridaoyni taniysan-a? Ajoyib shoira. Hamma kitoblarini o'qiganman! Kuni kecha yangi kitob qo'lyozmasini keltirdi. Bo'lajak kitob uchun bezaklar ishlab berishimi so'radi. Jonim bilan qabul qildim. Bitta-ikkita misralarini o'qimasimdan kitobni qanday bezashni chamalashga kirishib ketdim.

Eshitgin, o'qib beraman:

Telefon jiringlar, jim...

Xo'rsinadi, allakim...

Baxliman, qanday!..

Faridaoydek dilbar shoirani o'g'riga chiqarsam xitoy chinnisidek nozik dili ranjimasikan?! Qaramaysanmi, o'zini, mening dilimga tinchlik bermayotgan tuyg'ularni aynan tasvirlabdi. Ko'zlarining tubida, lablarining chekkasida muloyimgina kulimsirab turishi sira ko'z o'ngimdan ketmaydi. Endi bildim, shu qarashida dilingdan tilingga ko'chmagan sir-asrorlarining o'qib olarkan!

Faridaoy - O'g'rioy!.. Qaydan bildi ekan ichimdagini?! U bilan sirlashmagan bo'lsam?! Shoira-da, alla safar ko'rishganimizda (tabiiy, o'sha damda ham xayolim Senda bo'lgan) ko'zlarimga g'alati sinchkovlik bilan tikilgandek bo'lgandi-ya!..

Qo'ng'iroq qilsam, Sen u yoqda xo'rsinib, kutib o'tirgan bo'lsang, go'shakni ko'tarsangu, yutoqib, sevinib-entikib gaplashsak!..

Telefon ham diyord! Qani edi!.. Afsus, sog'inish etadi davom...

Sog'inch dilini o'rtayotgan odam nimani o'ylasa, qo'lini qayerga uzatsa o'sha sog'inchga, sog'inayotgan odamiga borib taqalaveradi. Undan, yani Sendan chalg'itadigan kuch va bahona topilmaydi! Nima demay, nima ko'rmay, nima tutmay Sen, Sen, Sen!..

Ajabo, senga tosh haqida,

It haqida so'ylasam ham,

Ishqim oshkor bo'laveradi...

Buni ham shoiraning yangi qo'lyozmasidan oldim, o'zidan ruxsat so'ramadim, chunki u mening hech kimga oshkor etmagan sir-asrorimni so'ramay-netmay yozib kitob qilyapti-ku, men uning kitobidan ko'chirsam nimasi gunoh, nimasi ayb?!

Qadrdonim! Mehrlarga limmo-lim xatlaringiz uchun rahmat, Sizni judayam yaxshi ko'raman!.. Siz menga, men Sizga yo'llaydigan maktublarda bitilgan har bir so'z yurak-yurakdan chiqadi, ularning nomi вЂ“ samimiyat. Ularning har biri mehr bulog'idan suv ichgan. Va hayotbaxsh suvlarni bir-birimizga ilingan... Qanday mo'jiza-a, qadrdon?.. Shunday daqiqalarda Sizni ming yildan buyon ko'rмагандек holatga tushaman, sog'inaman...

Bunchalar qisqa yozmasang?! Tashna odam og'ziga angishvonada suv tutgandeksan, go'yo! Sening bundayin вЂњkamgapвЂќ maktublaringni o'qiganda saraton issig'ida bir nafaslik shabada betimni silab-siypab o'tgandek bo'ladi, вЂњOh!вЂќ deya entikkancha qolaveraman...

Bir kun, ikki kun, uch... besh kundirki, xat-xabar yo'q. Bunchalar shafqatsizlikka qodir inson shaniga qanday qilib ardoqli tariflar yo'llash mumkin?! Sen mendek g'aribu g'uraboga qandayin noyob va nodir, aziz va laziz qalb sohibasini do'st qilib qo'yganiningni bilasanmi, o'zi? Undagi meni aqldan ozdiruvchi sehru jodular qudratini his etasanmi?

вЂњHech qanaqasiga g'aribu g'urabo emassizвЂќ deysanmi? To'g'ri aytasan. Sening maktubingni ko'zlarimga surtgudek o'qiyotgan lahzalarimda men shohga, shahonshohga aylanaman! Muhabbat qasrining qiroliga! Menden qudratliroq, menden baxtliroq odam bo'lmaydi unday soniyalarda!

Sen bilan diyord va visol onlaridagina shunday...

Kifimming chap yelka qismida og'riqli nuqta paydo bo'ldi. Bovujud, kimdir xanjarning uchini botirayotganga o'xshaydi.

Senga yozishga arzimaydigan gaplar.

Shunga qaramay, ke, yozsam, yozaqolay. Sendan yashiradigan sirim yo'q, axir.

Chap yelkamda paydo bo'lgan og'riqli nuqtani davolatishimni, shifokorlar huzuriga borishimni tayinlabsan. G'amxo'rлиging, meni o'ylab tashvishlanganiningi o'qib, hatto shu dardga mubtalo bo'lganimga ham sevinib ketdim. Nazarimda o'nta shifokorning maslahatlaridan ko'ra Sening bir og'iz lutfing men uchun o'n karra shifobaxshroqdir! Shu boisdan ham, Sen tavsiya qilgandek, oqshom yotar chog'ida u nuqtani yo'qotishga qaratilgan bir talay muolajalarni ado etdim. Nazarimda og'riq muloyim tortgandek bo'lidi, g'oyib bo'lgandek ham tuyuldi. Shunda... og'riq ikki kuragim orasiga ko'chdi. Xuddi o'sha nuqtaga shafqatsiz tig' botirilmoqda. Bazan umurtqa bo'g'inlariga zug'um qilayotgandek, uning orasiga zahar purkayotgandek achishib og'riq beradi... Xullas, de, вЂњvoqeabвЂќ qanday yuz bergan bo'lsa, aynan yozaman, jonim, faqat mening ustimdan kulmasang bas.

вЂњNuqtabвЂќ ashaddiy ko'chmanchi chiqib qoldi: dam o'ng kurak tomonda, dam so'l вЂњ dam o'ng biqinda, dam gardanda, dam yana chap yelka uchida paydo bo'ladi, degin. Meni kalaka qilayotgandek, ustimdan kulayotgandek, men bilan maynabozchilik o'ynayotgandek. Butkul g'oyib bo'lishdan esa darak yo'q.

Mana shunday kunlarning birida chinakam olamshumul kashfiyat sodir bo'ldi: bu o'y qayerdan keldi, esimda yo'q, lekin nima bo'lidiyu, kiftimda tinim bilmay ko'chib yurgan og'riqli nuqtalar bo'ylab xayolan chiziq tortdim. Hayhot! Chiziqlardan qanday so'z paydo bo'lganini bilasanmi?! Aytaymi? Ishonasanmi, ishqilib?!

Sog'inch!!!

Ishonmasang mana, marhamat, o'zing o'qi, o'qi: SOOOG'IIINChCh!!!

Hayratdan esim og'ib qolayozdi! Ko'zimga ishonmay, qayta-qayta o'qidim. Sen ham o'qigin dedim. Baralla ovoz chiqarib va juda teran his qilib вЂњSooog'iiinchch!вЂќ deb o'qigin!..

Buni qaraginki, necha kundan buyon menga sog'lik-salomatlilik tilayapsanu, dardning davosi o'zingda ekaniga etibor bermabsan, asalim. Kimning sog'inchi tufayli jonim o'rtanayotganini aytishim shart emas deb o'layman. Shunday emasmi, jonim?..

Sog'inch shu qadar sehrli bir tuyg'uki, u bir-biriga mushtoq qalblarni tutashtirib turadi, umid iplarini eshadi, nechog'li izzirobli bo'lmasin, sog'inch qalblarni tozalaydi, toblaydi, do'stlikni, mehr- muhabbatni ayovsiz sinovlardan o'tkazadi.

Sog'inch yuraklarni o'rtaydi, u вЂњ quoqni kar, ko'zni so'qir, aqlni siyqalashadir. Hardamxayol qilib qo'yadi odamni! Istagan ko'yiga soladi! Uning azobli o'yinlariga har kim ham dosh beravermaydi. Sog'inch izmidagi odam surunkali bedavo dardga yo'liqqan kimsadek sirtidan bardoshli ko'ringani bilan ichidan zil ketgan bo'ladi. Suvrati qoladiyu, siyrati abgor bo'ladi. Asta-sekin siyratdagi abgorlik suratga ko'chadi. Muttasil sog'inch azobida yurgan odamning ko'zlaridan nur so'nadi. Nigohlaridan mazmun yo'qoladi.

Yuragini, jigarini bir chekkadan kemirib adoi tamom qilayotgan sog'inch xastaligiga mutbalo odam o'zini chalg'itish uchun nimalar qilmaydi deysan! Fikri-yodi o'zini chalg'itishda bo'lganidan u o'zini ovutish maqsadida tinim bilmay allaqanday yumushlar bilan mashg'ul bo'ladi, lekin shunday damlarda ham xayolining bir chekkasini tark etmaydi sog'inch. Chunki uning uchun sog'inayotgan kishisining diydoriga yetishish orzusidan muqaddasroq, muhimroq va aloroq murod- maqsad qolmaydi.

Sog'inayotgan odam mudom yolg'iz qolishga intiladi va yolg'iz qoldi deguncha yuragi qinidan chiqib ketgudek talvasaga, vahimaga tushadi. Qanday bo'lmasin yolg'iz qolishga harakat qiladi va... yolg'iz qoldi deguncha yuragi tahlikadan yorilguday ahvolga tushadi - yolg'izlikdan qo'rqadi!

Go'dak bolalar otasi yo onasini uch-to'rt kun ko'rmay qolsalar ichikadilar: ishtahalari yo'qoladi, sababsiz yig'layverishadi.

Bo'shashib, holdan toyadilar. Befarq bo'lib qoladilar. Kechagina qo'lidan qo'y may o'ynayotgan o'yinchoqlariga ham qayrilib qaramay, g'ingshiyveradilar.

Sog'inayotgan odam bundan battarroq ahvolga tushadi...

Ko'ngilning tub-tubida g'ujg'on o'ynaydigan bezovtaliklar taloto'pidan xalos etadigan mo'jizakor qudratli shifo faqat Senda bor deb bilaman. Sening bir og'izgina lutfing, bir nafaslik visoling-vaslingdan ko'ra o'zga najot yo'q men uchun.

Seni sog'inmaslikka o'zimni majburlagan damlarim bo'ladi. O'zimni chalg'itaman, sog'inmayman, sog'inmayapman!..

Sog'inmayapman... deya baralla ovoz chiqarib aytaman o'zimga va вЂњqadrdronвЂќ degan so'z tilimga yopishib qoladi. Qadrdron, qadrdrondim... Bu so'zning mano-mazmuni faqat sendan qadr topaman, qadrimni sendagina ko'raman degan manoni anglatadi, chamamda. Seningcha ham shunday emasmi?

Qadrdronlikning ham darajasi, maqomini topsa bo'ladi. Deylik, bizning qadrdronligimiz darajasi kuniga o'nlab, yuzlab xat yozishga, telefon orqali har soatda bir-birimizni yo'qlashga loyiq! Zero, bir kun ko'rmasam bir kun, ikki kun ko'rmasam ikki kun... yuz yil ko'rmasam yuz yil sog'inaman seni, asalim! Ko'rish, diydorlashish nasib etsa Seni ko'rman, senga yetisholmagan kunlarim, daqiqalar hisobidan sog'inayotgan bo'laman. Seni ichimga yashirib qo'ysam ham, o'zim ichingga kirib yashirinib olsam ham sog'inaman!

Shunaqaman!..

Mana, muhabbatimizning o'lchami, darajasi!...

...tush ko'rdim: ikkalamiz qo'l ushlashib ketyapmiz, yelkamga boshingizni qo'yib oldingiz. Ro'paradan tanish-notanishlar qatorlashib kelishiapti. Uyat-nomusdan o'zimni qayerga qo'yishni bilmay qoldim. Siz boshingizni ko'tardingiz, tanish-notanishlar bizga вЂњtalofotвЂќ yetkazmay o'tib ketishdi. Boshingizni yana yelkamga qo'ydingiz.

O'girilib qaray deyman, ko'zingizga boqib nimalardir degim keladi. Biroq, hatto tushimda ham oramizdag'i qadrdronlik rishtalarini sog'inch rishtalarini uzishga ojiz ekanligini sezib turaman...

Bazan Sizni sog'inib yashashimga ishonmasligingizdan hayratga tushaman. Sog'inchlariimni ichimga yutib, ezib, qiyab yashayotganligimni bilasiz-ku, to'g'rimi? Ayol kishi o'zini o'ylashga, o'z hissiyotlariga qulq solishga haqqi yo'q. Faqat... sog'inchdan o'rtanib yashayotganini bildirib qo'yishi mumkindir?..

Aslida shunday gaplarni yozish-yozmaslikni ham o'ylab qolaman, lekin maktublariningizni o'qiganimda ko'nglim yomg'irdan keyingi kundek yorishib ketadi. Chiroyli yomg'irni sog'ingandek, maktublariningizni sog'inaman. Yangisi yetib kelgunicha avvalgilarini qayta-qayta o'qiyman. Maktub yozib toliqmaganingiz uchun ham rahmat! Dunyodagi bor yaxshiliklarni Sizga ravo ko'rib qolgovchi do'stingiz!

Sira ko'ngilni tark etmaydigan tuyg'u haqida so'rab qolishsa, xursand bo'lib ketasan kishi va darhol javob ham qaytarasan.

- Siz uchun eng tasirli so'z qaysi?

- Mening bu savolga javobim tayyor: sog'inch!..

- Nima sababdan bunday xulosaga kelgansiz?

- Har kuni, har lahzada, har nafasda joni-jahoni sog'inchdan o'rtanib yurgan ko'ngil sohibi uchun bundan o'zgacha xulosa bo'lishi mumkinmi?!

Bugun Seni, bugun Seni
Ko'rmasam bo'lmas...

Yasha, hofiz! Faqat bugun emas, har lahza, har dam Seni ko'rmasam bo'lmas!..
Surunkali xastalik bemorni holdan toydirgani kabi surunkali sog'inch uqubatlaridan odamda hatto sog'inmoqqa ham hol qolmaydi...

Sen unda yolg'iz,
Men bunda yolg'iz,
O'rtamizda telefon sarson,
Simlar kular, simlar yig'laydi,
Maktablar ham uradi giryon...

Oniy lahzada tizginsiz xayol qayoqlarga olib qochmaydi! Nazarimda... shunday kunlar keladiki, sog'inch uqubati shu qadar oyog'ining ostiga olib ezg'ilaydiki!.. Kunlarning birida o'zimni mutlaqo boshqarolmay qolaman! Hamma-hamma narsani unutib, hech narsaga qaramay-netmay uyingga boraman, darvozadan kiraman va...
вЂњShunday gaplaringizni eslaganda qo'rqib ketaman...

вЂњSen-ku, xayolingda qo'rqarsan, men esa shunday kun keladiki, ana o'shanda o'zimni butkul boshqarolmay qolaman. Tushunyapsanmi, o'zimga kuchim yetmay qoladi. Qurbim-qurbatim adoi tamom bo'ladi. Ana o'shandagi holat ko'z o'ngimda gavdalanaveradi-gavdalanaveradi. вЂњQanday holat?вЂќ deysanmi?.. Darvozang taraqlab ochiladi, uy eshigining tavaqasi sinib ketgudek kesakiga uriladi va... uy ichiga bi-ir holatdagi majnunbashara, savdoyi, dalli-devona kirib boradi!..

Sog'inch, alam, xijron iztirobi shu ko'yga solgan bo'ladi o'sha devonani... meni...

Sog'inchni shaklga solib chizgim keladi, uning rang-tusini topishni o'layman. Mening sog'inchim bilan Seniki shakl-shamoylda, rang-tusida farqlanadimi? Nimasi bilan bir-biriga o'xshaydiyu, nimalari bilan o'xshamaydi? Qiziq savol-a?! Qani, ayt-chi, Sen sog'ingan damlarda qanday holat yuz beradi?.. Misol uchun menda... yelib-yugurib qilayotgan barcha ishlarim (uning qandayligidan qati nazar) birdan mazmunsiz matohga aylanadi... Hech kim bilan gaplashgim kelmaydi... miyamning ichi bo'm-bo'sh, atrofim bo'm-bo'sh, ko'zimga tashlanayotgan har qanday manzara g'arib, xonada turibmanmi, bepoyon tabiat qo'ynidami

вЂњtasavvurimdag'i olam torayib ketadi... Hech narsani his qilmay qo'yaman, aqlim ishlashdan to'xtaydi, hatto olayotgan nafasim ham bemanilikday tuyuladi va juda-juda olisda, ko'z ilg'ammas yiroqlikda bitta nur, bir dona dur, mitti yulduz yanglig' bir dona gavhar o'ziga chorlaydi... Qanot chiqarsamu, uchib ketsam!.. Qurbim yetsayu, yugurib yetsam!.. Yo'limda uchragan har qanday to'siqni sezmay tikkasiga bosib-buzib o'tib boraversam!..

Kim bilsin, Sen bilan mening talqinimizda sog'inch... hijron... deb atalgan tushunchalarni ofat yoki baloi azim deb atash ham mumkindir?..

U qayerda bo'lmasin xonaga - yo ishxonaga, yo uyiga oshiqadigan odat chiqardi: go'yo uyda yo xonada biron narsasini unutgandek!.. Go'yo uyda yo xonada yo'rgakdag'i bolasi yolg'iz qolib ketgandek!.. Go'yo uyda yo xonada elektrga ulangan dazmol o't olib ketadigandek!.. Go'yo uyda yo xonada sharros buralgan suv jo'mragi ochiq qolgandek! Oshiqadi. Hech kimga qaramaydi, birov ro'para kelsa, salom-alikni nasiya qiladi, uni ko'rganlar hayron bo'lismadi, вЂњkap-katta odam namuncha yosh boladek yugurgilab yurmasabвЂќ deb ketidan bosh chayqab qarab qolishadi, u esa halloslab, chopqillab, eshikka yetar-etmas cho'ntagidagi kalitni paypaslaydi, topadi. Oyog'iostonaga yetmay qo'lini cho'zganicha kalitni eshik tirqishiga suqadi! Ichkariga kiradiyu, hovliqib, yutoqib... qadrdon suvratlarni stolga yoyadi... Xalloslaganidan bazo'r nafas rostlaydi, og'ir, lekin maroqli tin oladi. Birma-bir, birma-bir, yana va yana suratlarning ichiga kirib ketguday tashnalik bilan ularni tomosha qiladi. Gaplashadi. Savol-javob, savol-javob, kuladi-kuldiradi, ich-ichidan kelayotgan xo'sisiniqni bosish ko'yida labini, tilini tishlaydi...

- Uzr, Seni yolg'iz qoldirdim... - deya o'padi... Yuziga, ko'ziga surtadi...

... Ertasi ham, indini ham U yana va yana o'sha alfovda uyi yoki ustaxonasi tomon qoqla-suqila yashindek uchib kelayotgan bo'ladi, Uni bu ahvolda ko'rganlar kap-katta kishining go'daklarcha, telbalarcha tuyg'ularini yashirolmay chopqillab ketayotganini ko'rib jilmayib qo'yishadi. Ayrimlarining xayolida, вЂњTavba, zavqi, sog'inci shu qadar bo'lsa, uni shu ahvolga solgan mahbubasi qanday bo'ldi ekan?..вЂќ degan o'y kechadi... Unga havaslari keladi - ko'rsatmayman, ko'z tegadi, deydi U tap tortmay. Zero, sog'inchdan o'rtangan jon tap tortishni bilmaydi. Dilidagini yashirolmaydi.

- Qayerdasaaannn??!!?! - deya oh chekadi, nola qiladi. Tap tortmay takrorlayveradi: - Qayerdasaaannn??!!?!?

Tun-kun tiladim visol xudodin,
Hijronni yubordi ul samodin...

- Ayt-chi, men Seni tushunamanmi?
- Tushunmaysiz.
- Tushunmaymanmi? Hech qancha tushunmaymanmi?!
- Mana mashi-incha: jimjilog'imning uchichalik tushunasiz, xolos.
- Shuning uchun ham o'sha jimjilog'ingning uchiga sig'inaman, yolg'izim!!!

Derazamning ro'parasida bir tup daraxt yaproqlari oltin tusida sarg'ayibdi. Hademay oltin yaproqlar ham yer bilan bitta bo'lib to'kiladilar, xayol mayus tortadi. Har safar derazadan qaraganimda boshqa daraxtlarga emas, boyagi boshi вЂњoltinвЂќ daraxtdan ko'z uzolmayman, shunda daraxtning nozik navdalari men yaxshi ko'rgan, men harchand ardoqlasam-da to'ymaydigan Jimjiloqqa o'xshab ketadi!.. Ha, o'sha noooziik, opppoq, har safar labimga bosganimda yutib yuborishdan hayiqadigan Jimjiloq!..

Mening ardoqli jimjilog'im!..

Kun peshindan og'di. Kayfriyatim chakki emas. Har safar sog'inchlari bayon etilgan maktublarimni Senga jo'natganimdan keyin o'zimni yengil his qilaman. Mana, hozir, o'zingni emas, negadir jimjilog'ingni o'ylab... вЂњo'ynabвЂќ o'tiribman. Tiqilinch avtobusda borayotgan emishman, avtobus sultanib ketibdi, muvozanat saqlash maqsadida shoshib qo'limni cho'zib temir tutqichni tutib oldim. Shunda... nogahon ko'satkich barmog'im boshqa tomondan cho'zilgan qo'l jimjilog'inining ustiga tushibdi!..

Barmog'imni ko'tardimu, nigohim notanish jimjiloqning uuchida to'xtadi. Hayron bo'lib qoldim, bunaqa jimjiloqni ko'rмагандим, uch yoshli norasida go'dakning jimjilog'idek oppoq, muloyim, yumshoq... Ko'zimni uzolmadim desang!..

Qanday yumushlar bilan bandsan, jon?

Men ardoqlaydigan momiq qo'llaring - barmoqlaring... jimjilog'ing bilan qanday yumushlarga unnalding?.. Ardoqla, avayla, axir, ularni, asalim!

Qalbini ishg'ol qilgan bo'lsang-da, qo'li, barmoqlari... jimjilog'ini tutib turgan esang-da, U seniki emasligiga iqrorlik jonni o'rtaydi, jon!..

Nima bu, og'ayni, huda-behudaga noxushlik, tushkunlik? Undan qutilish epini topilmasang, bu dardning sababi, sababchisining nomini tilga ololmasang...

Bularning bari bediyidor, bevisol, demak, behuda va zoye o'tgan kunlarning alamlari, asorati ekanligi muqarrar, jigarim!..

Xatlarim yetib bordimi? Ularni ochgan barmoqlaringni ko'zimga surtay, asalim. Xat almashinuvini visol debsan, nahotki, buni astoydil, chin dildan aytayotgan bo'lsang?! Nahotki, noma visol o'rniga o'tsa?! Yupanch bo'la oladimi, shu varaqlar, bizga?

Sog'inchning hurmati shumi?

Mening yozganlarimning hech biri Sen uchun hech qanday yangilik emas, bilaman, ikki marta takrorlangan xabarning yangiligi qolmaydi, lekin mening million martalab aytgan izhorlarim mening million yangiliklarimdir...

Menga jimjilog'ining uchichalik mehri bo'lgan, lekin jimjilog'ining uchichalik o'zimi baxshida qilolmayotgan jigargo'shamni alloh panohida asrasin!..

Xat javonim to'lib ketibdi, rahmat Sizga qadrdom! Biri-biridan go'zal, o'xshatishu tashbehlarni rosa topasiz-da, o'ziyam!

Rassomlikka qo'shimcha shoir bo'lishingiz ham mumkin edi.

Namuncha, jimjiloqni вЂњtilibвЂќdan qo'yamsiz?! Xatlaringizni o'qiyapmanu, nuqul jimjilog'imga qarab kulgim qistaydi.

Shuuncha yil yashab o'zimning jimjilog'imga Siz aytgan, Siz tariflagan nazar bilan qaramagan ekanman. Bir qarasam oddiygina, bir qarasam... qo'ying, odamni xijolat qilmang!.. Xijolat bo'lyapmanu, sevinayotganimni ham nima qilaman yashirib?! Tag'in Sizdek inson topgan, mehrini qo'shib tariflagan so'zlariga men qandayiga qarshi chiqishim yoki ularni rad etishim mumkin?!

Men unday qilolmayman...

Darvoqe, yo'q, jimjiloqning uchichalik Siz meni yaxshi ko'rasiz. Mening yaxshi ko'rishimni esa, eh-he-e, Siz tasavvur ham qila olmaysiz!..

Qadrdomidan yangi-yangi tashbehtar kutib...

Uch kun safarda bo'ldim. Xonamga qaytib keldimu, shosha-pisha xatlar javoniga yopishdim. Tezroq! Tezroq! Salgina hayallasam nafasim qaytib ketadi, bo'g'ilib qolaman!..

Mana, javonni ochdim! Ana, ochildi! Jonim-m! Boshpanam! Sening bir og'iz so'zing men uch kun mobaynida safarda yurib eshitgan yuz og'iz hamdu sanolardan, maqtovu xushomadlardan ming karra aziz va alo ekanligini bilsang edi!

вЂњXudo xohlasabвЂќ dedingmi? To'xta! Bir zum qulq sol, jonim!

Axir xudo xohlaganki, biz g'oyibona bo'lsa-da, bir-birimizga dil-dilimizdan bog'lanib-chirmalib yuribmiz, bu yaqinlik sururi va azoblarini totib yurganimiz sababchisi ham yaratganning o'zi emasmi? Sog'inishlar, ayriliq azoblari, sog'inch uqubatlari kimning xohishi? Qanday qilib bu nematga shak keltirishimiz mumkin? Shunday emasmi, asalim?

Senga qanday dil izhorimni bayon etar ekanman, ularning bari-barchasi eng toza ilohiy, samoviy muhabbat iztiroblari, ehtiroslarini deya qabul qilasan degan umidda...

Bazan o'ylab ketaman: kim bilsin, bizni iztiroblarga to'la ana shu sog'inch bog'lab turibdimikan? Adoqsiz sog'inch qudrati shunday bo'lar ehtimol?.. Bir-birimiz tomon qanchalar intilmaylik sharoit va boshqa sabablar oramizdag'i jarlikni shunchalar chuqurlashtirib yubormoqda... Lekin faqat Sen va mengagina ayon bo'lgan bebafo ilohiy tuyg'u... men uni yonboshga uzalasiga yotqizilgan 8 raqamiga o'xshataman, bu raqamning ikkita xalqaqo'li bor, biri meni, ikkinchisi esa Seni qo'litiqlab olgandek! U shunchalar mahkam tutganki, qo'yib yuborishiga zinhor ko'zim yetmaydi: halovatimiz ham, rohatu azoblarimiz ham ana o'sha XALQAQO'L ixtiyorida, izmida!

Qiziq, o'sha xalqaqo'l tiklansa 8 bo'ladi! Ikki 8 yonma-yon yozilsa вЂњMen seni sevamanвЂќ degan mano chiqadi... Shuning uchun ham qo'shaloq 8 raqamini bir just qilib, yo'q-yo'q, MING just qilib sevgimni izhor qilgim keladi jonimmm, halovatimmm!.. Ha, sog'inch haqidagi barcha izhorlarining to'g'ri. Bunchalar jonni o'rtamasa, bu tuyg'u!.. Nazarimda ko'ngildagi barcha-barcha kechinmalarimni sog'inch tuyg'usi orqali bayon etishim mumkindek tuyuladi. Nima bo'lgan taqdirda ham Siz bir narsani unutmang, Sizni juda-juda sog'inib yashaydigan va jonidek yaxshi ko'radigan, Sizga dunyodagi barcha yaxshiliklarni sog'inuvchi, yurgan yo'lida faqat Sizni o'ylovchi oqibatlari og'ayningiz bor...

Abduvali degan birodarim bor. Shoir. Barcha dabdabapardoznavislardan ko'ra shoирроq! Topib yozadi. Kechaginda bir sherini o'qidim. Rosa mening dilimdagini topibdi, baraka topgur! O'qib beray:

Negadir sen meni yo'qlamay qo'yding...

- O'qiyveraymi?.. Eshit:

Negadir mensiz ham yashashing mumkin,
Ko'zing qirg'og'ida tingan havasim...

- Eshityapsanmi?

- Yo'q, eshitmayapman. Yolg'on gaplarni eshitmayman!

Sen go'yo baxtlisan, topganday nurni,
 Mug'ambir oshyonda yupanching borday.
 Shunda ham yuzingda (ochay bir sirni)
 Tilamchi ko'zlarim so'zlari borday.
 Beshbattar bo'lmaydi... bundan ziyoda,
 Hapriqib ketaman...
 Sochlaring isi b'T"
 Dimoqqa urilar hidli ziyoday,
 Yoyilib, yurakka taqalib, to'zib...
 Sevgilim, sen meni yo'qlamay qo'yding...

Tushning mo'jiza ekanligiga juda ko'p marta iqror bo'laman. Sizni hayotda uchratmasam-da, tushimning eshiklari Siz uchun ochiq, Siz buni bilasiz va kunda-kunora kirib kelaverasiz bu eshikdan. Tushim necha soniya davom etidi bilmadim, lekin har safar ko'nglimning bir chekkasida b'T^hIshqilib uyg'onib ketmay-da! b'T^h degan xavotirli o'ya yotaman. Tushim juda qisqa davom etishimi sezaman va shosha-pisha Sizga sog'-omon bo'ling-da, toliqib qolmang-da, deya tilaklarimni aytaman. Siz ularga qulqoq solmaysiz, Siz mendan ko'z uzmay tikilib-termilib turaverasiz. Termilgan nigohlaringiz tubidagi sog'inchni his etaman, o'rtanaman, o'zim-da, sog'inaman!..

Sog'inch qulqoni kar, ko'zni ko'r, aqlni siyqa qiladi. Bunday ayanchli holatga tushmaslikning birdan-bir yagona chorasi esa VISOL! Sog'inchning hurmati, sog'inchning mevasi, sog'inchning sajdagohi ham VISOL!

Necha yilki, yo'q oromim, yig'olmayman hushimni,
 Har soniya, har lahma sog'inch o'rta ko'ksimni...

Mashhur sher va qo'shiqlarni o'zlashtirishga usta bo'lib ketibsiz-a!

Butun dunyo xususiylashib ketayotgan bir paytda bir necha misrani xususiylashtirish gunoh bo'lmas! Qolaversa, ularni avval o'zimni qilib olaman-da, so'ng Senga taqdim etaman. Ishonamanki, o'sha mashhur sher va qo'shiq mualliflari buning uchun meni sazoyi qilishmaydi, chunki ular hassos istedod egalari sifatida muhabbatning mo'jizalarga boy muqaddas tuyg'u ekanligini yaxshi tushunishadi.

Yaxshiyam Siz borsiz! Shuning o'zi men uchun ulkan baxt! Iltimos, bir narsani zinhor unutmang: Sizni o'ylaydigan, sizni doim ko'rgisi keladigan qadrdoningiz bor. Sog'inch og'riqlari oldida bu og'riqlar bilinmaydi ham, sog'inchlarining sevaman, sog'inchlarining suyanaman...

Iztirobga to'yingan tuyg'u - sog'inch... Senu menga umrbod hamroh, yo'l doshdir - sog'inch... Qiyomatli do'stim, inim, singlim, akam... onam- jigargo'sham - sog'inch!..

-

... - .?

-!

b'T^h" Iya, to'xta, menga qara! Yuraging urmayaptimi?

b'T^h" Siz kaftingizni ko'ksimga bosib turibsiz-ku, yuragim urishining hojati yo'q-da!

b'T^h" Meniki esa orom olyapti...

b'T^h" Sizning yuragingiz orom olayotgan bo'lsa, men yuragimning urmasligigayam roziman...

b'T^h" Bizning muhabbatimiz yuraklarni to'xtatish uchun emas, uzoqroq, o'ynoqiroq va shiddatliroq dukurlashi uchun boqiy emasmi?

b'T^h" Haqiqiy muhabbat boqiy bo'lmaydi, deyishadi-ku?

b'T^h" Desalar deyaversinlar, bunday gapning mavjudligi bizning muhabbatimiz uvol ketishiga bahona bo'lolmaydi.

b'T^h" Bahona topilmagan taqdirda ham oqibati aniq-ku...

b'T^h" Nima deyapsan? Ochiqroq gapirsang-chi?

b'T^h" Qiziqsiz-a... O'zingiz tushungan odamsiz. Yana men nima deb tushuntiraman?.. Qo'ying, boshqa mavzuda suhbatlashaylik.

b'T^h" Nima, muhabbat haqida suhbatlashish bizga yarashmaydimi? Yoki biz sevgi iztiroblariga arzimaymizmi? Yoki...

b'T^h" Nimalar deyapsiz?... Menga qolsa...

b'T^h" b'T^hMenga qolsab b'T^h deysanu, Senga qolganda...

b'T^h" Muhabbat haqidagi gaplaringizni jon qulog'im bilan tinglayman. Sira jonimga tegmaydi. b'T^hSeni jonimdan yaxshi ko'ramanb b'T^h, b'T^hErtayu kech seni xayolimdan chiqarolmaymanb b'T^h degan so'zlarni eshitishni xohlamaydigan ayol bo'lmasa kerak, dunyoda?! Lekin...

b'T^h" Nima, lekin? Qo'ysang-chi, o'sha lekinni! Mani shuuncha ehtirosimni bitta lekinga qurban qilib yuborasanmi?

b'T^h" O'zimning ehtiroslarim-chi?

b'T^h" Sen juda vazminsan, og'irsan. Ehtiroslarining jilovlashingga hayratga tushaman, bazan esa yorilib ketay deyman. Men ming o'tdan chiqib, ming cho'g'ga botib, entikib nimalar deymanu, Sen hech narsa bo'limgandek...

b'T^h" Hech narsa bo'lmadimi? Ehtirosga ehtiros qo'shilmasa...

b'T^h" Ha, ha, gapir. Gapiraver, jonim!

b'T^h" Yetadi. Boshqa gapirmayman.

Tilimizda b'T^hhalib b'T^h degan so'z bor. Uni har kim o'zicha tushunadi, nazarimda. Misol uchun, esingdami, b'T^hhaliroq ko'rishamizb b'T^h yoki b'T^hhaliroq qo'ng'iroq qilamanb b'T^h degancha uch-to'rt kunlab dom-daraksiz ketar eding. Vaholanki, men uchun b'T^hhalib b'T^h bir daqiqqa, bir soniya! Sen uchun esa... mana shu emasmi, oddiy fashizm?!

Bir kun, ikki kun... uch, to'rt kunlab o'tadi hamki, b'T^hhalib b'T^hdan darak bo'lmaydi, meni adoi tamom qiladigan b'T^hhalib b'T^h!

Go'yo men go'dak bolangmanu Sen onamsan, aldagani bola yaxshi, deganlaridek...

Telefonda bir daqiqagina gaplashardigu, shu bilan suvgaga cho'kkani toshdek jim bo'lib ketardik. Go'yo shu uchrashuv, diydorlashuv o'rniga o'tadigandek! Shu bilan oramizdagagi ikkovimizni ham o'rtab yurgan sog'inchning hurmatini joyiga qo'ygandek!.. Vaholanki, men Sen bilan bir umr gapplashsam ozlik qiladi! Sen esa bir daqiqa o'tar-o'tmas xayrlashishga tushasan, yagonam, erkam!! Ko'risha olmaslik o'n azob bo'lsa, ko'rishgan taqdirda ham dildan suhbat qura olmaslik ming azob!.. Ko'pincha hayron qolaman: men jonim o'tanib izhori dil qilganim-qilgan, Sen esa xotirjam. Suhbatimizni eshitmay uzoqroqdan kuzatib turgan odam, b'Th'Bu yigit juda zerikarli narsani vaysab qizning boshini qotirvordi-kub Th'k degan taxmin qilishi muqarrar. Nahotki, izhorlarim kor qilmayotgan bo'lsa? Nahotki, o'zingni shu qadar og'ir-vazmin tuta olasan? Yuraklar dalva-dalva bo'lib ketay deydiyu, Sen esa bu qadar sovuqqon!..

Hoynahoy, shu bois Senga bir gapni ming bora takrorlasam kerak? Senga uqdirishga, isbotlashga urinsam kerak? Mening iztiroblarim aks sado kutaverib alhol o'zi holdan toysa kerak?..

Nitshening b'Th'O'zaro juda chuqur hurmat-etiborni men nikoh deb bilaman, nikohlanganlar bir iroda egalaridirb Th'k degan gapini ko'p o'ylayman. Ushbu gapni maqlu ko'rsak, undan chiqdi, biz o'n, yuz karra nikohlangan hisoblanmaymizmi?! Axir bizning oramizdagagi hurmat-etiborga man-man degan mehr-oqibatlari er-xotinlar ham havas qilsalar arzimaydimi?!

Shu kabi so'zlarimni, iqrorlarimni yuz, ming, million martalab aytaman, aytaveraman. O'lgunimcha aytaman. Chunki Senga aytar so'zlarim hali lim-lim, Sen esa jim-jim...

Ha, favqulodda sovuqqon, hislaringni pinhon tuta bilguvchi, istasang-da, namoyon etishdan o'zingni tiya bilguvchi... axir, hamon muhabbat chin bo'lsa, do'stlik rost bo'lsa, yorilib ketmaydimi, odam?! b'Th'Ha, ha, men ham... men ham!.. b'Th' deya yuraklarini yorib, ochib tashlamaydimi, barini?! Barcha-barcha oriyatu andishalarni unutib, o'ylab topilgan beman odob-axloq meyorlarining bahridan o'tib, ayt, gapir, axir!.. To'kilib-to'kilib, sochilib-sochilib, ochilib-ochilib, entikib-entikib, yaratgan egam ato etgan injatuyg'ular erkatojiga aylanib-aylanib ayt!..

Yo'q, Sen jim, Sen vazmin, Sen...

Shunday damlarda yana va yana ehtimol meni aldab, yosh bola qilib yurgandir-da, degan dahshatlari o'ylarga boraman. Meni o'rtayotgan tuyg'ularning tozaligidan foydalanib qolayotgandir-da, deya yuraklarim battar eziladi. Ana o'shanda yana o'zimga dalda beraman, o'zimni qo'lga olaman: mayli, basharti u meni go'dak qilayotgan bo'lsa ham, men tuyg'ularimning beg'uborligi bilan uning aldovlarini rostga aylantiraman. Basharti meni kalaka qilayotgan bo'lsa, men uning kalakalari zamiridagi muhabbat g'unchalarini avaylab parvarish qilaman. Bu g'unchalar... ertaga qanday gul bo'lib ochilishi noayon, illo men Uning hatto mana shunday makkorliklarini-da (nimalar deyapman?!) sevaman!.. Men Uni zinhor ayblay olmayman, Unga nisbatan shubha-gumonlarimni quvib solaman!..

Men hozirga qadar Unda birorta ko'ngil qoldirarli nuqson topmadim. Necha safar iymondan ayirguday shubha-gumonlar girdobiga g'arq bo'lgan damlarimda ham Uning sehrli va qadrdon b'Th'Assalomayko'mb Th'kini eshitgan zahotim shubhaning u qora ko'lankalari ro'yo misol tarqab ketgan. Undan ko'nglimni tamomsovutib yuboradigan xususiyatni atayin izlagan damlarim bo'ldi, shunday xususiyatni topguday bo'lsam oramizdagagi inju munosabatlarga barham berilishiga bahonai sabab bo'larmikan, degan xayollarda yurgan paytalarim bo'ldi, biroq, izlashlar-izlanishlarning bari behuda ketdi (Shu emasmi, iztiborlarimizning ilohiyligi?!), yo'q, behuda ketdi desam yolg'on aytgan bo'laman - aksincha har safar shunday xayollarga borganimda unga yanayam qattiqroq bog'lanib qolayotganimni, unga bo'lgan muhabbatim har qachongidan avjiga chiqayotganini sezdim...

Bilaman, Sen ushbu satrlarni ham xuddi hech narsa bo'lmagandek, b'Th'Ha, endi odatdagagi gaplar-dab Th' deb o'qirсан, bunga nihoyatda jo'yali bahonalar topib, uni juda oddiy va tabiiy holat deya izohlarsan!

- Nahotki, ko'rishmay ketsak? Keyin nima bo'ladi!!!!

- Pirovard natija boshqacha bo'lishi ham mumkin emas-da, qaytamiz? Axir hammasi ayon bo'lgach...

Mana, Sening falsafang! b'Th'Boshqa nima ham bo'lardi?! Malum narsa-ku!.. b'Th' Mantiqan olganda juda to'g'ri, ammo-lekin, hay, Inson, axir Sen bilan mening oramizdagagi munosabat hech qanday mantiqqa sig'maydi (Demak, sevgini mantiqdan tashqaridagi holat deb izohlash ham mumkin ekan-da!). Mayli, Sen millionlab oilalarga o'xshab, hamma qatori yashab yuraver, yani, bu yorug' dunyodan yashaganga o'xshab o'tib ketaver, darhaqiqat, hech bir risolaga sig'maydigan g'ayrimantiqiy DO'STLIK ko'chasiga kirib nima qilasan?! (Eh, tuyg'ularim va o'ylarimni o'z nomi bilan yozolmayapman-da!) Axir, tushungin, Sen oddiy ayol emassan-ku! Bizning munosabat shu qadar sovuqqon va shu qadar boodob muomalalardan aancha yuksakdagagi ajoyib va betakror, faqat Sen va mengagina xos bo'lgan voqe'a-ku!.. Qarasang-chi, anglasang-chi, qadrondim!..

... nimalarni yozdim?! Nahotki, shu darajaga boryapman? Odob- axloqqa til tekkizdim-a?.. Nahotki, muhabbat iztiroblari odob - axloqdan-da ustunroq, axloq-odob meyorlaridan tashqaridagi favqulodda hodisa bo'lsa?! Ey, falak, izmingdaman!..

Ustma-ust yo'llagan xatlariningizni shoshib-yutoqib o'qib chiqdim, rahmat, sizga, mehribonim. Nahotki, beg'ubor va musaffo munosabatlarimiz orasiga shunchalar shubha-gumon oralagan bo'lsa?! Men tushunolmay qoldim. Ilohiy muhabbatlarimizdan mast bo'lib yuraveribmizu, bu yoqda g'irt insoniy, zaminiy, odamning, betakror his-tuyg'ularning qadr-qimmatini yerga uradigan, poymol etadigan allaqanday tuban tushunchalar ham yo'limizda pusib, poylab turishi mumkinligini unutibmiz-da!.. Ayrim fikrlaringizga qo'shilmayman. b'Th'Jonb Th' degan so'zingizga qo'shilaman, chunki Siz menin jonusi jahonimsiz, demak, men ham sizning joningizman. Shunday emasmi?..

Men Sizni o'zimning juda yaqin kishimsiz deb hisoblayman, shu bois bazan hayron bo'l mang, o'zimni chegaralab turamanu, bazan... aldoqchi debsiz, yo'q, aslo Sizni aldashni istamayman, ehtimol Siz o'ylagandek hissiz, mehrsizdirm... yana ko'pmi shunday b'Th'fazilatlarim b'Th'? Marhamat, aytavering, sanayvering, faqat, Sizga ham qoyil qolmadim, sevib qolgan odamingizni qarang!.. Bilasizmi, men ko'pincha o'zimdan xafa bo'lganimda, shuuundoq Inson meni yaxshi ko'rib qolgan ekan va men ham shuuundoq insonni yaxshi ko'ribmanmi, demak... xillas, o'zimga qoyil qolaman. Siz bo'lsangiz... Sizning mehringiz chek-chegarasiz. Doim o'zingizni ham o'ylang deysiz, Siz o'zingiz faqat meni o'laysiz, shunday emasmi?.. Siz ham o'zingizni o'ylang, xo'p. Siz men uchun juda-juda kerakli inson ekanligingizni ko'plab marta his qilaman... Boshqa hech bir inson bilan bunday holatga tushgan emasman!..

Ushbu etirofimga ham ishonmaysizmi?..

Nihoyat, ko'pdan buyon bir armonim ushaladigan fursati keldi: yurtimizdan olislarda turib Senga maktub yo'llasam degan orzuim bor edi. Mana, o'sha fursat: afsonalarga boy Dehlida martabali davralarda yuribmanu, ko'ngilga qil sig'maydi. Tasavvur qilasanmi, bor irodamni, botiniy qaysarligim, bolalikdan qolgan sho'xliliklarni - barini... Seni eslasmalikka safarbar qildim. Eslamayman, xorij safari ekanidan qatiy nazar Senga atab hech qanday sovg'a-salom izlamayman, chunki Seni eslasmayapman, eslasmayman, deya ahd qildim. Meni go'dak boladek aldab, ko'nglida borini emin-erkin ravvo ko'rmaydigan ...ni nima uchun men yero ko'kka

ishonmasligim kerak?! O'zimni ayovsiz koyishga tushaman: Uning senga qarab qolgan joyi yo'q-ku, tentak!.. Sening mehringga zor emas-ku, shuni ham ko'rib-sezmasang, bunchalik go'l bo'lmasang?! Bir o'yinchoqqa, ermakka aylanib yurganiningni ko'r odam ko'rmasligi mumkin, xolos!.. Shunchalar ham sodda bo'lsanmi?!

Ha, shuning uchun ham o'ylamayman! Qani, loaqlal bir hafta, yurtdan olisda eslamay, o'z ishingni, tashvishingni tortib yurib ko'rgin-chi! Qara, ana, afsonaviy hind diyor!..

Ming yillardan buyon necha million shohu-gadoni o'ziga maftun etgan Hindistondasan, axir! Shu mo'jizakor diyordan-da sehti zo'rmi, Uning?!

Yo'q, zo'r emas, kuni kecha dilimni vayron qilgan вЂњshabЂќni eslamaslikka qurbim yetadi. Faqat, ko'pdan buyon ko'nglimga tugib yurgan orzuim-armonim hurmati so'nggi marta xat yoza qolay.....

... Yo'q, eslamayman dedimmi, bas, xotiram maydonlarini o'z holiga qo'yaman. Qachongacha o'zimni ezib, ezb'ilab yuraman?! Qani, xayollariningi o'z holiga qo'y, bandai g'ofil!

Eslamayman!..

Agra yo'li uzoq, tasodif va sarguzashtlarga boy. Ko'z o'ngimdan yelib o'tayotgan manzaralar har qancha xayolni chalg'itishga arziyi.

Eslamayman. Hamrohim suhbatga chorlaydi. вЂњHabЂќ, вЂњhmbЂќdan nariga o'tmayman, chunki... men bandman: Seni eslamaslikka harakat qilyapman. Shunga ont ichganman. Ahdimga sodiq qolaman!..

Agraga yetdik. Ana, Tojmahal, afsonaviy Tojmahal! Ilohiy sevgi obidas!.. Uzoqdan ko'zga tashlangan ilk taassurot вЂњ tiniq osmondag'i oq bulutdek oppoq rang!.. Men sevgan, jonimga jon bag'ishlaydigan rang!.. Nega, qayerdan sevib qolganman, bu rangni?..

To'xta, nima qilaman bunday savolga tutib o'zimni!.. Ana, qara, tomosha qil, hayratlan! Ro'parangda Tojmahal qad rostlab turibdi! Oppoq!.. Uf-fl!..

Nima uchun oppoq? Sadaf yanglig' oq rangning hikmati nimada ekan? Sehri, jozibasi nimada? Ehtimol ilohiy sevgining rangi oqdir?.. Ilohiy tuyg'ular qanotida Seni farishta yanglig' samolarga olib chiqaman, xayolan... O'zim he-e yerdan oyoq uzolmasamda, Seni, Siz farishtamni ko'klarga ko'taraman, ko'targanim sayin Makkatilloga ilk safar qadam ranjida qilgan bandai mo'min singari ko'zlarimdan duv-duv yosh to'kiladi, baxtiyorlik va shodumonlik yoshlar...

Nima deyapman? Kimni eslayapman? Subut bormi, menda?!

Aytdim-ku, eslamayman, deb! Es-la-may-man-n!..

Kun, izidan tun o'tdi. Yana kun, yana tun... Yana... вЂњSeni eslamayman!вЂќ degan gap biron daqiqa (!) xayolimdan yiroqlashgani yo'q, yani, har daqiqa Sendan butkul yuz o'girishga ahd qildim va o'ylab ko'rsam... biron lahma, eshityapsanmi - biron soniya dilimdan ariganing, tilimdan uzilganing yo'q!..

Ana o'shanda bir ulkan haqiqatni angladim: shu-uncha yillar mobaynida qalbimda osmono'par Tojmahalni bunyod etgan ekanmiz!.. Uni faqat birgina inson - Sen vayron etishga qodir eding - shu qadarsov uqqonlik bilan vayron qilding-ki!.. Bir ermak deb, istalgan daqiqada itqitib yuborishga tayyor o'yinchoq-matchoh deb his qildim, o'zimni, sevgimni...

Chil-parchin bo'lgan Tojmahalni qayta tiklab bo'larmikan?..

Bundan buyongi umrim ana shu Tojmahal xarobasi ichida o'tadiganga o'xshadi...

Singan dil qirq yilda butun bo'lolmaydi, deydilar Oydin opa.

Yuragimning bir darzi bor,

Qirq chegachi ulolmas...

O'ylay-o'ylay bir qarorga kelgandayman: munosabatlarimiz rishtasini jarrohlik tig'i bilan bo'lsa-da, har qanday shafqatni unutgan holda qirqib tashlash, shu yo'l bilan hamma-hammasidan bir yo'la voz kechish kerak, vassalom! Faqat bunday jarrohlik usuli hayot ato etmaydi, balki hayotni barbod etadi...

Bunchalar tushkun kayfiyatda yozdingiz maktublarni? Nahotki, Sizni zarda qilishga majbur etgan bo'lsam?! Axir dunyoda Sizni o'ylaydigan, Sizni judayam yaxshi ko'radigan bir mehriboningiz borligining o'zi baxt emasmi? Men uchun esa Sizning sog'-salomat, tushkunliklarga berilmay shodon kayfiyatda yurishingizning o'zi ulkan baxt. Siz ham mening necha yuzlab bedor tunlarimning aybdori ekanligingizni bilasizmi? Mening hozirgi sharoitimda Siz bilan do'st tutinib yurishimning o'zi qahramonlik emasmi? Siz shunday deb o'ylamaysizmi?..

Nima qilmoq kerakligini bilganimda shu choqqa qadar o'zimni ham, Sizni ham qiyab yurmasdim. Bilmadim... Ammo jarrohlik zinhor shart emas! Nima deganiningiz bu?! Xatingizni o'qib qo'rqib ketdim! Bunday xayollarga bormaylik, qadrond!..

Bizning Tojmahalni ikkovimiz bunyod etdikmi, uni hech kim buza olmaydi, axir uni hech kimga ko'rsatmaymiz-ku, el-yurtga ko'z-ko'z qilmaymiz-ku! Shuunday sevgi koshonasini buzishga... bunday shafqatsizlarcha buzg'unchilikka Siz men qodir emasmiz!..

Sizga ich-ichimdag'i ko'p gaplarni oshkora aytolmayman. Meni so'zsiz anglay olishingizni juda-juda iltimos qilaman.

Yanayam ochiqroq gapirishga majbur qilmaysiz degan umiddaman...

Jon! Xatlaringga javob bermaganim, yani ularni Senga yo'llamaganim, bu Senga xat yozmadim degani emas. Yozaman, tinim bilmay yozaman, faqat bazan ularni jo'natishdan o'zimni tiyaman...

Sog'inchlariimni bayon etishdan charchadim desam oramizdag'i ilohiy tuyg'u chirqirashini istamayman, aslo! Charchadim demasam Senga necha martalab takrorlashim kerak, ahvolimni?!

Va yana, xudo biladi, nechanchi marta o'zimcha ont ichaman, so'zlar beraman: bo'ldi, bas, deyman va o'sha zahoti... qasamlarni unutaman... Chunki, chidolmayman, ko'rgim, suhbatlashgim keladi.

вЂњTavakkal qilib, taqdir bilan o'ynashayotganga o'xshaymanвЂќ degan gapingni takror-takor o'ylayman. O'zimdan nafratlanaman. Axir men esimni yig'ib olishim, Senga bo'lgan mehr-muhabbatim haqqi uchun ham og'irlikni men zimmamga olishim kerak-ku!

Uh-h, necha martalab jazm qildim bunga?! Xatlaringga javob qaytarmagan lahzalarda qanchalik azob chekkan bo'lsam, bilasanmi, shunchalik quvonaman ham. Hamma-hammasini to'xtatish uchun bir qadam qo'ydim-ku, degan, seni va o'zimni xatarlarga qoldirib yashashga chek qo'yamiz, endi, ana, o'zimni tiydim, qoyil, uddaladim, deyman. Sendan ko'nglimni qoldiradigan nimalarnidir topgan bo'laman, oramizdag'i sirdoshlik va do'stlik rishtalaridan kelib chiqishi tabiiy bo'lgan talablarga javob berishni

istamayotganing, xullas, o'zimcha asoslar topaman, har ikkimiz million martalab gaplashgan, yani ko'rishmaslikka ko'nikkandek bo'laman va... va... bilasammi, menga qancha azob-uqubatlar evaziga tushayotganini, bu o'zimni tiyishlar?!
Bilasanmi, shularni, jonim?! Tasavvur qilasanmi?..

Sendagi aqlli sovuqqonlik, tuyg'ularingni menga to'la ravo ko'rmasliging ham havasimni keltiradi, ham meni va eng toza tuyg'ularimni haqoratlaydi, ham meni senga begonalashadiradi...

вЂњSeni shunchalar sevadigan odaming borligi baxt emasmi вЂќ qabilidagi gaplaring tasalli emas, yaraga sepilgan tuzdek tasir qilishini nahotki bilmaysan, do'stim?

Sening xotirjamliging, halovoting haqqi, ilohiy aqidalarimiz haqqi... ilohiy nematimizni uvol qilishga majburmiz (buning uvoli qanday tutadi, bilmadim). Boshqa chorasi yo'q. Aksincha, ko'ngilda pinhon iztiroblarga dosh berish ilojsiz, chorasiz ahvolga solib qo'yomoqdaki, unga qulqo tutmaslik baxt emas, tuzatib bo'lmas baxtsizlik, bebaxtlik keltirishidan juda-juda xavotirdaman...

Qo'rqaman. Chunki men inson sifatidagi barcha orzu - havaslarimning cho'qqisida bitta ulkan niyat Seni baxtli ko'rish orzusi hamisha hilpirab turadi. Uni hech bir banda (hatto Sen ham!) tortib ololmaysan, u faqat o'zim bilan yashaydi va faqat o'zim bilan ketadi...

... Xatlaringiz nega tushkun, deb so'ragan eding, buni Sen bilmasang, kim biladi? Kunlarimning, o'ylarimning... umrimning qanchasi mahzun o'tishini hisoblay olasanmi?..

Menga bediydor, bevisol kunlarni ravo ko'rgan yagonamga adoqsiz ehtiromlar bilan...

Nima qilmoq kerak, degan savol haqida bosh qotirishga yuragim chidamaydi. Chunki javob topolmasligimni, har safar shu savolni eslaganimda o'zimning juda-juda ojizligimni his qilaman. Axir nima qilmoq kerakligini bilganimda edi, o'zimni ham, Sizni ham qiyinab yurmasdim. Bilmadim...

- Hozircha uchrashmay turaylik, - deding. O'ylanib qoldim.

- Mayli, - dedim, - Sen nima desang - shu. Men rozi. Lekin sira chidolmasam, dunyo ko'zimga qorong'i bo'lib zimistonga aylanaversa, qo'llim ishga bormasa, o'zimni qo'yarga joy topolmay qolsam nima qilay? Boshimni qayoqqa uray? Maslahat ber.

- Uch-to'rt kun chidasangiz ko'nikib ketasiz...

Ana, xolooss... Uch-to'rt kunda ko'nikib ketar ekanman?! Boshlanishiga chidasam, ko'nikib ketar emishman!..

Shu qadar oson ekan-da, ko'nkish?! Shu qadar oson bo'lса, shuuncha vaqt ne-ne azob-uqubatlarni boshdan kechirmadim?! Ne-ne iztiroblar alangasida qovrilmadim?! Necha qayta qo'l siltadim, qonimga tashna holga tushganlarimda necha qayta вЂњBas! вЂќ deya o'zimcha qasamlar ichdim! O'zimni haqoratlar qildim. O'zimni irodasizlikda... boshqa-boshqalarda aybladim. Qani, iloji topilsa! Qani, o'rganib ketsam! Qani, ko'nika qolsam?!

Nimaga, qanday qudratli va sehrli og'uga duch kelganman, o'zi, qismat?! Nima qilmoqchisan, ne ko'ylarga solmoqchisan, taqdir?!

Qo'ysang-chi, meni o'z holimga!..

Sendami gunoh? Mendami?

Sen-da, men-da bir bandamiz, axir. Parvardigor shu ko'ylarga solmadimi, bizlarni, azizam? Shu dardga mutbalo qilgan o'zi-ku!

Shakkoklikka yo'yma, iltimos, axir har ikkimiz hamisha o'zimizni tiyib-tizginlab kelmadikmi?! Lekin...

Seni xayolimdan yashirolmasam...

Yuragimdan sug'urib irg'itib yuborolmasam...

Senga ergashib borolmasam...

Qismatimni bog'lolmasam...

- Yaxshi emas. Mumkin emas. Ehtimol, gunoh...

Xayollar-ku, sarson bo'ldi,

Bevatan,

Sarson bo'ldi, sevgimizdek,

Gunoh ham...

Ingliz adibi Charlz Dikkens hayotidan o'qib beray, eshitgin:

Yesli bi' tolChko Ellen dala yemu nadejdu! On davno uje brosil bi' vse: oposti'levshiy brak, poryadkom naskuchivshiyе literaturni'e trudi', London... No miss Ternan lishCh vejlivo prinalma yego pokrovitelChstvo, ne dvigayasCh v svoix chuvstvax dalChshe xolodnavatoy, xotya kak budto bi' i iskrenni'y drujbi'. I, negoduya na samogo sebya, on slal yey podarki, sladosti, polushutliv'i-e-poluliricheskiye zapiski, nadeyasCh na to, chto rano ili pozdro dobChetsya yee snixoditelChnosti, i odnovremenno boyasCh etogo. Yesli Ellen yego razocharuyet, yemu bolChshe nechego budet jdatCh ot jizni. I on uje ne smojet etogo perejjitCh.

Sevgi ilohiy tuyg'u. Gunoh deymizmi, boshqami - Sen-u men bandamiz, ojiz, notovon banda! Qanday qilib ilohiy tuyg'uga bas kelamiz, uni yengamiz?! Rad eta olamiz?..

O'ylab ko'rgin, do'stim: ehtimol Yaratgan egamizning o'zi bizni bu go'zal va betakror tuyg'uga mutbalo etgandir?! Bu bir sinov tegirmonidir?.. Bu sinovga вЂњhabвЂќ desak maqulmi yoxud вЂњyo'qbвЂќ desak? вЂњYo'qbвЂќ desak - o'n balo, вЂњhabвЂќ desak - yuz balo! Bundayin chorasisiz sinov har kasga inom etilmaydi, har ko'ngilga ravo ko'rilmaydi, axir. Demak:

O'zing-ku, bu ko'yga mutbalo etgan

Nechun azoblarga giriftor etding?..

Qay yon savob, qay yon gunoh, bilmadim

Muhabbat maydonida o'yinchoq etding...

O'yinchoq'im o'yinchoq,

Ne qilayin menga boq!..

Mumkin. - Mumkin emas.
Mumkin. - Mumkin emas.

Bu ikki sarhad orasida yashash, bu ikki sarhad orasida maqul yo'l topib yashash naqadar uqubat! Yo'lning вЂњMumkinвЂќ degan tomoniga o'tsang, вЂњMumkin emasвЂќ degan sado keladi, вЂњMumkin emasвЂќ deb nomlangan yo'lkasiga o'tsang, вЂњMumkinвЂќ degan sas chalinadi qulooqqa. Boshingni qayonga urishni bilmaysan, qalb va ehtirosga bo'yusunasan, jasorat va matonat qo'lingdan tutadi - axir Sen odamsan! Insongsan! Bu ulug' martabaga sodiqlik xiyonat emas, bundayin betakror martaba har bandaga ham nasib etavermaydi, bu ilohiy mo'jizani asrab-avaylamoq kerak! Shart!

Biroq, mumkin emas...

Bir haqiqatga aminman, jonim: shu yashab o'tgan UMRIMIZ mobaynida menga qanchalik ranj-alam yetkazgan bo'lsang, bari вЂњMumkin emasвЂќning oqibati. Nechog'li quvonch, baxtli onlar hadya etgan bo'lsang bari-barchasi вЂњMumkiinвЂќning quvonchi, saodati!..

Tushunaman, tushunishga harakat qilaman, asalim!..

Senda emas alamim... Tavba!!!

Mumkin - joziba, ehtiros, sururli entikishlarga esh xavotir, tahlika...

Mumkin emas - bexavotirlik, xotirjamlik, sokinlikka esh hissizlik, g'ariblik, befayzlik...

Qaydasan, jasorat? Qaydasan, shiddat?!

- Mumkinmi? Yo'qmi?

- ...

- Ayt, mumkinmi, yo'qmi?

- Bilmadim...

- Aniq ayt, aytqaqsang-chi!..

- Yo'q, aniq javob yo'q, aytolmayman... O'zingiz aytgandingiz -ku, ikki karra ikki...

- Yaxshi, esingda ekan. Ikki karra ikki to'rt deya qatiy xulosa chiqarishning o'zi razolat! Bosqinchilik! Yovuzlik! Fashi...

- Bo'ldi, bo'ldi!.. Indamasa, juda oshirib yuborasiz-da, ikki karra ikki qayerdayu, razolat, fashizm qayerda?!

- Shundaymi? Sen ham shunday deb o'ylaysanmi? Shundaymi?!

- ...

- U holda ayt, ayt ikki karra ikki necha bo'lishini? To'rt, deb qutilmoqchimisan? Shu ham javobmi? вЂњTo'rtвЂќ deysanu, hayotning butun jumboqlariga javob topdim deb o'zingni, meni, jumla-jahonni aldaysanmi?!

- Xo'p-xo'p. Siz haqsiz, biz qaydan bilamiz, biz ham xom sut emgan bandalarmiz-da, axir. Shunday emasmi? Ikki karra ikkinining javobi qancha ekani ham yaratganning o'ziga ayon. Uning o'zi istagan ko'yiga solib o'ynatayotgan ekan, aytdim-ku, biz o'yinchoq bandalar qaydan topamiz aniq-konkret javobni? Konkret javob gunoh, konkret javob gunohi azim!.. Shundan qo'rquamiz, qaytar dunyo deymiz, oqibatini o'ylab yuragimiz uvishadi. Chunki bandamiz.

Ojiz banda ekanligimiz sababli ham qo'rquyapmiz, ko'ngillarimiz maylining tozaligini, beg'uborligini to'g'ri baholay olmayapmiz, qadrlay olmayapmiz.

- Ayt, jonim, shunchalar mushkulmi bir qadam qo'yish?

- Hamma gap ana shu bir qadamda-da! Biz qo'yidik-ku, shu qadamni, maktublarimizning har biri o'zicha bir qadam. Shunday emasmi?

- U holda nima uchun yetisholmaymiz, diydorimizga to'ylmaymiz?

- Unday demang, axir o'zingiz aytgan edingiz - biz bir birimizning ichimizdamiz. Siz mening, men Sizning ichingizda turib maktublar yo'llaganimiz-yo'llagan. Qiziqligini qarang! Birov eshitsa ichagi uzilguday kulta kerak?!

Tuban hirs qurbanlari va qullari qo'rqsinlar gunohlardan! Muhabbatsiz yostiq bulg'ayotganlar qo'rqsinlar! Qalbini zang va mog'or bosganlar ko'proq o'ylasinlar qaytar dunyon!..

Sen bilan mening oramizda bokira, go'zal va toza hislardan o'zga nima bor axir?..

Allohning tabarruk nomi bilan ko'ngildagini izhor qilar ekanman, zinhor Unga shak keltirganim yo'q deb o'layman, zero, Senga atalgan tuyg'ularimning bari ilohiy, osmoniy muhabbat izhorlaridir...

Birovlar eshitsa kuladi debsan. O'zimning ahvolimga o'zim kulganim-kulgan. Haqiqatan ham o'zimiz topdik-ku, bu olamjahon tashvishni!.. Hech kim bizni unga ro'para qilmadi, mutbalo etmadni. Tashvishning sevinchlari ham, azob-uqubatlari ham o'zimizni! Qo'yan вЂњqadambвЂќlarimiz ham o'zimizni, ularni endi ortga qaytarishga ojizmiz.

Hech bir jon yashab o'tgan umrini ortga qaytarolmaydi. Kechagi kun - kecha, bugungi kun - ertaga afsona. Va har banda borki, o'tgan kunlarini o'ylab, armon va orzular, sog'inch va yupanchlar qanotida suzadi. Hayotning mazmunlarga to'laligini har kim o'z tarozisi bilan o'lchaydi. Tasavvur qilgin, bordiyu, umrimiz varaqlarida ikkovimizni qovushtirgan ushbu TARIXIMIZ bo'lmasa?! Naqadar ayanchli, naqadar g'arib, naqadar zerikarli! Axir, o'ylay desang, o'ylaguday, sevinay desang sevinguday, olamga jar solay desang arzigiday, ko'z-ko'z qilay desang maqtanguday tuyg'ularimiz, ehtiroslarimiz, sog'inchlarimiz, iztiroblarimiz, arazlarimiz bor! Erkaliklarimiz bor!..

вЂњYashadingmi? Yashadikmi?

Bu savolga javobimiz bir:

вЂњHa, yashadik! Biz yashadik!

вЂњYaxshiyam, Sen borsan!..

вЂњYo'q, yaxshiyam, Siz borsiz!..

вЂњSen borliging uchun men borman!..

вЂњYo'q, Siz...
вЂњJim. Bir marta xo'p deya qol, jonim!..

вЂњXo'p... xo'p...

Fet:

Bunchalar aniq, bunchalar dilbar tasvir! Bir asr muqaddam yashab o'tgan shoir qayerdan bilgan Sening ko'ksingda tonglar nafas olishini, tonglar ko'ksingdan rang olishini?! Naq mo'jizaning o'zginasi emassi bu, yagonam?! Bu tarif menin dilim to'ridagi arzandan-azanda tuyg'u, shoir Fet esa o'sha tuyg'u ummonidan olgan rang timsolida sheriy surat chizgan, xolos... Uch-to'rt kun sabr bilan barcha sog'inch iztiroblaridan xalos bo'lish imkoni bo'lganida...

... bahorning birinchi kunini shunchalik intiqlik bilan, to'ng'ich farzandi tug'ilishini intiq kutayotgan bo'lg'usi onaning ahvolida yurarmidim, og'ayni?!

Avval, v'Tib Hozircha uchrashmay turaylikb'Tib. Xo'p, roziman. So'ng... v'Tib hozircha uchrashmasak ko'nikib ketasizb'Tib... Qanday damlarda aytilyapti bu so'zlar?

Bahor ayyomining ilk kunida! Mo'jizalar, muhabbatlar, ehtiroslar, jozibalar qaynab-toshadigan, muhabbatli qalblar bir-birlariga boor erkaliklarini beminnat hadya etadigan fasli ayyomda-ya?!

Asqad Muxtor, v'Tib Eng yomoni b'Tib bahorda o'lishb'Tib deb yozgan edi. Sirli-sehrli shabadalar faslida (tag'in birinchi kunida-ya!) visolga barham berish, diydorga to'g'anoq bo'lish esa - bosqinchilik, qotillikning o'zginasi!.. Johillik!

Ha, bahorning ilk damlarda aytigelan bu singari so'zlar Sen va meni bir necha yillardan beri ko'klarga ko'tarib kelayotgan, hayotimizning, umrimizning mazmun-mohiyatiga aylangan dildagi eeng inj a tuyg'ularga suiqasd!.. Muhabbat ko'chasidagi qotillik!..

Men bahorning birinchi kunini intizor kutgan edim, Sen esa...

- Xayolparastsiz!..

Juda to'g'ri, xayolparastman, men xayol odamiman. Xayol men uchun real voqelikdan ko'ra realroq! Men uchun reallik mana shu xayollarim! Men shu xayollarimga sig'inaman, unga topinaman. Chunki bu xayolning ichida Sen borsan!.. Sen bo'limgan, Seni uchratolmaydigan reallikdan ko'ra, o'sha xayolot ming chandon afzal!.. Men tark etolmaydigan, xayollarim ipidan to'qilgan oltin saroy bu!..

Bugungi ayyom bilan tabriklayman. Siz yaxshi ko'rib qolgan, qalbimdag'i eng toza, eng shirin, eng ezgu tilaklarim faqat Sizniki. Sizni butun umr sog'inib, izlab, chorlab, ko'rgisi kelib, yana sog'inib (yonimda bo'lsangiz-da!) yashayotgan bir inson borligini unutmang, xo'p?

Sizga ozginagina hafachilik, qiyinchilik u yoqda tursin, hatto chang-g'uborni ham ravo ko'rmayman.

Oramizdag'i yaxshi yaqinlik nazarimda butun vujudimni yuvib, poklayotgandek...

Sizni umrim bo'yil sog'lom, xush kayfiyatda, yanada yuksak hurmat-etiborda ko'rib bir paytlar ko'rgan v'Tib tushlarb'Tibimni (Siz bilan oramizda qanday munosabatlar yuz bergen bo'lsa, ularning bari men uchun tushga o'xshaydi) eslab mag'rurlanib yuray...

Sizni hamma yaxshi ko'radi, mayli, ularning soni faqat ko'paysin. Ammo siz yolg'iz meni, xo'p?

Doimo v'Tib hamma ishim joyida, sog'-salomatman, tinchman, kayfiyatim alo, faqat ozginagina seni sog'indim, xolosb'Tib degan mehrli so'zingizni eshitish nasib etsin menga.

Sizga esa har bir qadamingizda uchravotgan shodlik, omad, baxt, yaxshilik, mehrdan hayratlanib, entikib yashash nasib etsin. Yana bir karra erka va arzanda bahor ayyomi muborak bo'lsin. Illohim, hamisha sog'-salomat bo'ling, chehrangizdan tabassum arimasin! Oramizdag'i samimiyr mehr-oqibat, sadoqat umrboqiy bo'lsin. Yomon ko'zlardan asrasin! Borliq tabiat bahor faslini kutgandek, bahorga mushtoq bo'lgani kabi bir-birimizga ilhaq bo'lib yashaylik!.. Intizorlik tark etmasin bizni!..

Beg'ubor muhabbatimiz olamining Malikasi bo'l mish do'stim, azizam, qadronimni bahor ayyomi bilan qutlayman! v'Tib Sizni hamab'Tib dedingmi?.. Men uchun Seni ko'rgan damlarim BAHOR!..

v'Tib... Ti' moya svyazCH s nebom b'Tib... yo'q, bu dilbar izhorni Gersen suyukli rafiqasi NatalCHyaga yo'llamagan, men, men Seni shunday tariflayapman, jonim!..

Ko'ngilga mo'jizalarga boy tuyg'ularni baxsh etguvchi bahorning ilk kunlari v'Tib Gersenb'Tib qadrdonimga niyat qildim: bir-birimizni ko'rganda, ko'zimiz-ko'zimizga tushganda ko'nglimiz bahordek yashnashi doimiy bo'lsin, bu go'zal va ajib holat, kayfiyat bizni hech qachon tark etmasin!..

Ko'ngildan kechgan, kechayotgan va kechadigan barcha-barcha siru asrorni ovozimni boricha qo'yib olamga jar solgim keladi bazan. Shunda yengil tortsam kerak degan xayol kechadi, biroq yengil tortarman ham, keyin-chi, keyin nima bo'ladi? Menga insoniylik qiyofasini bag'ishlab turgan botiniy sir-asror - quvvat nima bo'ladi? Bor kuch-quvvatdan judo bo'lmaymanmi?..

Yaxshisi...

Kimning dilida bir g'ami pinhon bo'lmas,
U misli tirik murdadir, inson bo'lmas.
Bor, dard so'ra, bedardlik illatdir,
Bir dardki, unga sira darmon bo'lmas...
Darmon yo'q, Birodari aziz, darmon...
Bir dardki, bedarmon...
Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,
Eng yorug' yulduzdan Seni so'raymen.
Ul yulduz uyalib, boshini bukub,
Aytadir: men Uni tushda ko'ramen.
Tushimda ko'ramen v'Tib shunchalar go'zal,
Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zal!

- Ajoyib sher, menga ham yoqadi.

Ko'zimni olaman oy chiqqan yoqqa,
Boshlayman oydan-da Seni so'rmoqqa.
Ul-da aytadir: bir qizil yanoqqa

Uchradim tushimda, ko'milgan oqqa (!).
Oqqa ko'milganda shunchalar go'zal,
Mendan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!

БТ”Ой эмас, Сиз - го'зал!.. Яна эшитгин:

Ерта тонг шамоли сочларин юйиб,
Yонимдан о'tгандага со'раб ко'рамен.
Aytadir: bir ko'rib, yo'limdan ozib,
Tog' va toshlar ichra istab yuramen!
Bir ko'rdim men Uni БТ“ shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal.

- To'g'rimi? Topdimmi?
- Bilmadim...
- Bilmasangiz, mana, yana qulq soling:

Ул кетгач, кун чиқар юруг'лик сочиги,
Undan-da so'raymen Sening to'g'ringda.
Ul-da o'z o'tidan bekinib, qochib
Aytadir: bir ko'rdim, tushdamas, o'ngda.
Men o'ngda ko'rganda shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!

- Bo'ldi, o'qimay qo'ya qoling. Shoirning xayoli, bu!.. Sizu bizga daxli yo'q.

Men yo'qsil (!!) na bo'lib Uni suyibmen,
Uning-chun yonibmen, yonib-kuyibmen,
Boshimni zo'-o'-o'r ishga berib qo'yibmen,
Men suyib... men suyiib... kimni suybimeen?..

- Ovozingizni boricha qo'yib aytin. Aytaqoling!
- Aytaman ham. Mana, eshit:

Men suygan Suyukli shuuuunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zalll!!!

Sherni o'qib tugatdimu, beixtiyor o'ng yanog'ingdagi xolingni o'pib olganimni sezmay qoldim. Bu holat shu qadar zumda sodir bo'ldiki, hatto Sen ham uni payqab ulgurmading. Yoki men shu qadar chin dildan o'qigan sherni... ha-ya, uni kim yozgan deding?! Shoirning xayoli dedingmi?.. Qaysi shoirni nazarda tutyapsan? Men-ku, uning muallifi, ishon, Cho'lpon - men, men БТ“ Cho'lpon, men tariflagan go'zal esa - sen, sen, sen!!!

Muhabbat, nazarimda, insонning eng avvalo o'ziga, ko'ngliga, tuyg'ulariga qulq solishdir.

Sizgina kayfiyatimni so'raysiz, faqat Siznigina qiziqtiradi mening tashvishlarim, xonamning, uyimning issiqsovug'idan tortib men bilan bog'liq barcha ikir-chikirlargacha... Va beixtiyor Sizga javob berish asnosida men o'zimga, kayfiyatimga ahamiyat bera boshlayman.

Juda qiziq-a?

Hayotingda bu oniy lahzalar bo'lmasa-chi? Yashasa bo'lar ekan. Faqat o'zing, ko'ngling, tuyg'ularing ustidan chiziq tortib... Men ozgina yashab ko'rdim. Va juda qiyaldim...

Esingizdami, БТ“Sen bilan xayolan saatlab gaplashaman БТ“ derdingiz. Men ham Siz bilan yolg'iz qoldim deguncha suhbatlashadigan odat chiqardim. Bazan bu holatdan o'zim ham hayratlanaman. Siz bilan xayolan suhbat qurmasam, eslamay qo'ysam Sizni yo'qotib qo'ygandek bo'laman. Yo'qotib qo'ydim va dovdirab, esankirab qoldim. Axir o'zim emasmidim, shunday bo'lishi kerakligini uqtirgan, doim shunga harakat qilgan?!

Endi esa Sizsiz juda g'arib edim men, juda yolg'iz edim men.

Azizim,
Ne uchun maysa emasmiz?
Yellar esganida suykalib o'tgan.
Ne uchun, ne uchun
Daraxt bo'lmadik,
Ildizi, shoxlari chirmashib ketgan?

Bu sherni men Sizga bir kunda ming martalab o'qib beraman. Eshitiladimi, Sizga?.. Eshitasiz-a?..
Ha, men Sizsiz yashab ko'rdim, juda qiyalib, ezilib, shunga majburligimni o'zimga ukdirib...

O'sha kunlari men munosabatlarimiz haqida ko'p o'yladim va ko'nglingizga faqat va faqat ozor yetkazganimdan siqilib ketdim.

Lekin mendan ranjishingiz, qattiq hafa bo'lishingiz mumkinnikan?

Men yelkamdan tog'dek ezib turgan burchimni unutmadi. Unutolmayman ham ekan.

Sizga bo'lgan mehrim, muhabbatim esa bazan (ko'pincha) hamma-hammasidan ustun chiqadi, buni Siz bilasiz deb o'layman.

Men Sizning cheksiz etiboringizga, ehtirosli muhabbatizingizga, adoqsiz mehringizga loyiq bo'lomadim.

Yolg'izlik haqida yozganlaringizni o'qiganda hayron bo'laman, nima sababdan Siz o'zingizni bunchalar yolg'iz his qilasiz deb o'ylaganim-o'ylagan. Va loaql shunday damlarda yoningizda bo'lgim, Sizni yolg'izlik azoblaridan xalos etgim keladi, biroq... Axir yolg'iz qolgan taqdiringizda ham joningizga oro kira olmasligim, biror og'iringizni yengillashtira olmasligim aniq-ku? Achchiq haqiqat-ku, bu!.. Hayotingizdag'i eng unutilmas va quvonchli kunlarda yoningizda bo'lib Sizning baxтиyor shodumonliklaringizga sherik bo'lgim keladi, quvonchlaringizni Siz bilan birga baham ko'rgim keladi, va yana biroq, deyishdan o'zga ilojim yo'qligini qanday izohlaymiz? Bemalol borib tabriklay olmasam, boshqa yaqinlaringiz qatori ko'nglimdagi izhorlarimni emin-erkin to'kib sololmasam?..

Achchiq haqiqat bo'lsa-da, tan olishimiz kerak, biz juda-juda yaqinmiz va bir-birimizdan juda-juda olisdamiz ham...

To'g'rimi? Siz hayotimdag'i eng yorug' kunsiz, eng yorug' nursiz!

Bergan azoblarim, ozorlarim, uchrasholmagan kunlarim, aytolmagan iqrarlarim - hamma-hammasi uchun meni kechiring.

Ko'nglingizni og'ritishni hech qachon istamayman va doim Sizni hafa qilib qo'yaman.

Mayli, ko'risholmasak-da, men uchun sog' bo'lsangiz, ko'nglingizda xotirjamlik bo'lsa, musavvirlik ijodxonasida toliqmasangiz, yaxshi kayfiyatda yoursangiz bo'ldi.

Sizga dunyoda mavjud bo'lgan hamma-hamma yaxshiliklarni, ezguliklarni, menga atalganini ham taqdim etaman, tilab qolaman.

ВЂњBizni nima bog'lar? ВЂќ so'rama mendan.

Bilmayman, nimani izlayman sendan.

Bilganim, bu - bir sir.

Bilganim, chindan

Seni sog'inaman...

Seni... sevaman...

Nima sababdan nomalar bu qadar hasratli, tushkun va iztiroblarga to'la deysan. Javobi aniq: yo'limizning nihoyasida chiroq yo'q, shula ko'rinxaydi. Piravord oqibatning... Tushimda mana shu yozganlarimni tugatibmanu (ehtiroslarni tugatib bo'larmishmi?!), Sening huzuringga oshiqib-hovliqib yetib boribman. Tezroq, olib borgan zahotim qo'limdan olar-olmas o'qishga kirishib ketasan, dam ovozingni chiqarib, dam ichingda, dam kulib, dam o'nga tolib, dam ko'zlarining namlarini artib, bosh ko'tarmay o'qishga kirishasan deb o'yabman. Qo'lingga qalam olib, dil nomalarimizni to'ldirib, boyitib, yanada jozibaliroq qilib yuborasan deb kutibman. Va olib borsam, Sen, bilasanmi, nima deding? Yo'q, o'qimayman, o'qishim shart emas, deb teskari qarading!.. Nima bo'ldi? Qanday ofat yuz berdi?! Kurrai zamin aylanish o'qidan chiqib ketmadimikin?.. Axir men... Axir men necha yil, necha oy va necha kunlardan buyon ana shu daqiqani, ana shu lahzalarni kutib, umidlarimni bog'lab, insoniyat hayotida favqulodda voqeа sodir bo'lishiga umidvor bir telba ko'yida yozdim-ku?! Menden xafa bo'lmanni, oqibati shunday bo'lishi kerakligini necha qayta aytganmiz-ku, deding. Tushunasiz deding. Men he-ech narsani tushunolmayotgan edim o'sha topda. Gung edim, soqov edim, bexush edim!.. Nahotki, dedim ichimda, nahotki, oqibati oqibatsizlik bo'lsa, deya takrorlayverdim. Nahotki o'sha o'zimiz tan olgan oqibatni betimga solish uchun shu kun, shu lahzalar tanlangan bo'lsa?!

Menda gap qolmadi, so'z qolmadi, qaray desam ko'zimda nur qolmadi... Tushga nimalar kirmaydi, deb tasalliz laydilar, biroq hatto tush tangrisi ham bunday zulmni bandasiga ravo ko'rmasa kerak?! Xullas, piravord oqibatning bari ko'ngillar roziga zid, zid, zid... Bu ahvolda tushkun bo'lmay na ilo?.. Biroq, Sening ikki enlik maktubing kun bo'yi tund va xuhton kayfiyatni bir lahzada charog'on qilib yuborish qudratiga egaligini hech nima bilan o'lchab bo'lmaydi. Buning savobi, yani mazlum ko'ngilga bir lahzalik quvonch bag'ishlashi!.. Yaxshiyam borsan! Yana yuz yil bor bo'lgan, quvonchim!..

ВЂњHijronim... ВЂќ mahallamizga tushgan bir kelinchak haqida yozgandim. Esingizda-a?.. Nogahon o'shani uchratib qoldim. Negadir ko'zimga anchayin mahzun ko'rindi. Adashmagan ekanman, surishtirgan edim, hasrat xaltasi ochilib ketdi.

ВЂњ Kasal bo'lib qolganda inson eng avvalo gunohlari haqida o'ylarkan, - deb hasrat qila ketdi u. - Men sodir etgan birdan-bir (nazarimda) katta gunoh muhabbatim edi... Buning aybini men hech kimga ag'darolmayman, chunki bu bedavo dardga birinch bo'lib men o'zim mutbalbo'lganman. Xullas, o'shanda, agar yaqinlarim, farzandlarim baxtidan bo'lib tuzalib ketsam, bu gunohimni hech qachon takrorlamayman, doimo toat-ibodatda o'taman deb allohga so'z berdim. Ahdimming ustidan qanchalik chiqqanym faqat allohga va o'zimga ayon... Yaqinlarim uchun yashashim kerak, yaqinlarim mening aziyat chekishimni ko'rmasligi kerak, deb xuddan so'radim. Kasalxonaga borganimda ВЂњbunday operatsiyadan keyin to'rt yilgina sog'lom yashadim ВЂќ degan gaplarni eshitib yig'lab yubordim.

To'rt yil muddat zimmadagi eng muqaddas vazifalarimni, burchimni ado etishga yetarmikan, deb hisob-kitob qilaverdim, qilaverdim. Hisob-kitobimning adog'i ko'rinxmas, bordiyu, mo'ljalim, taxminlarim xato chiqsa yordam so'rashim mumkin bo'lgan yakkayu yagona insonni topgandek bo'lardim va shundan ichimda yilt etib chiroq yongandek bo'lardi...

Odam ertaga, hatto bir lahzadan keyin nima bo'lishini bilmaydi-ku, menga esa to'rt yil juda-juda oz muddat bo'lib tuyulardi.

Hech kim avvaldan kasali davosiz ekanini bilmasligi kerak ekan. Chunki inson hamma narsaga befarq, orzu-umidsiz, maqsadsiz bo'lib qolarkan. Yashayapsanu, ammo ko'ngil bo'm-bo'sh, hech narsa seni qiziqtirmaydi. Bunaqa paytda har qanday taskin-tasallli bemanli ko'rindi ko'zingga. Bularning barchasini o'zim boshimdan o'tkazganim uchun ham shunchalik dadil aytayapman, uni hech kimga aytmagandim, sizga ko'nglimni ochdim...

Avvaliga ayolning hasratlari zamiridagi manoni ravshanroq tushunmagandek edim, buni payqadi-da, so'ng birdan dam kulib-dam ko'z yoshlarini artib yanayam ochilib-sochildi:

- O'zim ming xayolda operatsiyaga kirib ketayapmanu, xayolim qurg'ur ko'nglimni ishg'ol etgan o'sha insonda! Dam o'g'il-qizlarimni o'ylayman, dam o'sha odam izimdan kirib kelayotgandek orqaga o'girilib qaraganim-qaragan! Menga faqat o'sha inson dalda berishga qodirdek!.. O'zimni koyiyman, chalg'itaman, ko'zim o'lgor esa derazada... O'zi, bilmadim, qayerda, lekin qaynoq mehri yuragimning allaqayerlariga o't qalab isitib turgandek, qo'rquvlarim arib, operatsiyaga kirdim...

Mana, muhabbatning qudrati, sehri, o'yinlari...

- Shununcha hikoyani eshitib olib, nima maslahat berdingiz U ayolga?

Вї“ Hech narsa... Kulib qo'ya qoldim. Havasim keldi, o'ylanib ham qoldim... O'zingiz aytgandek, ikki karra ikkining javobi...

Bizning diydorimiz вї“ eng buyuk ato,
Bizning diydorimiz вї“ ilohiy taqdir...
Axir ikkimizga zor edi dunyo
Sevgi nimaligin bilmoglik uchun!

Xat вї“ bu, suhbat. Suhbatga chorlov, dilkash, sirdosh suhbat istagi, iltijosi. To'g'ri tushun, bunday xatlar bir kunda yozilmaydi, takror yozilmaydi. Va har qanday sodda va go'l erkak yozmaydi ham. Behis va beyuraklari esa bunday nomalarning ko'chasiga ham yo'lamaydi. Bunday xatlar, ehtimol, hayotda bir marta yozilar?..

Kim bilsin, boshqa yozmasam ham kerak... Axir ko'p gapirasani-ku, вїњBas qilishimiz kerak! вїќ deb. To'g'risi, tilimga ko'chmagan esa-da, mening ko'nglimdan ko'plab martalab o'tgan mulohazalar bular. Ikkovimizga inom etilgan bu ilohiy tuyg'uga qarshi borolmadim, undan o'zimni va Seni bebahra etgim kelmadi... Uvolidan qo'rqedim...

Sevgining uvoli qanday bo'ladi? Sevgining uvoli tutgan odam qay ahvolga tushadi?.. Ke, shu haqda bir o'ylab ko'raylik. Ilohiy muhabbat uvoli tutgan ko'ngil nimadan tasalli topadi? Kim yoki nima beradi, u tasallini?.. Va shu arosatda umr kechirishni yashash deb atash mumkin bo'ladi?..

Senu mening boshimizni tosh qotirgan bu kabi sarkash savollar javobini kim o'laydi? Kim bular haqida qayg'uradi?

Bizning muhabbatimiz - Senu mendan bunyod bo'lgan farzand. Osonlik bilan topdikmi uni, ozmuncha iztiroblar chekdikmi?.. U o'z-o'zidan voyaga yetib qoldimi? Va endi osongina, va eng bo'limg'ur va arzon sabablarni ro'kach qilib voz kechib ketaveramizmi? Farzandi arjumandini yetimxonaga tashlab ketayotgan bemehr ota yo ona yanglig'...

Yaratgan egamizning marhamati ila yana tong otdi, biz bandalariga yana bir kunduz nematini inom etdi. Yaxshi yotib turdingmi? Nima, ish yumushlarin shunchalar ko'pmi? Odatdagidek shoshilyapsanmi? Vaqtin ziqli?.. Oshiqma, shoshilib borgan joyingga shoshilmay ham yetasan. Shoshilib bitirgan ishingni shoshmay turib ham bitira olasan yoxud shoshganda bitmagan ish shoshmagan taqdiringda ham bitmasligi mumkin. Omon og'am yozgan-ku: fursating yetmaydi doim, hech qachon yetgan emas!.. Hayotning qalampirmunchoq taqilgan haqiqati bu. Mudom shoshilib, mudom behalovot odam xotirjam sevishi-sevilishi mumkinmi?.. Shoshqinch va behalovot dunyoning sevigisi shunday bo'ladi? yoki?.. Tushunmayman... Yo'q, loaqlal sevgi-muhabbat tuyg'ulari bu telba zamon shiddatining qurbaniga aylamasligi kerak.

Umrmning o'lchami xudoning izmida. Turmush savdolari, ro'zg'or tashvishlari tubsiz o'pqondek tortib ketaveradi odamni, ayniqsa Sendagi yaqinlaringga o'zingni unutar darajadagi kuyunchaklik nechog'li tafsinga sazovor bo'lmasin, jonio, o'z joning va qadrin - o'z halovoting haqida ham vaqt-vaqt bilan qayg'urib turgin. Men so'nggi nafasimga qadar Allohdan Senga sog'liq tilayman, yolboraman. Sening isming yoniga hech bir xastalik nomi qo'shib aytlishi mumkin emas. Ishon, menga, yolg'izim! O'zingni o'ylamasang, meni o'yla, men uchun, muhabbatimizning boqiyligi uchun ham sog'-salomat bo'lishing kerak, yagonam!.. Axir mening muhabbatim - o'zimning vujudimga, qalbimga sig'may, to'lib-toshgan ehtirosu hayajonlarning eng dilkash, jondil do'stimda, yani Senda davom etishi deganidir, mening ichimga sig'magan eng bokira, eng masrur tuyg'ularimning Sengagina ishonganimdir, Sendan halovot topganimdir!

Sen men uchun qanchalar aziz va mukarram ekanligingni tushuntira olyapmanmi, asalim?..

Inson biron lahma o'z ko'ngli, o'z qalbiga qulqo tutishi, xayoliy quvonch va sevinchlari to'lqinida suzib yurishi ham kerak-ku!.. Shu taqdirdagina inson... Aytolmayapman, yozolmayapman... Balki shartta ko'zni yumamiz, ko'ngil mayllarini unutamiz-da, juda-juda ko'pchilik jonivor-bandalar qatori вїњrisoladagidekвїќ yashab ham o'tarmiz. Sen ham osuda, baxavotir yashaysan shunda, mening arz-dodlarim Seni ortiq notinch qilmaydi, chalg'itmaydi, boshingni qotirmaydi...

Xo'p degin, jonio. Ko'nglingga maqul go'zal manzaraga termilib, bir lahma tin ol. Hamma narsani, butun borliqni unut (menden boshqasini albatta!). Turmush tashvishlarini xayolingdan soqit qil. O'zingning naqadar mo'jizakor, latofatl, sehrlarg'a boy, oppoq, beg'ubor, go'zal, aqli, farosatli, jozibador... SUYuKLI, qadrdon inson ekanligingni his qilgin, etirof etg'in! Jon, do'stim, yupanchim, jozibam, xo'p degin. ВїњXo'p bo'ladi! Вїќ emas, вїњXo'p bo'ladi, akajonim! Вїќ deb aytqaol.

Aytingmi? Deding-a? Ozorim, azobim, o'jarim, iztirobim... sog'inchim!..

Pї P'P°Cї P»CЋP±P»CЋ, C...PsC, СЊ СЦ P±PµC€CїCїСЊ,
PїPsC, СЊ СЌC, Ps C, СЋCїPr Pë СїC, CїPr PSP°PiCЋP°CїPSC<PNø,
P PI СЌC, PsPNø PiP»CїPiPsCїC, Pë PSPµCїCїP°CїC, PSPsPNø
PJ P'P°C€PëC... PSPsPi СЦ PiCЋPëP·PSP°CЋCїСЊ!
РњPSPµ PSPµ Pe P»PëCїCї Pë PSPµ PiPs P»PµC, P°Pj...
PµPsCЋP°, PiPsCЋP° РњPќP• P±C<С, СЊ CїPjPSPµPNø!
PќPs CfP·PSP°CЋ PiPs PICїPµPj PiCЋPëPjPµC, P°Pj
P'PsP»PµP·PSCH P»CЋP±PIPë PI PrCїC€Pµ PjPsPµPNø:
P'PµP· P'P°Cї PjPSPµ CїPeCfCїPSPs, вї“ СЦ P·PµPIP°CЋ;
PїCЋPë P'P°Cї PjPSPµ PiCЋCїCїC, PSPs, вї“ СЦ C, PµCЋPiP»CЋ;
P, PjPsCїPë PSPµC,, CїPeP°P·P°C, СЊ, P¶PµP»P°CЋ;
РњPsPNø P°PSPiPµP», PeP°Pe СЦ P'PjPЎ P»CЋP±P»CЋ!

Xo'-o'p, aka, jonio... Xat yozishniyam qotirib yuborasiz-da! Sizning ehtiroslaringiz oldida Pushkinning misralari ham g'arib ko'rinyapti. Ha, endi boshqacha yozish ham mumkin emas-da, menga, to'g'rimi? Qalay, kim ekanligimni Siz istaganday his qila boshlayapmanmi? Har bir insonning o'ziga xos, hech kimga o'xshamaydigan go'zal jihatlari bor. Faqat uni ko'ra olish, qadrlay bilish kerak. Siz meni o'zim ham tanimaydigan darajada kashf etib yubordingiz. Buyam bir baxt. Yaxshiyam Siz borsiz!.. Do'stim! Jonim! Tirik jon borki, dunyodan nimadir olib yashaydi. Tiriklikning hikmati shunday. Banda ham layoqati, omadi,

mehnatiga, istedodiga yarasha dunyoda nimadir orttiradi. Men ham, ehhee, ozmuncha boylik orttirdimmi?! Sanab odog'iغا yetolmayman. Biri biridan noyob, biri biridan totli, biri biridan arzanda. Yetkazganiga beedad shukr, hech kimdan tama kutmadim, Alloh beraridan qismadi. Yana ming bora shukr. Biroq topganlarimning barcha-barchasi torozining bir pallasiga qo'yilsayu, ikkinchi pallasida mening nomalarimda sochilib yotgan (to'g'rirog'i, bayon etishga harakat qilingan) Quvonchim, Iztirobim, Yagonam, Oppog'im, Asalim, Armonim, Gavharim, Rohatim, Halovatim, Noyobim, Nodirim... barcha tariflarga til ojiz, shular qo'yilsa, posangi qay tomon og'adi?

Bu savolga men bo'lib, mening tilim, mening dilim bo'lib javob ber, o'tinch!..

O'zimni tergashga tushaman: shuuncha gaplarni, armonu hasratlarni yo'llashdan murod nima? Sening bu kitobiy iztiroblaringga kimning ko'zi uchib turibdi? Oh-vohlar o'quvchisini topadimi-yo'qmi, hali?

Topadi, o'quvchim aniq, ko'zim ochiq ekan u ko'z o'ngimda, aqlim ishlayotgan ekan aqlimning ichida, yuragim tepib turgan ekan yuragimning to'rida, tomirlarimda qon aylanib turgan ekan qonimning jilg'alarida, bir so'z bilan aytganda U - ichimdag'i Odam! U ichimni zabit etgan, ishg'ol etgan. Ichim U bilan limmo-lim!.. Ichimning egasi ham U. Taqdirim chiziqlarini o'zi istagan, ko'ngli tusagan tomon tortib borayotgan ham U.

Axir taqdir yaratganning izmida emasmi?

Yaratgan egam meni U orqali o'z izmiga olgan. Alloh taolonning o'zi Uni mening ichimga joylab qo'ydi, men Uni ichimdan haydab chiqarishning uddasidan chiqolmadim, qurbim yetmadi. Men - ichi ishg'ol etilgan odam. Ixtiyor tamom Uning inon-ixtiyoriga ko'chgan odam.

Bunday fikrlash gunoh emasmi, axir...

Qo'ygin, meni qiynamagin, o'tinaman, ichi istilo etilgan, o'zi bandi olingen odamning yelkasiga gunoh yukini ortmay qo'ya qol, ortiq qiynama, unga ortiq azob bermash...

- Axir, shu ahvolda o'zingiz azoblarga qolib ketyapsiz-ku?

- Azoblarimga til tekkizma, shu azoblar - menin rohatlarim, halovatlarim... Unga til tekkizma, chunki ular men uchun muqaddasdan-muqaddas ichimdag'i Odamga daxldor...

Bilasanmi, jonom, xatlarimda bayon etilgan dil izhorlarini bir boshdan, ketma-ket o'qish shart emas, chunki ular judaa katta qismat, taqdir roman sochmalari. Lavhalari. Manzaralari. Peyzajlari. Sahnalari. Etyudlari. Parchalari. Rezgilari. Boblari. Fasslari.

Qismilar... Yana nima deb tariflay, o'zing aytta qol, shakarim? Kayfiyattingga qarab, bitta-bittalab o'qib ko'rigin, ko'rigin-u mulohaza qilgin, O'quvchim. Mayli, o'zingga xos bo'lgan sovuqqonlik bilan, mayli, menga xos bo'lgan qaynoq ehtiros bilan, mayli, butun dunyon, barcha bordi-keldilarni unutib o'qigin. Bilaman, ular turlicha tasir qiladi, lekin o'tinchim bitta - zinhor beparvo o'qimagine, chunki ularning bari, hatto bitta harfigacha, bitta belgisigacha tasodif emas, bejiz emas. Ularning bari bamisol kardiogramma apparatida suratga tushirilgan yurak zarbalarining o'zginasi!..

Zulmat osmonida chaqnagan chaqmoq izlarini eslatguvchi kardiogramma chiziqlari uzun-qisqa bo'lishi, egri-bugri bo'lishi, uzuq-yuluq bo'lishi mumkin, lekin zinhor-bazinhor yolg'on bo'lmaydi, ular yurakning qoq markazidan o'tgan iztirob chiziqlari, shuning uchun ham ularni beparvo yo ishonchszilik bilan o'qima, asal o'quvchim, xo'pmi?..

Yana shuni unutmaginki, bu uzuq-yuluq, kalta-kulta chiziqlarni pishiq-puxta qilib ulansa, bilasanmi, qayerga olib boradi?

Bilasanmi? Bilasanmi, qaysi yurak chiziqlariga tutashib ketadi? Ayt, bilasanmi shularni, his qilasanmi, munisam?!

Agar Sen bilmasang, nima qilib yozib o'tiribman, bu hasratlarni, oppog'im?!

Aytgandim-ku, shoirlar o'g'ri, aks holda iztirobga to'la ko'nglimni tomosha qilib turgan odamdek quyidagi baytni bitarmidilar?!

Bizni go'dak bilib o'ynadi taqdir,
Ustimidandan kulib o'ynadi taqdir,
Qo'llaring ushslashga qo'yamadi taqdir,
Ikki vujuddagi bitta odammiz.

Axir:

Sensiz manosizman, sensiz kimman, kim?
Yarim oy bulutga berkinadi jim,
Yuragim nimiradir, ey go'zal yarmim,
Ikki vujuddagi bitta odammiz.
Sinov bu, deymiz-da, bu ko'hna savdo,
Dunyoni unutsin, dedimi Xudo,
Qiyomatni kutsin, dedimi Xudo
Ikki vujuddagi bitta odammiz...

Ikki vujudni bir odamga aylantirishga qodir muhabbat - samovotning tuhfasi. Muhabbat - boqiylik umidi...

Maktablaringiz ko'nglingiz kabi beg'ubor, go'zal. Hozirgina rosa chirolyi yomg'ir yog'ib o'tdi. Hamma yoq top-toza, tip-tiniq. Siz bilan suhbatlashsam, maktablaringizni o'qisam ko'nglim ham yomg'irdan keyingi kundek yorishib ketadi. Yaxshiyam Siz borsiz, mendek beoqibat do'stingizga maktub yozib toliqmayotganingiz uchun ham rahmat.

Sizga dunyodagi bor yaxshiliklarni ilinib...

Mehribon do'stim. Tush hayotning davomi, to'g'rimi? Tushda kechgan umrlar deb bejiz aytmagan-ku, adibimiz. Shuning uchun, qolaversa, aksariyat tushlarim Siz bilan bog'liq bo'lgani, Siz bilan faqat tushimdagina erkin, bemalol uchrashish, suhbatlashish mumkin bo'lgani uchun ham men ularni ardoqlayman. Kechaginda... har doimgidek meni yana bir bor hayratda qoldirdingiz.

Qandaydir gavjum zal. To'ymi, tantanami, bilolmadim. Lekin kazo-kazolar yig'ilishgan. Hammaning etibori Sizda. So'z aytdingiz. Negadir hayajonlanib, yuragimni hovuchlab o'tiribman. Men qay xayoldamanu, Siz boshqalarga etibor ham qilmay menga qarab-qarab qo'yasiz!.. Tavba!.. Bir mahal, qay ko'z bilan ko'rayki, Siz men tomon yaqinlashib kelyapsiz, qo'rqib ketdim. Hayron bo'lib

qoldim. Nima qilmoqchisiz?.. Nima deysiz menga o'sha yerda?! Mana, yonimga yetib keldingiz va... shuncha etiborli kishilar ko'z o'ngida men bilan qo'l olishib ko'rishdingiz. Ko'rishmagan taqdiringizda ham men o'sha vaziyatda Sizni juda yaxshi va to'g'ri tushunardim, yonimga kela olishingizni xayolimga ham keltirmagandim va... hayratda qoldim! Qoyilman! Ya v shoke, deydi ruslar bunday damlarda!.. Qo'rqiб ketganidan nima qilayotganimni bilmay qoldim. Yonimdagi dugonamning tizzasida turgan katta guldastani olib Sizga tutqazdim. Siz esa xuddi shunday bo'lishi tabbiydek, gulni oldingiz-da, uni baland ko'tarib hammaga ko'z-ko'z qildingiz!..

Uyg'onib ketdim. Kuniga ming bora ko'nglimdan o'tkazadigan вЂњmumkin emas вЂњklar va yana ming bir mayda tashvishlar bilan kuymalanib yurgan, hech bir tomonidan Sizga munosib bo'limgan ayolga shuuuncha mehr, aql bovar qilmas etibor ko'rsatasiz-a!.. Men tushimda bo'lسا-da, juda baxthi ayolligimni his qildim o'sha topda... Ko'nglimdan kechgan, kechayotgan bor go'zal tuyg'ular sababchisi ham Sizsiz.

Ezozu mehrga to'la maktublaringizga loyiқ ko'rganingiz uchun, hamma-hammasi uchun rahmat, olisdagi eng yaqin Do'stim! Menga bo'lgan munosabatingizning beg'uborligidan hayratlanaman va doimo shunday bo'lib qoladi deb umid qilaman, to'g'rimi? Chunki meni yaxshi ko'rgan Insonning o'zi dunyodagi eeeng pokiza, samimiyy, qalbi judayam go'zal!.. Sizga bir dasta emas, ming- ming, million dasta gul berishga tayyor... Eng yaqindagi eng yaqin do'stingiz.

Qo'ng'iroq qilomaganing uchun uzr so'rabsan, uzuring ko'zimga to'tiyo. Men har kuni, har soat va har daqiqada kutayotgan bo'laman tillo qo'ng'iroqlaringni! Eng dono tasallini topganmiz-ku: har bir ishimiz xohish va imkoniyat uyg'unligining farzandi... Maktubingiz uchun rahmat. Go'zal niyatlarni o'qib Sizdek do'stim borligidan ko'nglim ko'tarildi. Siz ko'nglimga juda yaqin, mehribon, qadrli kishimsiz. Ishoning, hamisha shunday bo'lib qoladi.

Dildo'st! Mabodo Sening nomingga xat bormay qo'ysa bu mening shanimga isnod, nomus! Axir men borman-ku, hayotman-ku, nima uchun Senga (Senga-ya?) xat bormasligi kerak?! Vaholanki, har soat, har daqiqada Senga atalgan mingta, millionta dil izhorlarim qalashib yotadi, ularni qog'ozga tushirib ado qilolmayman, bilasan-ku!.. Bordiyu, xat mutlaqo bormay qo'ysa, demak, men yo'qman!..

Vaholanki, men borman, Sen borsan, do'stligimiz bor!.. Mehr- oqibatimiz bor!

Har hafta gazetalarda chiqadigan munajjimlar bashoratiga ko'z yugurtiraman. Bilaman, Sen unday narsalarga ishonmaysan, lekin xuddi qadrdonimning ahvoldidan xabar topayotgan odamdek jonim xapriqib qarayman. Kechagi safar Seni вЂњO'zini yolg'iz his etayaptib вЂќ deb yozibdi. Ichim o'yilib, o'pirilib tushdi. Sening yolg'izlik iztirobida qoldirish... Mumkin emas, zinhori!!!

Ikki yorti yurak birlashgan joyda yolg'izlik qolmaydi.

Tushunyapsanmi?..

Chindan ham munajjimlarga ishonmaymanu, lekin o'tgan hafta o'zimni judayam yolg'iz his qildim. Hozir hammasi joyida. Xuddi sezgandek yozgan go'zal va nafis maktubingiz uchun rahmat. Ha, Siz aytgandek bazan atrofdagilardan ko'ngil to'lmasligi odamni qiyinab yuboradi. Bir-birimizdan ko'nglimiz to'lishi esa... shu bo'lسا kerak-a bizni hech ayrilishimizga yo'l bermayotgan tuyg'u, to'g'rimi, Qadrdom?..

Odatda odamlarni tug'ilgan kuni bilan tabriklashadi. Biroq sen tabriklayotgan odamni dunyoga keltirgan Insonni nima uchun qutlamasligimiz kerak?!

Onalar yilda bir marta emas, farzandlari nechta bo'lسا, shuncha marta tug'ilgan kunni nishonlashga haqlidirlar.

Har bir onaning to'lg'oq tutgan onlarda vujudidan otilib chiqqan har bir вЂњohвЂќ va вЂњuhвЂќ uchun har bir erkak dunyoga dod solib o'z ayolidan uzr so'rasa arziydi desam ajablanmaslik kerak!.. Zero, ona to'lg'og'i... muhabbatga o'xshab ketadi: muhabbatning quvonchlari, iztiroblari, uqubatlari, uyalish va yana, bilmadim, allanimalariga...

Yangi tug'ilgan chaqaloqning jannati isidek samimiyy va beg'ubor niyatlar bilan!..

Yo, parvardigor, o'zinggagina tavbalar qilamiz!.. O'tinamiz, rahmingdan benasib etma!.. Faqat, do'stim, qanchalar achchiq bo'lmasin, yozishmalarimiz bu qadar ayanchli tugallanmasin. Axir tunganmas muhabbat mo'jizasi ham ilohiy inom edi-ku, biz uchun! Shuning shukronasini ham unutmaylik, mehribonim!

Oradan oylar, xali juda ko'p-ko'p yillar o'tadi, shunday kunlar, lahzalar keladiki, maktublarimizni Sen qayta-qayta qo'lga olasan, yod bo'lib ketgan sahfalarini yana va yana takror-takror o'qiysan, ana o'shanda... Parvardigor menga ato etgan jonajon Do'stimming ko'nglida, dilida bir yorug'lik, bir nurli kayfiyat paydo bo'ladi... Shirin, totli va sirli xotiralar xayollarni olib qochadi... Insonning umri, shaxsiy-intim kechinmalar haqidagi ziddiyatlarga to'lib-toshgan adoqsiz o'ylar men o'zimnikiga aylantira olmagan go'zal qalbning o'zgacha dukurlashiga sabab bo'ladi...

Eh-he-e, men uni yozguncha... necha-necha bedor tunlar, iztiroblarga to'la ehtiroslar, hadsiz-hududsiz orzu-umidlar...

Lekin, biron lahma bo'lsin bir tuyg'u meni zinhor tark etmaydi, bu - dilimdagini yetarlicha tushuntira olmadim!.. tushuntira oldimmikan?!. yana yozsam, yana gapirsam - yozaversam, gapiraversam, holi-joniga qo'yamasam, mendan boshqani o'yalamasa, turmushning o'tkinchi tashvishlariga chalg'imasa!.. Axir oramizdag'i eng beg'ubor, eng toza tuyg'ulardan bahra olib yashashga xaqlimiz-ku! Qolaversa, men ming karra takrorlashdan charchamayman: Sen bandasining imkonida bo'lgan hech narsaga muxtoj bo'lmasliging kerak, Sen har on, har qadamda alloh Senga ato etgan jozibaga yarasha ezozlanmog'ing, qadrlanmog'ing, ehtiromlanmog'ing shart!..

Dilimdagini aytalayapmanmi, izhor eta olayapmanmi, jonim?..

Eng oppoq tuyg'ularini oyog'ing ostiga poyondoz qilish orzusidan kechmagan, kecholmaydigan, aslo kechishni xayoliga keltirmaydigan...

Eng olisdagi eng yaqin Do'st!..

Jonim! Ivan Turgenevning nasrdagi nazmlaridan ko'chirmani mening tilimdan eshitayotgandek o'qigin, xo'pmi?.. { {nw|РљPsPiPrPº PјPµPSCЦ PSPµ P±CѓPrPµC,, PePsPiPrPº PICѓC', C‡C,Ps P±C<Ps PјPSPsCЋ, CЋP°CѓCѓC<PiP»PµC ,CѓCЦ PiCЋP°C...PsPј, вЂњ Ps C,C<, PјPsP№ PµPrPѓPСѓC, PIPµPSPSC<P№ PrCЋCѓPi, Ps C,C<, PePsC,PsCЋCѓCЋ CЦ P»CЋP±PѓP» C,P°Pe PiP»CѓP±PsPePs Pѓ C,P°Pe PSPµP¶PSPs, C,C<, PePsC,PsCЋP°CЏ PiPµCЋPµP¶PѓPIPµCЌCЋ PјPµPSCЦ, вЂњ PSPµ C...PsPrPѓ PSPº PјPsCЋ PјPsPјPѓP»Cѓ... PѓPµP±Pµ C,P°Pј PrPµP»P°C,CЋ PSPµC‡PµPiPs. PќPµ P·P°P±C<PIP°P№ PјPµPSCЦ... PSPs Pѓ PSPµ PICѓPiPsPјPѓPSP°P№ PsP±Ps PјPSPµ CѓCЋPµPrPѓ

This is not registered version of TotalDocConverter

Пўртиманни китобларни сабаби оларни таассуот билан о'нгизига ишонаман. Ўна шунга аминмани, жинси ва ўшидан оғизи низар, номаларимизни о'қиган инсоннинг ко'нглида парвадигор бизга ато этган ажебир ўруглиқ, нурли бир кайфият пайдо бо'лади. Уларни ширин, тотли ва сирли шайол-хотираларга ошно этиди. Адоқсиз ва мухими, ҳукмлардан холи о'йларимиз о'ша номалум о'кувчимизнинг қалбига го'залик, езгинлик олиб киради, ко'ксидаги зарбалarning о'згача охандга уришига сабабчи бо'лади. Қалби бундай кайфият, бундай шайлон, бундай меҳрумабат билан то'лган инсон hayotda zinhor yomonlik, yovuzlikni bilmaydi, uning nazarida hamma-hamma go'zal, dunyo go'zal, hamma hammaga mehrla, butun olam yaratgan egamizning arzandasasi, erkasi bo'lib ko'rindi. Bunday odamlar faqat yaxshilik учун tug'iladilar, jumla-jahonga yaxshilik sog'inadilar, yaxshilikka topinadilar...

Nimalarni yozdingiz? Qayerdan topdingiz bu bu gaplarni? Nahotki, Siz menga shunday ayriliqni ravo ko'rsangiz, jonim?! Axir... yig'lab yubordim. Axir men zinhor bunday xayollarga bormaganman, o'yimning bir chekkasiga ham keltirmaganman, bunday sovuq va qora xayollarni, Siz esa... qo'rqib ketdim. Parvardigorning o'zi asrasin, bunday kunlardan, mehribonim! Xo'p, deng, Siz ham xudodan so'rang, iltijolar qiling. Beg'ubor do'stligimiz haqqi-hurmati O'zingiz va men uchun yolborib so'raylik, qadrondim!..

Sendan xabar kutib ko'zlarim toldi.

Bog'imizda olcha gulladi...

Yillar o'tar, Sen bilan men tanimagan-bilmagan navqiron yigit-qiz bu yozishmalarimizda qolgan tuyg'ular izhorini ajib taassurot bilan o'qishiga ishonaman. Yana shunga aminmanki, jinsi va yoshidan qatiy nazar, nomalarimizni o'qigan insonning ko'nglida parvadigor bizga ато этган ажебир ўруглиқ, нурли бир кайфият пайдо бо'лади. Уларни ширин, тотли ва сирли шайол-хотираларга ошно этиди. Адоқсиз ва мухими, ҳукмлардан холи о'йларимиз о'ша номалум о'кувчимизнинг қалбига го'залик, езгинлик олиб киради, ко'ксидаги зарбалarning о'згача охандга уришига сабабчи бо'лади. Қалби бундай кайфият, бундай шайлон, бундай меҳрумабат билан то'лган инсон hayotda zinhor yomonlik, yovuzlikni bilmaydi, uning nazarida hamma-hamma go'zal, dunyo go'zal, hamma hammaga mehrla, butun olam yaratgan egamizning arzandasasi, erkasi bo'lib ko'rindi. Bunday odamlar faqat yaxshilik учун tug'iladilar, jumla-jahonga yaxshilik sog'inadilar, yaxshilikka topinadilar...

Men shunday ulug' martabaga Sen, Sen tufayli erishdim!

Qo'limga qalam olarkanman, biron lahma ko'z o'ngimdan Sening chehrang nari ketgani yo'q, go'yo Sening ro'parangda turib yuzmayuz suhbat qurayotgandek, sadafdek oppoq chehrangdan yog'ayotgan billur nur nurafshon etib turgan yuragimdag'i kechinmalarni Sen bilan baham ko'rayotgandek, hatto... hatto ilohiy Haq poyida tavba qilayotgan mo'min singari yurak qonlarini siyohga aylantirdim.

Kel, oqibatli Do'st, beg'ubor tuyg'ularimiz qissasiga g'oyatda oddiy, lekin bag'oyat yuksak maqomdagi so'zsiz savol-javobimiz nuqta vazifasini o'tasin:

-
- ... - ..?
- !..

1996 вЂ“ 2010 yillar.